

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

S. Adilova, M. To'xtamirzayev

O' Z B E K T I L I

**Bakalavriatning barcha yo'nalishlari
rusiyabon talabalari uchun o'quv qo'llanma**

TOSHKENT - 2007

ANNOTATSIYA

Mazkur o'quv qo'llanma oliv ta'lif muassasalarining rusiyabon guruhlari uchun mo'ljallangan. Unda barcha material 12 ta umumiy kommunikativ mavzuga birlashtirilgan. Har bir mavzu zamonaviy handa qiziqarli matnlar, turli xil topshiriqlar, jumladan, rolli o'yinlarni o'z ichiga olgan kichik mavzulardan tashkil topgan. Adabiy-badiiy matnlar, talabalar mustaqil ishini tashkil etish uchun tavsiyalar va nazariy materiallar alohida bo'limlar sifatida berilgan.

Qo'llanmaning "Biznes olamida", "Sog'lom turmush tarzi" mavzulari hamda "Adabiy-badiiy matnlar" bo'limi M.To'xtamirzayev tononidan, qolgan qismi S.Adilova tononidan tayyorlangan.

Taqrizchilar: filologiya fanlari doktori, professor N.Husanov,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent D.Shodmonqulova

O'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2007-yil 16-oktabrdagi 1-sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya eti^gan.

© S.Adilova. Nizomiy nomidagi TDPU, 2007-yil

1. VATANIM – VIJDONIM, G’URURIM, ORIM

1-topshiriq. She’rni o‘qing.

BUYUK O’ZBEKISTON

Yer yuzida millat ko‘p,
Zo‘rmiz degan davlat ko‘p.
Bir o‘lka bor go‘zal xo‘b,
Dunyoga dong‘i doston,
Bu – buyuk O‘zbekiston!

Daryolari Zarafshon,
Tog‘larida oltin kon,
Ko‘katlari tugar don,
Dunyoga dong‘i doston,
Bu – buyuk O‘zbekiston!

Toshkent tengsiz, yagona,
Hatto kenti Afshona,
Samarqandday afsona,
Dunyoga dong‘i doston,
Bu – buyuk O‘zbekiston!

O‘zbek xalqi chog‘, shoddir,
Mangu erkin, ozoddir,
Joyi jannat, oboddir,
Dunyoga dong‘i doston,
Bu – buyuk O‘zbekiston!

Kurashi yozdi qanot,
Gijinglar “Neksiya” ot,
Har jabhada kashfiyot,
Dunyoga dong‘i doston,
Bu – buyuk O‘zbekiston!

Olda oydin manzillar,
Poyida unar gullar,
Vasfin kuylar bulbullar,
Dunyoga dong‘i doston,
Bu – buyuk O‘zbekiston!

Asror Mo‘min

Lug‘at

Kent - городок

Chog‘, shod - веселый

Gijinglamoq – здесь: рваться вперед

Har jabhada – во всех сферах

Unmoq - расти

Vasfini kuylamoq - воспевать

2-topshiriq. She’r mazmunini so‘zlab bering. Bunda quyidagi tayanch so‘z va so‘z birikmalaridan foydalanishingiz mumkin.

Bir o‘lka, dong‘i doston, kon, don, tengsiz, o‘zbek xalqi, erkin, obod, kurash, kashfiyot, oydin.

3-topshiriq. Quyidagi gaplarni to‘ldiring.

Namuna: *Olmaliq, Angren, Chirchiq, Yangiyo‘l shaharlari Toshkent viloyatida joylashgan.*

1. Jondor, Kogon, Shofirkon ... 2. Angor, Boysun, Denov... 3. Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust ... 4. Bog'ot, Shovot, Yangiariq... 5. Qo'ng'irot, Mo'ynoq, To'rtko'l

4-topshiriq. Siz voyaga yetgan viloyat, shahar, tuman mustaqillik yillarda qanday o'zgargani haqida kichik hikoya tuzing.

5-topshiriq. Mustaqillik bayramini siz kim bilan, qayerda va qanday o'tkazganingiz haqida suhbat quring.

6-topshiriq. Suhbat asosida daftaringizga kichik hikoya yozing.

7-topshiriq. O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasini yoddan ifodali o'qing va jo'r bo'lib kuylang.

8-topshiriq. Madhiya mazmuni bo'yicha savollarga javob bering:
Madhiyaning birinchi, ikkinchi misralarini qanday izohlaysiz?
Nima uchun muallif «oltin vodiylar» birikmasini qo'llagan?
Diyorimiz olamni qanday qilib yoki nimasi bilan «mahliyo aylagan»?
Nima uchun aynan «erkin, yosh avlodlar» Vatanimiz qanotidir?

9-topshiriq. Quyidagi so'zlarning ma'nosini lug'atlardan foydalanib izohlang:

Hur, najot, mahliyo, bag'ri keng, iymon, jo'sh urmoq, mash'al.

10-topshiriq. Matnni o'qing. Nima uchun muallif chuqur o'yga tolganini tushuntirib bering.

SAMARQANDGA BORGANMISIZ?

Hindistonga borib kelgan bir tanishim bilan *suhbatlashib qoldim*. U taassurotlarini hayajon, zavq bilan *gapirib berdi*. «Tojmahalni to nosha qilib, Sharq me'morchilik san'atining bu noyob namunasiga hayrat bilan *termulib goldik*, — dedi suhbatdoshim. — Bizning hayratimizni kuzatib turgan mahalliy kishilardan biri “Sizlar qayerdan kelgansizlar?” — deb so'radi. O'zbekistondan, aniqrog'i, Toshkentdan ekanimizni aytdik. Shunda haligi kishi yana so'radi: “O'zbekistondan bo'lsangiz, Samarqand bilan Buxoroni ko'rgandirsiz?” Ochig'i, men haligacha Samarqandga ham, Buxoroga ham bormagan edim. Yolg'on gapirolmadim. Javobimni eshitib haligi hind afsus bilan *bosh chayqadi*. “Oldingizda turgan Samarqand-u Buxoroni ko'rmaganmisiz?.. Demak, shu bois bunga hayratlanib qarayotgan ekansiz-da... Menimcha, bu yerlarga kelishdan avval yoningizdagি qadim Samarqand bilan Buxoroni *ziyorat qilishingiz lozim edi*”.

Tanishim o'sha hindning gapi juda qattiq ta'sir qilganini, endi albatta, Samarqand bilan Buxoroni borib ko'rishini aytdi.

Rosti, tanishimning gapi meni chuqur *o'yga toldirdi*...
(M.Hazratqulov)

11-topshiriq. Matndagi ajratilgan kesimlari ko'chirib yozing, tarjima qiling, ular ishtirokida gaplar tuzing.

12-topshiriq. Siz mamlakatimizning qaysi shaharlarida bo'lgansiz, ular qanday taassurot qoldirgan? Shu mavzuda do'stlaringiz bilan suhbatlishing.

13-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga tegishli qo‘sishchalarini qo‘ying. Maqollarni yozib oling, ularning mal’osini o‘z so‘zingiz bilan tushuntirib bering.

1. Ona yurt... — oltin beshiging. 2. Ona yurting omon bo‘sa, rangi-ro‘y... somon bo‘lmas. 3. El... ayrilguncha jon... ayrıll. 4. Bulbul gul... sevar, odam vatan...5. Yurt... ayrılgan... yov chopadi.

14-topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT TIZIMI

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarda rivojlangan demokratik davlat tizimiga o‘tdi. Bu tizimda davlat shakli uch qisriiga bo‘linadi: boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy rejim.

O‘zbekiston Respublikasi boshqaruv shakli bo‘yicha prezidentlik-parlamentlik respublikasıdir. Davlat tuzilishining shakli oddiy, lekin murakkablik elementlariga ega. Chunki mamlakatimiz tarkibiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi ham kiradi. Siyosiy rejim shakliga ko‘ra esa O‘zbekiston demokratik davlatdir.

Hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo‘linadi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat O‘zbekiston Respublikasining Parlamenti – Oliy Majlis bo‘lib, u ikki palatadan: Quyi palata va Senatdan iborat.

Ijro etuvchi organlar quyidagilar: Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, mahalliy hokimiyat organlari (hokimiyatlar), mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari (mahalla qo‘mitalari).

Sud tizimi quyidagilardan tashkil topadi: Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xozjalik sudi, Fuqarolik sudi, Harbiy sud, mahalliy sud organlari.

Lug‘at

Tizim – система

Rivojlangan demokratik davlat – развитое демократическое государство

Murakkablik elementlari – элементы сложности

Qonun chiqaruvchi – законодательный

Ijro etuvchi - исполнительный

Mahalliy - местный

15-topshiriq. Matn yuzasidan quyidagi savollarga javob bering, javoblariningizni yozing.

O‘zbekiston Respublikasida hokimiyatning qaysi turlari mavjud?

Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organi qanday nomlanadi, uni kim boshqaradi?

Qaysi soha “to‘rtinchi hokimiyat” hisoblanadi?

Qonun chiqaruvchi organning nomi nima?

O‘zingiz bilgan vazirliklarning nomini yozing.

16-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga tegishli kelishik yoki egalik qo‘sishimchalarini qo‘yib, so‘z birikmalarini ko‘chiring, qaratqich va tushum kelishigidagi so‘zlar qachon belgisiz qo‘llana olishini eslang. Boshqaruv shakl..., davlat tuzilishi... shakl..., sud hokimiyat..., xalq tomon...dan saylanish, o‘z kasbi... fidoyilar..., o‘z-o‘zi... boshqarish, senator... saylash, saylov okrug...

17-topshiriq. Matnnni o'qing.

KONSTITUTSIYA

Konstitutsiya davlatimiz mustaqilligining ramzi va ifodasi, xalq hurnigi va ozodligi timsolidir, u ozodlik g'oyasi va puhi bilan sug'orilgan. Konstitutsiyamizda insonning hayoti, erki, sha'ni, qadr-qimmati, huquqlari va erkinliklari muqaddas sanalib, ular huquqiy jihatdan kafolatlangan.

Konstitutsiyadagi ayrim moddalarni yodga olaylik:

1- modda. O'zbekiston – suveren demokratik respublika.
4- modda. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

5-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlangan o'z davlat ramzlari - bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega.

29-modda. Hap kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega.

31-modda. Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

41- modda. Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

66-modda. Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

18-topshiriq. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ta’lim, oila, ota-onalari farzandlari munosabati masalalariga bag‘ishlangan 41-42-63-64-65-moddalarini (o‘zbek tilida) mustaqil ravishda o‘qib o‘rganing, do‘srlaringiz bilan muhokama qiling.

19-topshiriq. Quyidagi she’rni ifodali o‘qing, mazmunini tushuntirib bering:

VATAN OZODA BO‘LSIN

Quyosh falak toqida,
Oy ham fazoda bo‘lsin.
Nur yog‘sins kecha-kunduz,
Vatan ozoda bo‘lsin.
O‘tib abri naysonlar,
Durlar to‘ksin osmonlar,
Charaqlasin ayvonlar,
Vatan ozoda bo‘lsin.
Shabnamlargacha yuzingni
Yuvib ochgil ko‘zingni.
Pok et avval o‘zingni,
Vatan ozoda bo‘lsin.
Mayli gul, rayhon o‘stir,
O‘g‘il-qiz, inson o‘stir.
Avval qalb, iyomon o‘stir,
Vatan ozoda bo‘lsin.
Sen shom, nahoriga boq,
Bog‘-u bahoriga boq.
Imom Buxoriyga boq.

Vatan ozoda bo'lsin.
Bu dunyoda gul qolar,
Bog' qolar, bulbul qolar,
Biz ketarmiz, shul qolar.
Vatan ozoda bo'lsin.

Sirojiddin Sayyid

Lug'at

Falak toqida – под куполом неба.
Abri nayson – весенний дождь
Shabnam – роса
Iymon – вера.
Shom – сумерки
Nahor – угрюм, рассвет

20-topshiriq. Mahallangiz, ko'changizga berilgan nom, uning tarixi haqida nimalar bilasiz? Siz mahallangiz obod bo'lishi uchun nimalar qilayotganingiz to'g'risida so'zlab bering. Hikoyangizni daftaringizga yozing.

21-topshiriq. O'zbekiston haqida qo'shiqlarni tinglang, ularning mazmunini so'zlab bering.

22-topshiriq. She'rni o'qing. Ma'nosini so'zlab bering. She'rni yod oling.

BIR NIHOL

Yurtdoshim, bog'ingga bir nihol qada,
Bu nihol nomini Yaxshilik ata.

Niholing yoniga bir gul ekib qo'y,
U gulning ismini Go'zallik deb qo'y.
Gul-u niholingga baxsh etib hayot,
Suv ber va bu suvga Mehr deb qo'y ot.
Sendan farzandingga bog' qolsin, ey do'st,
Bog'ing Vatan degan nom olsin, ey do'st.

Erkin Vohidov

23-topshiriq. *Nitol, qadamoq, mehr, yaxshilik* so'zlarining ma'nosini aniqlang. Ushbu so'zlar ishtirokida birikmalar tuzing.

2. KASBIM – FAXRIM

1-topshiriq. Matnni o‘qing.

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti 1935-yil 14-sentabrda O‘rtta Osiyo davlat universitetining pedagogika fakulteti negizida tashkil topdi. 1947-yilda buyuk sharq mutafakkiri Nizomiy nomi berildi. 1998-yilda kasb-hunar kollejlari uchun malakali pedagog va muhandis pedagog kadrlar tayyorlash bo‘yicha tayanch oliy ta’lim muassasasi sifatida institutga universitet maqomi berildi.

Toshkent davlat pedagogika universiteti(TDPU)da oliy ta’lim (bakalavriat, magistratura), oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim (aspirantura, doktorantura), kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo‘yicha ish olib boriladi.

Universitetda 23 mutaxassislik bo‘yicha bakalavr, 25 mutaxassislik bo‘yicha magistrlar tayyorlanadi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha ikkita fakultet faoliyat ko‘rsatadi. Shuningdek, ellikdan ziyod kafedra mavjud bo‘lib, ularda 800 ga yaqin professor-o‘qituvchi ishlaydi.

TDPU pedagogik kadr tayyorlovchi barcha muassasalar uchun tayanch oliy maktab hisoblanadi. Bu yerda oliy pedagogik ta’limning barcha me’yoriy hujjatlari: davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari, fan dasturlari yaratiladi.

Universitet kutubxonalarida zamonaviy darslik, o'quv qo'llanmalari, ilmiy va badiiy asarlar, elektron darslik va ishlanmalar mavjud.

Shuningdek, talabalar uchun shinam turar-joy, sport inshootlari hamda umumiy ovqatlanish tarmog'i muntazam ravishda xizmat qiladi.

Lug'at

Negiz - основа

Mutafakkir – мыслитель

Tayanch muassasa – базовое учреждение

Maqom – статус

Malaka oshirish – повышение квалификации

Qayta tayyorlash – переподготовка

Me'yoriy - нормативный

Ishlanma - разработка

Shinam – удобный, комфортабельный

Inshoot - сооружение

Tarmoq – сеть

Muntazam - постоянно

2-topshiriq. Berilgan rejaga tayanib matnning asosiy mazmunini so'zlab bering.

- 1) pedagogika universiteti tarixi;
- 2) TDPU – tayanch oliy ta'lif muassasasi;
- 3) barcha sharoitlar mavjud.

3-topshiriq. Quyidagi so‘z va so‘z birikmaları ishtirokida gaplar tuzing:

oliy məktəb, pedagogik təlim, mə'yoriy hujjatlar, malaka oshirish, bakałavr, magistratura, amaliyot, kasb-hunar.

4-topshiriq. Quyidagi matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling, unga sarlavha qo‘ying.

Нет ни одного учителя, который не стремился бы к вершинам педагогического мастерства в своей профессии. Ведь мастерство — инструмент, без которого невозможны высокие результаты учительского труда, его эффективность и качество.

«Мастер педагогического дела, — говорил В. А. Сухомлинский — настолько хорошо знает азбуку своей науки, что на уроке, в ходе изучения материала, в центре его внимания не само содержание того, что изучается, а ученики, их умственный труд, их мышление, трудности их умственного труда».

Педагогическое мастерство обретается в опыте, в повседневной работе. А эксперимент, направленный на усиление интереса детей к учебе, пусть даже иногда с определенными промахами, может зажечь других учителей духом творчества. Такой эксперимент нужно приветствовать и рассказывать во всеуслышание о тех, кто работает нешаблонно, творчески.

5-topshiriq. Sevimli o‘qituvchingiz haqida so‘zlab bering. Hikoyani “Men o‘zimning o‘qituvchim ... haqida gapirmoqchiman” jumlesi bilan boshlang.

6-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga tegishli qo‘sishchalarini qo‘yib matnni o‘qing.

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA INSTITUTI

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti 1955-yil... tashkil etil... bo‘lib, ayni vaqtgacha respublikamiz xalq xo‘jaligi uchun 20 ming... ortiq oliy ma’lumotli mutaxassislar yetishtirib ber....

Hozirgi kun... institut... 4 ta fakultet, 19 ta kafedra... mavjud Ularda 144 nafar o‘qituvchi, shu jumladan, 12 ta fan doktori va professor, 46 ta dotsent va fan nomzodi, 10 ta O‘zbekiston... xizmat ko‘rsat... murabbiy faoliyat yuritadi.

Talabalar institut, tuman, shahar va respublika miqyosi.. o‘tkaziladi... siyosiy-ijtimoiy, madaniy-ma’naviy, obodonlashtirish ko‘kalamzorlashtirish ishlari... faol ishtirok etib kelishadi. Talabalarning aksariyat qismi sport ustasi, xalqaro toifadagi sport ustasi, xizmat ko‘rsat... sport ustasi unvonlariga sazovor bo‘lish.... Ularning ko‘pchiligi mamlakatimiz terma jamoalari a’zosi bo‘lib, Olimpiada, jahon va Osiyo musobaqalari... shohsupaga ko‘tarilish..., yurtimiz shuhratini jahonga yoyishmoqda.

Institut va uning o‘quv binolari, xonalari, sport inshootlari kun sayin zamonaviylashib bormoqda.

Lug‘at

Ayni vaqtgacha – до сих пор

Xalq xo‘jaligi – народное хозяйство

Murabbiy – здесь: тренер

Miqqos - масштаб

O‘bdonlashtirish - благоустройство

Ko'kalamzorlashtirish - созленение

Aksariyat qismi - большинство

Nalqaro toifadagi – международного класса

Sazovor bo'lmoq - удостоиться

Terma jamoa – сборная команда

Shohsupa - пьедестал

Kun sayin – изо дня в день

Zamonaviyashmoq – модернизироваться

7-topshiriq. Quyidagi birikmalarni rus tiliga tarjima qiling. –gan qo'shimchasi qanday vazifa bajarayotganini tushuntiring.

Unvonga sazovor bo'lgan, xizmat ko'rsatgan murabbiy, avval o'qilgan asar, yaxshi o'qigan, vazifalar bajarilgan, bajarilgan vazifalar, tuzilgan reja, kecha ko'chirib bo'lgan.


8-topshiriq. "Kasb nomlari"ning ikki tilli lug'atini yozing.

9-topshiriq. O'zingiz tanlagan kasb, uning namoyandalari to'g'risida so'zlab bering.

10-topshiriq. Matnni o'qing.

AKADEMIK MAHMUD SALOHIDDINOV

Mahmud Salohiddinovich Salohiddinov – atoqli matematik olim, fizika-matematika fanlari doktori, professor, akademik, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti sovrindori. U O'zbekistonda differensial tenglamalar



sohasidagi hozirgi zamон ilmiy maktabining tashkilotchisi va rahbari, respublikada fan va ilmiy ta'limni tashkil etish va rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan jamoat va davlat arbobidir.

M.S.Salohiddinov 1933-yil 23-noyabrda Namangan shahrida tavallud topdi. 1950- yil O'rta Osiyo davlat universitetining fizika-matematika fakultetiga o'qishga kirdi, uni imtiyozli diplom bilan tamomladi. U 1958-yilda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyat bilan himoya qildi. Shu bilan butun umrini O'zbekistonda matematik bilimlarni rivojlantirishga bag'ishladi. 1967-1985-yillarda O'zFA vitse-prezidenti, 1988-1994-yillarda esa prezidenti bo'lib ishladi.

Mahmud Salohiddinovich sermazmun ilmiy, ijodiy faoliyatini doim pedagogik va davlat ishlari bilan birga olib bordi. U 1985-1988-yillarda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri vazifasida ishlab, oliy muktabni rivojlantirish va uning kadrlar salohiyatini ko'tarishga katta hissa qo'shdi. Toshkent davlat universitetida o'zi asos solgan differensial tenglamalar kafedrasи mudiri bo'lib ishladi. Ajoyib pedagog, ilmga chanqoq yoshlarning sevimli murabbiyi, shu bilan birga, juda talabchan, mehribon, xushfe'l, adolatparvar inson.

Matematikani va oliy ta'limni rivojlantirishga co'shgan hissasi, sermahsul pedagogik faoliyati va yuqori malakali ilmiy mutaxassislarни tayyorlagani uchun M.S.Salohiddinov "Hurmat belgisi" ordeni va medallar bilan taqdirlandi.

Lug'at

Atoqli – именитый

Fan arbobi – деятель науки

Mukofot sovrindori – лауреат премии

Tenglama - уравнение

Ilmiy ta'lim – научное образование

Hissa qo'shmaq – вносить вклад

Imtiyozli diplom – диплом с отличием

Nomzodlik dissertatsiyasi – кандидатская диссертация

Himoya qilmoq - защищать

Bag'ishlamoq - посвящать

Sermazmun - содержательный

Salohiyat - потенциал

Chanqoq – жаждущий

Talabchan - требовательный

Xushfe'l - добродушный

Sermahsul - плодотворный

Taqdirlanmoq -- быть награжденным

11-topshiriq. Matnni qayta so'zlash uchun reja tuzing.

12-topshiriq. Matndagi ajratilgan so'z va birikmalar ishtirokida gaplar tuzing va daftaringizga yozing.

13-topshiriq. Quyidagi tavsiyalar bilan tanishing. Sizningcha, jurnalist qanday bo'lishi kerak? Shu mavzuda matn tuzing.

JURNALISTIKANING 10 QOIDASI

1. Jon-dildan ishlang! (Ish nimadan boshlanadi? Qiziqish va xolislik. Jon kuydirish — muvaffaqiyat kaliti. Yangilik nima?)

2. Eng muhimini ayting! (Muhimlik mezonlari. Istiqbolni ko‘rish. Yangiliklarni baholash)

3. Rejali ishlang! (Axborot maydonini chegirib olish. Manbalarni topish. Kelishib ishlash. O‘z manbalaringizni oshkor etmang! Manbalarga tanqidiy munosabat)

4. Tayinli narsa haqida gapiring! (Muvofiqlashtirish. Tomchida quyosh aks etadi. Tafsilotlar. Metonimiya va metafora)

5. Tayyorlanmoq va eshitmoq! (Hozirlanish. Savolni to‘g‘ri qo‘yish. Tabu – taqiq. Tinglash qobiliyati. Xulq masalasi)

6. Vogealar oqimiga to‘sinqinlik qilmang! (Qahramoningizni ko‘p ovora qilmang! Muhit. Qahramon va operatorlar o‘rmini belgilash. Baholash)

7. Til madaniyatiga rioya qiling! (Efirdagi yangiliklar. Matnssenariy. Mas’ul muharirlarning o‘rni. Tabu – taqiq. Suhbatda fe’l zamonalari. Teleekran tili)

8. Yangi versiyalarни toping! (Yangilanish va barqarorlik. Ovoz changi. Televizorda hikoya qilish san’ati. Hayajonli kadrlarni izohlash. Musiqa va surat. Hududiylikdan umummilliylilikka)

9. Boqealap tasvirida xolislik (Dilemma, ya’ni bir-biriga zid ikki dalil. Jurnalistikada axloqiy tamoyillar. Ommaviy axborot vositalari hokimiyati)

10. Zamon bilam hamnafaslik (Axborot inqilobi. Kompyuterlar hujumi. Xalq hokimiyati. Jurnalistga yangicha talablar. Chegaralarning ochilishi)

Erik Fixtelius

14-topshiriq. Quyidagi suhbatni rollarga bo‘lib o‘qing.

- Sohiba opa, siz ham o‘qishga ketyapsizmi?

- Ha, Sevara, birinchi darsimiz – jismoniy tarbiya.
- Iye, sizni Kimyo-texnologiya institutida o‘qiydi deb eshitgan edim-ku!
- To‘g‘ri, o‘sha yerda o‘qiyman. Lekin barcha oliy o‘quv yurtlarida bo‘lganidek, mutaxassislik fanlaridan tashqari, boshqa bir qator darslarni ham o‘tamiz. Jumladan, jismoniy tarbiya ham. Menga bu mashg‘ulotlar juda yoqadi.
- Ayting-chi, Sohiba opa, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis bo‘lish uchun qaysi fanlarni e’tibor bilan o‘rganishim kerak? Maktabni tamomlash arafasidaman, kelajakda foydasi tegadigan narsalargagina vaqtimni sarflasam deyman.
- Aslida, hamma fanlarni astoydil o‘rgansang, o‘qish, kichik kashfiyotlar qilish, bilimlaringni hayotda qo‘llab ko‘rish qanchalik qiziqarli ekanini tushunib olasan. Undan tashqari, hozirgi paytda barcha fanlar, kasblar o‘zaro bir-biriga singib ketyapti. Shuning uchun maktabdagagi hamma darslaringga puxta tayyorlan.
- Xo‘p. Lekin baribir, siz o‘qiyotgan fakultetga kirish uchun qaysi fanga ko‘proq e’tibor beray?
- Kimyo, fizika, matematika, biologiya, geografiya, tarix va tilga.
- Rahmat, Sohiba opa, yaxshi o‘qib keling. Xayr.

15-topshiriq. Siz o‘qiyotgan fakultet (bo‘lim) haqida universitet yoki institutingizning Internet saytiga kiritilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni yozing.

16-topshiriq. Ushbu ma’lumotlarni boyitish uchun fotosuratlar tanlang. Nima uchun ularni tanlaganingizni izohlang.

17-topshiriq. Kelajakdagi rejalaringiz haqida kichik hikoya tuzing va daftaringizga yozing. Mumkin bo‘lgan hollarda kelasi zamon fe’llarini hozirgi-kelasi zamon fe’llari bilan almashtiring. Matning umumiy mazmunida qanday o‘zgarish bo‘lganini tushuntiring. Matn tuzish uchun quyida berilgan ko‘maklashuvchi savollardan foydalaning.

Namuna: - *Siz kelajakda kim bo‘lmoqchisiz?*

- *Men kelajakda muhandis bo‘lmoqchiman.*

- *Men kelajakda muhandis bo‘laman.*

Siz kelajakda kim bo‘lmoqchisiz?

Nima uchun aynan shu kasbni tanladингиз?

Bu kasbning murakkab tomonlari nimada?

Tanlagan kasbingizni egallash uchun nima qilish kerak?

Qaysi fanlarni qunt bilan o‘rganish lozim?

Maqsadga yetish uchun Internet yoki masofaviy ta’lim tizimidan qanday foydalanish mumkin?

Universitet (institut)da olayotgan nazariy bilimlaringizni amaliyotda qanday qo‘llamoqchisiz?

Yaxshi mutaxassis bo‘lish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanyapman deb o‘ylaysizmi?

Yana qanday orzu-umidlaringiz bor?

Lug‘at

Аynan – именно

Qunt bilan o‘rgamtoq – тщательно изучать

Masofaviy ta’lim – дистанционное образование

18-topshiriq. Siz o'qiydigan oliv ta'lif muassasasida "Talaba nizomi" bormi? Uning talablarini bajarasizmi? Ushbu nizomga siz yana qanday qo'shimchalarni kiritishni istaysiz? O'z variantingizni yozib, uni guruhdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

19-topshiriq. Haftalik dars jadvalingizni o'zbek tilida yozing, fanlarning o'zbekcha nomlanishiga e'tibor bering.

20-topshiriq. Quyidagi maqol va hikmatli so'zlarni o'qing, ularning ma'nosini izohlang.

Suv — zar, suvchi — zargar. Hunarli — zar, hunarsiz — xor. Halol ish — lazzatli yemish. Qo'l — dil xizmatkori. Yozgi mehnat — qishki rohat. Bilim bilan hikmat oltindan qimmat. Ilm o'rganishdan murod mansab emas, xalq va vatan oldidagi burchni oqlashdir. Er yigitga qirq hunar oz.

21-topshiriq. Nuqtalar o'mniga gapning mazmuniga mos fe'llarni tegishli zamон shaklida qo'ying, gaplarni rus tiliga tarjima qiling:

Talabalar dars tayyorlaydi, ..., ...,	tikadi, o'qyidi, bichadi,
Dehqonlar yer haydaydilar, ekin..., hosilni...	ekadilar, yozadi, ko'radi,
Tikuvchi ...,	sug'oradilar, davolaydi,
Shifokor bemorni ...,	yig'ib oladilar

22-topshiriq. Tanlagan kasbingizga mos rolli o'yinda ishtirok eting (masalan, «Boshliq va xodim», "Yarim yillik hisobot muhokamasi"). Bunda o'z ixtisosligingizga oid atamalardan foydalaning.

23-topshiriq. Quyidagi she’rning ma’nosini tushuntirib bering.

ULUG‘BEKNING MUALLIMIGA

Men senga shunchaki ko‘zlar bergenman,

Muallim o‘rgatar ko‘ra olmoqni.

Dilbandim, men senga ona bo‘lganman,

Senga u o‘rgatar “ona” demoqni.

Men senga tilingni bergenligim rost,

Dono so‘zlamoqni u o‘rgatadi.

Men senga qo‘llaring bergenligim rost,

Qalara ushlarlamoqni u o‘rgatadi.

Men senga sut berdim, u esa ziyo,

Uningsiz yo‘llaring bo‘lmas oydin, oq.

Seni sevmog‘imni biladi dunyo,

Ammo u sevadi mendan ortiqroq!

Senga alla aytib ku‘shi bo‘lganman,

U esa o‘zingni shoir qiladi.

Bo‘ylaring o‘sganda ko‘ngli to‘lgan man,

U aqling o‘stirib ko‘ngli to‘ladi.

Go‘daklik chog‘ingda bo‘lganman bedor

Va senga baxshida etganman hayot.

U esa yashashni o‘rgatar ming bor,

Seni deb bezovta yashar umrbod.

Sen agar hurmat m saqlamoq bo'lib.
Ko'tarmoq istasang meni boshingga,
Avval mualliming qo'llarini o'p,
Fidoyi qalbini ko'tar boshingga!

Sening insonligir g, borliging uchun
. Muallimdan mening juda ko'p qarzim.
Payti kelib boshing ko'kka yetgan kun,
Ikkimiz uchun ham unga qil ta'zim.

Xosiyat Bobomurodova

Lug'at

Dilbandim – родимый мой

Ziyo - свет

Uningsiz – без него (нее)

Ko'ngli to'lmoq -- быть довольным

Go'daklik chog'ingda – когда ты был младенцем

Bedor bo'lmoq – быть бдительным

Hayot baxshida e'moq -- посвятить жизнь

Bezovta bo'lmoq – беспокоиться

Fidoyi – самоотверженный

Boshi ko'kka yetdi – обрадовался

Ta'zim - поклон

3. TALABA VA ZAMON

1-topshiriq. Matnni o'qing. Undagi zamonaviy texnologiyalarni anglatuvchi terminlarni ko'chirib oling. Ularni rus tiliga tarjima qiling.

XXI ASR – AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASRI

Biz yashayotgan davrda texnika va texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Kompyuterlarning yangi va yanada yangi avlodlari hech kimni ajablantirmay qo'ydi.

Uyali telefon aloqasi turmushimizda mustahkam o'rinn oldi. Biz nafaqat ovoz yordamida suhbatlashishimiz, balki SMS (qisqa nomalar xizmati) orqali muloqot o'rnatishimiz mumkin. Shuningdek, bugungi kunda kichkinagini apparat yordamida surʼaga tushirishimiz, ovoz yozib olishimiz, sevimli kuy-qo'shiqlarni tinglashimiz mumkinligi bizga juda qo'l kelmoqda.

Internet imkoniyatlarimizni tobora kengaytirmoqda. Uning yordamida dunyoda ro'y berayotgan voqe-a-hodisalar haqida tezkorlik bilan xabar topishimiz, kasbimiz yoki sevimli mashg'ulotimizga oid bilim va materiallarni olishimiz, masofaviy ta'lim tizimi xizmatidan foydalanishimiz, yoqtirgan ashula va filmlarimizni ko'chirishimiz, virtual do'kondan mahsulot xarid qilishimiz mumkin.

Elektron pochta, ISQ, forum, chat va boshqa xizmatlar aloqa c'rnatish sohasida katta taraqqiyot ro'y bergenini namoyish cilmoqda.

Avval plyonkaga tushirilgan tasvirni qog'ozga chiqarish katta mashaqqatga aylangan bo'lsa, hozir raqamli texnologiyalar yordamida bu ish tez va soz bajarilmoqda.

Ertaga nima bo'ladi – vaqt ko'rsatadi. Lekin bir natsa aniç: texnologiyalar inson hayotini qiziqarli va mukammal qilishga yordamlashaveradi.

Lug'at

Sur'at – темп

Ajablantirmoq – удивлять

Muloqot o'rnatmoq – установить общение

Qo'shlamoq – пригодиться

Xarid qilmoq – покупать

Taraqqiyot – развитие

Ro'y bermoq – происходить

2-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering:

Nima sababdan XXI asr axborot texnologiyalari asri hisoblanadi?

Kundalik hayotingizda axborot texnologiyalarining o'rni qanday?

Mashg'ulotlarga, xususan, "O'zbek tili" darslariga tayyorqarlik ko'rishda kompyuterdan, Internet tarmog'idan qanday foydalanish mumkin?

Til o'rgatuvchi kompyuter dasturlarini bilasizmi?

Sizningcha, o'zbek tilidan multimedia darsligi qanday bo'lishi kerak?

3-topshiriq. O'zingiz haqingizda qisqa ma'lumot yozing va urli saytorda tanishish uchun e'lon tayyorlang.

4-topshiriq. Do'stingizga o'zbek tilida elektron xat yozing va uni e-mail orqali jo'nating. Yozishmani muntazam davom ettiring.

5-topshiriq. Matni o'qing.

ELEKTRON POYAFZAL

Dunyodagi eng birinchi elektron oyoq kiyimi AQShning Massachusset texnologiya institutida ishlab chiqilgan. "Veb for Shoe" deb nomlangan kompyuterlashtirilgan poyafzal o'z egasining yurish yoki yugurish uslubiga moslashish, unga nima yoqishini eslab qolish, hatto uning o'rniغا ko'chada boshqalar bilan tanishish kabi qobiliyatlarga ega. U maxsus "Magellan" operatsion tizimi tomonidan boshqariladi. Tovon tomoni va uch qismida joylashgan kameralar yurish yoki yugurish vaqtida havoga to'lib, ushbu harakatlarni yengillashtiradi. Sensor, vibrator kabilar inson harakatlanayotganida paydo bo'layotgan muammolar haqida poyafzal egasining shaxsiy kompyuteri yoki qo'l telefoniga axborot yuboradi. Ekranda grafik tasvirlar yordamida qancha masofa qanday tezlikda bosib o'tilgani, bunda qanday muammolar, noqulayliklarga duch kelingani tahlil qilinadi.

Bunday antiqa oyoq kiyimi egalari virtual hamjamiyat tuzishlari mumkin. Ya'ni elektron tuqli xotirasiga uning egasi haqidagi ma'lumotlar, audiofayllar kiritilishi mumkin. Shunda ko'chada "ko'rishib qolgar" turli elektron tuflilar bir-birini taniydi va egalari to'g'risida radicvizitkalar bilan almashadi, axborot kompyuter ekraniga uzatiladi. Mazkur poyafzalning elektron qismlari suv va kuchli zarbalardan ishonchli vositalar yordamida himoyalangan.

Bu tuflilarning og'irligi oddiy oyoq kiyiminikiday 500 gramm. Internet orqali buyurtma berishda ularning bichimi, razmeri, dizayni, elektron qisimidagi imkoniyatlar miqdori, turini tanlash mumkin.

Massachusetts texnologiya institutida olib borilayotgan tadqiqotlardan yana biri tolalariga mikrokompyuterlar qo'shib to'qilgan antiqa mato va shu matodan tikilgan liboslarga bag'ishlangan bo'lsa, ikkinchisi o'tkazgichsiz tarmoq yordamida ko'radigan ko'zoynak-monitorlar bilan bog'liqdir. Bu mahsulotlar elektron dastur asosida kiyim egalarining shifokori, maslahatchisi, hamkor sifatida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato-kamchilik, duch kelish ehtimoli bo'lgan noxushlik haqida ogohlantiradi. Egnidagi elektron sistemaga inson oddiy ovoz bilan buyruq berishi ko'zda tutilgan.

Olim va dasturlovchi mutaxassislar fikricha, yaqin kelajakda liboslar olami yangi, nihoyatda rivojlangan bosqichga ko'tariladi.

www.mirnovostey.uz

Lug'at

O'z egasi – свой хозяин

Moslashish – приспособливаться

Uslug – стиль

Qobiliyat – способность

Toyon tormoni – область пятки

Uch qismi – носовая часть

Masofa – расстояние

Noqulayliklar – неудобства

Duch kelmoq – встретить

Antiq – удивительный

Hamjamiyat – сообщество

Bichim – покрой

Tola – волокно

Mato – ткань

O'tkazgichsiz tarmoq – беспроводниковая сеть

Hamkor – партнер

Noxushlik – неприятность

Ogohlantirmoq – предупреждать

6-topshiriq. Matnda uchragan yangi so'z(neologizm)larni ko'chirib yozing, ma'nosini izohlang.

7-topshiriq. Internetdan elektron mahsulotlar haqida ma'lumot toping va shu asosda qisqa xabar tayyorlang.

8-topshiriq. Matnni o'qing. Notanish so'zlar lug'atini tuzing.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OLIY TA'LIM TIZIMI

Kadrlar tayyorlash milliy modelida uzliksiz ta'lim tizimining oliy ta'limiga alohida e'tibor qaratilgan. Uning maqsadi respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojiga o'z hissasini qo'shadigan, bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali faoliyat yuritadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuriiga muvofiq 1998-yildan oliy ma'lumotli mutaxassislarni ikki bosqichda - bakalavriat va magistraturada tayyorlash tizimi joriy etildi.

Talabalarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish davlat grantlari va to'lov-shartnorna asosida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda oltmisdan ziyod oliy ta'lim muassasalari – universitetlar, institutlar va boshqa bilim dargohlari oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Mamlakatimizda texnik yo'nalishda ta'lim beruvchi 14 ta, gumanitar yo'nalishda – 15 ta, pedagogik yo'nalishda - 5 ta, tibbiyot sohasida - 5 ta, agrar yo'nalishda - 4 ta hamda bir qator ixtisoslashgan universitet va institutlar mavjud. Shuningdek, respublikaning turli shaharlarida oliy o'quv yurtlarining filiallari ishlab turibdi.

Hamkorlik natijasida mamlakatimizda yetakchi xorijiy universitetlarning filiallari faoliyat ko'rsatmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlar asosan o'zbek, rus, qoraqalpoq, ba'zi mutaxassisliklar bo'yicha ingliz, qozoq, tojik, turkman tillarida olib boriladi.

Respublikamiz oliy ta'lim maskanlarida elektron kataloglar, virtual kutubxonalar yaratilgan, elektron darsliklar va qo'llanmalar tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

Professor-o'qituvchilar xorijdagi hamkasblari bilan tajriba almashish imkoniga egalar. Iqtidorli talabalar turli mamlakatlarga grant asosida o'qishga yuborilishi yo'lga qo'yilgan. O'qish va ilmiy izlanishda faollik ko'rsatgan talabalar Prezident stipendiyasi, Ullug'bek, Navoiy va boshqa allomalarimiz nomi bilan ataluvchi maxsus stipendiyalarga sazovor bo'lishadi.

Mamlakatimiz talabalari o'rtasida fan olimpiadalari, ilmiy-amaliy anjumanlar, sport universiadaları, turli madaniy-ma'rifiy ko'rik-tanlovlardan muntazam ravishda o'tkaziladi.

Bularning barchasi oliy ta'lif muassasasida o'qish yillarining "oltin davr" deb atalishiga sababdir.

9-topshiriq. Matn asosida reja tuzing va matn mazinunini so'zlab bering.

10-topshiriq. O'zbekiston Respublikasidagi ta'lif bosqichlari haqida so'zlab bering, ularni chizmada tasvirlang.

11-topshiriq. Siz o'qiydigan universitet(institut)da turli sohalarda muvaffaqiyat qozengan talabalar haqida gazetaga maqola yozing.

12-topshiriq. Nuqtalar o'mniga gapning ma'nosiga mos so'zlarni qo'yib, matnni ko'chiring (quyidagi so'zlardan foydalaning: *bog'lamagan, xotiralar, mumkin, yoshligingni, yoshligida, yo'q, qanchalik, dunyoda*).

YOSHLIGINGNI ASRA

... asra. ... undan yaxshi narsa
... . Undan qimmatli narsa yo'q! Kimda-kim ... o'zini ulug' va ajoyib ishlar bilan yoki hech bo'lmasa oddiy, lekin halol va foydali mehnat bilan ... ekan, u, yoshligi ... xushchaqchaq o'tgan va qanchalik yorqin ... qoldirgan bo'lmasin, uni hayf ketgan, deb hisoblayverishi

«Tafakkur gulshani»dan

13 topshiriq. Quyidagi matnda ko'tarilgan muammoga o'z munosabatingizni bildiring.

ZAMON VA ZAMONAVIYLIK

Antonina Pavlovnaning gaplarini tinglab, bugungi yosh yigit-qizlarning yurish-turishi haqida o'yga tolaman.

—Biz yashaydigan uyning yo'lagida qish kunlari uch-to'rtta qiz sigaret chekib turishganini bir necha marta ko'rganman. O'tgan-ketgandan uyalishmaydiyam. Har gal ko'rganimda yuragim zirqiraydi. Esiz yoshlik! Ota-onasi bormikan bularning, xabardormikan ahvolidan? Balki ular o'zlarini madaniyatli, zamonaviy hisoblashar, davr shunaqa deyishar? Yo'q, aslo! Buning na madaniyatga, na zamonga dahlı bor.

Antonina Pavlovna gapirar ekan, ezilayotgani, yuragi achishayotgani yuz ifodasidan bilinib turar edi.

—Mana shunaqa yengil-elpi qarashlar yetim bolalarning ko'payishiga sabab bo'lmayaptimi? — deydi opa so'zini davom ettirib. — Bunda G'arbning ta'siri yo'q deb, kim ayta oladi?

Ha, G'arbning ta'siri bor, hech shubhasiz. Hozir nima ko'p - kino ko'p. G'arb mamlakatlarida ishlangan filmlarda tasvirlangan behayo manzaralar yomon ta'sir ko'rsatishi aniq. Bundan tashqari, videomagnitofonlar, internet-chi? Ularda nimalar ko'rsatilmaydi?

Aslida-ku, odam ko'rgan yoki eshitgan har bir narsasiga ko'r-ko'rona ergashmay, undan tegishli xulosa chiqarishi zarur, tanqidiy ko'z bilan qaray bilish kerak.

M. Hazratqulovdan

Lug‘at

O‘gan-ketgan – прохожие

Yuragim zirqiraydi – сердце болит

Es.z yoshlik – жаль молодость

Dahli yo‘q – не имеет отношения

Ezilyapti, yuragi achishyapti – сердце щемит

Yuz ifodasi – выражение лица

Behayo manzaralar – бесстыдные сцены

Ko‘r-ko‘rona – слепо

14-topshiriq. Matnni o‘qing, uni qisqartiring, tezis shakliga keltiring.

YOSHLAR LOYIHALARI

Yosh avlodning komil insonlar bo‘lib voyaga yetishi, puxta ta’lim, mukammal tarbiya olishi masalasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridandir. Bu ezgu ishga mamlakatimizdagi ko‘plab janroat tashkilotlari munosib hissa qo‘shmoqda.

2007-yil 17-24-iyun kunlari “O‘zbekiston madaniyati va san’ati forumi” hamda “Mehr nuri” jamg‘armalari tashabbusi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda barcha viloyatlarda “Biz – bir jamoamiz!” tadbiri muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Tadbir bu boradagi loyihalardan yigit-qizlarni xabardor qilish, joylardagi tashabbuskor va izlanuvchan o‘g‘il-qizlarni aniqlash imkonini berdi. Faol yigit-qizlar hamda “Kelajak ovozi” respublika ko‘rik-tanlovi g’oliblari uchun yoshlarning yozgi o‘quv oromgohi tashkil etildi. Bu yerda huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy, ijodiy-intellektual tadbirlar, seminar-mashg‘ulotlar, ijodiy anjumanlar o‘tkazildi.

O‘zA saytidan

Lug‘at

Mukammal – совершенный, всесторонний

Ustuvor – приоритетный

Tashabbuskor – инициатор, инициативный

Izlanuvchan – ищущий

15-topshiriq. “Sog‘lom avlod uchun”, “Ekosan”, “Nuroniy”
“Iste’dod” jamg‘armalari, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati haqida
so‘zlab bering.

16-topshiriq. “Sevgi” she’rini o‘qing. Uni yod oling.

SEVGI

O‘n sakkizga kirmagan kim bor,

Bog‘ingdan gul termagan kim bor.

Sen haqingda yozib to‘rt satr,

Sirdoshiga asta ko‘rsatib,

Qo‘shti qizga bermagan kim bor.

Dastlab har kim qalam olgan on

Yonib seni kuylar begurnon.

Maskan qurib har bir ko‘ngilda,

Oshiqlarni qoldirib tildan,

Shoirlarni qilursan biyron.

Tushdim chog‘i men ham domingga,

Ezgu hislar baxsh etding menga,

Hayotimga zar lavha bo'lding,
Ilk she'rimga sarlavha bo'lding.
Xayollarim ulfatdir senga.

Yuragimda his etdim qanot,
Tilsim kabi ochilur hayot,
Visoldagi damlarim shirin,
Hijrondagi g'amlarim shirin,
Kulib boqar menga koinot...

O'n sakkizga kirmagan kim bor,
Bog'ingdan gul termagan kim bor...

Erkin Vohidov

Lug'at

To'rt satr – четыре строчки (здесь: стихи)

Sirdosh – лицо, которому поверяются тайны

Begumon - несомненно

Maskan - обитель

Oshiq - влюбленный

Biyron – отточенный, чеканный

Dormiga tushmoq – здесь: попасть в западню любви, быть без ума от любви

Ezgu hislar – благие, добрые чувства

Tilsim – загадка

Visol - свидание

Hijron - разлука

17-topshiriq. O'qing, daftaringizga ko'chirib oling. Notanish so zlar ma'nosini topib, ular bilan gaplar tuzing.

KULISH ODOBI

Kulgi - xursandchilik, kayfichog'lik belgisi. U inson ruhiy holatining yaxshiligi, kayfiyatining chog'ligidan dalolat beruvchi his-tuyg ular to'lqinidir. Yaxshi kulgu ruhiy sog'lomlikning belgisidir, deylishi ham shundan bo'lsa kerak.

Ammo kulishning qattiq tovush chiqarib, me'yoridan oshib ketishi, odob qoidalarining buzilishi, atrofdagilarga ozor berishi, salbiy fikr hosil qilishiga sabab bo'ladi.

Odobnomadan

18-topshiriq. Quyidagi handalardan foydalanib, sahma ko'rinishlarini tayyorlang.

XO'ROZ

Bozorda parrandalarni ko'rib yurgan kishi bir sotuvchining xo'roziga xaridor bo'ladi. U sotuvchiga mensimay qarab: «Bu jo'jachaga necha pul so'raysiz?» - deydi. Sotuvchi darg'azab bo'ladi. Duduqlanib: «Buning nimasi jo'ja? Xo'roz-ku, ko'rmayapsizmi!» - deydi arang.

Xo'rozning narxini tushirish isgagida bo'lgan xaridor yana ataylab: «E, nimasi xo'roz buning? Jo'jachani jo'jacha deydi-da!» - deb qayta-qayta sotuvchining asabiga tegadi. Uning muomalasidan

jahli chiqqan dudraq sotuvchi: «Shu jo‘jacha bo‘ldimi? Mana senga jo‘jacha!» - deb xaridorni xo‘roz bilan uradi.

Arang qochib qutulgan xaridor miliitsiya xodimini boshlab keladi. Miliitsionerga: «Manavi odam meni eshakdek keladigan xo‘roz bilan urdi», - deydi.

KO‘Z SHIFOKORI HUZURIDA

Vrach qabuliga kirgan bemorning ko‘rish darajasini aniqlash uchun harflarni ko‘rsatadi. Kichik, o‘rtalari harflardan boshlab, eng yiriklarigacha borib yetadi. Biroq bemor chol “bilmadim”dan nariga o‘tmaydi. Qiynalib ketgan vrach afsuslanib:

- Eh, otaxon, siz mutlaqo ko‘rsiz! — deydi.

Bemor:

- Yo‘q, bolam, men ko‘r emasman, faqat harf tanimayman, xolos, - deydi.

ZAMONAVIY DARS

O‘qituvchi:

- Bolalar, bugun fe’llarning tuslanishi o‘tamiz. “Men turibman, sen turibsan, u turibdi, biz turibmiz”, - dedi o‘qituvchi yangi darsni boshlagach.

Keyin o‘quvchidan so‘radi:

- Qani ayt-chi, tuslanishdan nişnani tushunding?
- Hamma turibdi.

Matematika o‘qituvchisi dars o‘tyapti.

Sinf xonasiga kirib kelgan komissiya a'zolari stol ustida turgan kompyuterlarga qarab hayron bo'lib qoladilar. Shunda ular dan biri:

- Kompyuter shu yerlergacha yetib kelibdi-ya. Aytingchi, bolalar undan foydalanishni bilishadimi?

O'qituvchi:

- Biz hamisha darsda kompyuterdan foydalanamiz. Mana ko'ring.

U bolalardan birini doskaga chiqaradi. So'ngra bolalarga qarab:

- Stol ustidagi beshta kompyuterdan bittasini manavi o'rtog'imiz olsa, nechta kompyuter qoladi?

Bolalar:

- To'rtta!

O'qituvchi g'ururlanib, komissiya a'zolariga qarab qo'yadi.

Botir Muhammadxo'jayev

19-topshiriq. She'mni o'qing. Uning ma'nosini so'zlab bering.

OSHIQLAR SARDORI

Bulbullar ichinda timmas zabonman,
Harmon yoningdaman, tanangda jonman.
Agar oshiqlaring o'n mingta bo'lsa
Bilgilki, alarning sardori menman.

Sevgiga sodiqlik shartini qo'ysang,
Shartni bajarmas deb, yoningdan quvsang,
Agar o'n mingtadan yuzta qoldirsang.
Bilgilki, yuztadan bittasi menman.

Keksalik degan so'z joy olsa dildan,
Yigitlik quvvati ketsa ham beldan,
Ha: kun gul olsang sen gar o'nta qo'ldan
Bilgilki, eng avval gul tutgan menman.

Falak falakligin qilsa nogahon,
Ser dan yuz o'girsa hatto keng jahon,
Oshiqlardan qolsa bir nafar, inon,
Qolgan shu oshig'ing bilgilki, menman.

Ko'zlarining bemahal yoshlarga to'lsa,
Agar dushmanlaring ustingdan kulsa,
Oshiqlaring agar hech kelmas bo'lsa,
Marhum ul Rasul Hamzat bilgilki, menman.

Rasul Hamzatov. Erkin Vohidov tarjimasi

20-topshiriq. Rasul Hamzatov qalamiga mansub "Oshiqlar sardori" she'rinning ruscha variantini o'zbekchasi bilan taqqoslang (qo'llanmaning "Adabiy-badiiy matnlar" qismiga qarang).

4. TIL – MA’NAVIYAT KO‘ZGUSI

I-topshiriq. Matnni o‘qing. Undagi asosiy fikrni ifodalang.

TIL BOYLIGINING BIR DALILI

Ma’lumki, muayyan tilning boyligi shu tilda mavjud bo‘gan so‘zlar miqdori bilan emas, balki tilning so‘z boyligi, so‘z ma’nolarining o‘tkirligi, uslubiyatining rivojlanganligi, nutqiy ohangning rang-barangligi bilan belgilanadi. Shu jihatdan o‘zbek tili ham, shubhasiz, boy til hisoblanadi. Buni birgina so‘z misolida ko‘rsatish mumkin.

Barcha sonlar orasida “bir” so‘zi alohida ajralib turadi. Bu so‘z tub so‘z shaklida. ayrim qo‘sishimchalarni olgan holda yoki just holda qo’llanadi, shuningdek, muayyan so‘zlar bilan birikib ham keladi.

“Bir” so‘zi sanoq son ma’nosida qo’llanadi. Masalan: Men bir kitob va ikki daftar sotib oldim. Bir qiz qo’shiq aytadi, uch qiz raqsga tushadi. Bola bir qo‘lini baland ko’tardi.

“Bir” so‘zi noma'lumlik ma’nosini bildiradi: Kecha biznikiga bir ayol keldi. Feruza bir gap aytmoqchi edi. Bir odam kirishga ruxsat so‘rayapti.

“Bir” so‘zi ma’noni kuchaytirish uchun ham xizmat qiladi: Hozir shunday bir ajoyib zamon keldiki, kishi baxtini mehnatdan topadi. Shahnoza opa qiziga bir chiroyli ko‘ylak tikib beribdi. O‘g‘li bir yaxshi yigit ekan.

Bundan tashqari, “bir” so‘zi qo‘sishimchalar yoki ayrim so‘zlar bilan qo‘llanganda, gumon, chegaralash, ketma-ketlik, predmetning noaniq belgisi, bir xillik, vaqtga nisbatan noma'lumlik yoki

mavhumlik kabi qator ma'nolarni bildiradi.

Bu kabi so'zlar o'zbek tilida ko'plab uchraydi. Ularning ma'nolarini, qo'llanilish xususiyatlarini bilmay turib, matnni tushunish, uni to'g'ri tarjima qilish, aniq va ta'sirchan nutq tuzish mumkin emas.

2-topshiriq. Quyidagi gaplarni rus tiliga tarjima qiling. "bir" so'zining qo'llanilish xususiyatlariga e'tibor bering.

Birov erta turib tongni qarshilashni yoqtiradi, birov esa qorong'i tunda cheksiz yulduzlarni kuzatishni xush ko'radi. Meni biror kishi so'rasha, hozir keladilar deng. Birgina tarixdan shuncha kitob o'qishim kerak. Bemorning ahvoli birday. Yetti o'lchab, bir kes. Bir eshititing-a, naqadar nafis kuy! Bir o'ylab ko'raylik-chi. Natasha o'zbekcha bir gapirdi, yig'ilganlar qarsak chalib yuborishdi. U stolga bir urdi... Bizning so'zimiz bilan ishimiz bir. Birdan-bir niyatim – hayotda o'z o'rnimni topish. Sergey cholning savollariga birma-bir javob berdi. Ular bir-birini qattiq sevishardi. Anora meni ko'rib qoldi... onasiga bir nima dedi.

3-topshiriq. Gaplarni o'zbek tiliga yozma tarjima qiling. Tarjimada quyidagilardan foydalaning: *bir kuni, bitta-bitta, bir...bir, har bir, bir necha; bir kun emas, bir kun*.

Суҳроб то хирургом хочет стать, то кардиологом. Кумуш поздоровалась со всеми по отдельности. Я один выполнил эту работу. Одна жды я проснулся раньше обычного. Студенты старших курсов написали рефераты по нескольким дисциплинам.

Доли каждого мужчины – защищать свою родину. Подлость когда-нибудь будет наказана.

4-topshiriq. Lug‘atdan foydalaniib, “*bosh*”, “*sovug*”, “*tashlamoq*” so‘zlarining ma’nolarini aniqlang.

5-topshiriq. Matnni o‘qing.

QAVM-QARINDOSHLIK ATAMALARI

Xalqimizda qavm-qarindoshlik atamalari aksariyat bir umumiylilikni tashkil etadi. Negaki, ularning tarixiy ildizi bir.

Masalan, o‘zbek tilida “ota” so‘zining “dada”, “ada” kabi shakllari mavjud. Qipchoq shevasida yoki Xorazmda o‘z otasini “aka” deb atash hollari uchraydi.

Onalarni turli shevalarda “oyi”, “aya”, “opa”, “aba” deb chaqirishsa, buvilarga nisbatan “momo”, “katta oyi”, “acha” kabi nomlar ishlataladi. “Ena” so‘zi esa turli hududlarda yo ona, yo buvi ma’nosini anglatadi.

O‘zbeklar yaqin-yaqinlargacha o‘zidan katta o‘g‘il qarindoshini “og‘a”, kichigini “ini”, qiz qarindoshining kattasini “egachi”, kichigini “singil” deb atagan. Hozir esa aksariyat aka, uka, opa, singil shaklida murojaat qiladi.

O‘zbek tilida ota va onaning aka-uka hamda opa-singillarini atash rus tilidagidan farq qiladi. Masalan: ctaning akasi yoki ukasi amaki, onaning aka-ukasi esa tog‘a deb yuritiladi; onaning opa-singlli – xola, otaniki esa – amma.

6-topshiriq. Qavm-qarindoshlik atamalari bo'yicha topishmoqlari o'ylab toping va ularni daftaringizga yozing. Masalan: *Qaynotamning yolg'iz qizi bor, qaynotamning kuyovi menga kim bo'ladi? (o'zim)*

7-topshiriq. She'rni o'qing, ma'nosini tushuntirib bering.

Go'dak edim, ko'p narsaga yetmasdi aqlim.
Bilganlarim - bekinmachoq va to'ptosh o'yin.
Qulog'imga chalinardi keksalar naqli:
"Falonchimi, puch yong'oqqa to'ldirar qo'yin!"
"Suv quyadi birovlarning tegirmoniga,
G'irromlikda tulkiga chap berar falonchi!"
Anglab yetmay bu gapdag'i teran ma'niga,
Ko'zlarimga ko'tinardi ular yolg'onchi.
Bosidan o'tgan tabib derlar. Ulg'aydim bu kun.
Hikimatlarning mag'zin chaqib, bo'imasman hayron.
Keksalarning aytganlari ekan chippa-chin:
Boshida yong'oq chaqar ekan ba'zida inson.

Oydin Hojiyeva

Lug'at

Bek nmachoq – прятки

To'ptosh – игра в камешки

Naq – предание

Falonchi – такой-то, некий

Qo'yunini puch yong'oqqa to'ldirmoq – тешить пустыми надеждами

Birovning tegirmoniga suv quymoq – лить воду на чужую мельницу

G'irromlikda tulkiga chap bermoq – хитёр как лис

Teran ma'nî – глубокий смысл

Boshdan o'tgan tabib – лекарь тот, кто перенес (пережил) болезнь

Mag'zini chaqmoq – постичь истинный смысл


chippa-chin – истина, истинный

Boshda yong'oq chaqmoq – (дословно: колоть орехи на чьей-либо голове) поедом есть кого-либо

8-topshiriq. Quyidagi iboralarining ruscha muqobilini toping.

Ikki tomchi suvday, tomdan tarasha tushganday, birovning nog'orasiga o'ynamoq, oyog'i kuygan tovuqday, yeng shimarib, xamirdan qil sug'urganday.

9-topshiriq. Boshqotirmani yeching. Bunda birinchi so'zning oxirgi harfi keyingi so'zning birinchi harfi ekanini nazarda tuting.



10-topshiriq. Quyidagi fe'llarni sinonimlari bilan almashtiring:
Izlamoq, gapirmoq, quvonmoq, imzelamoq, dam olmoq.

11-topshiriq. Lug'atdan foydalanib, omonim va paronim so'zlarga misollar yozing, ular ishtirokida gaplar tuzing.

12-topshiriq. Quyidagi so'zlarni to'g'ri o'qing, ma'nosini aniqlang.

On – un – o'n	On – ong
Kul – qul – ko'l – qo'l	O'n – o'ng
Uch – o'ch	Ton – tong
Tun – to'n	Singan – singgan
Kuz – ko'z	En – eng
In – en	Min – ming
Il – el	Ko'ngil-ko'ngling-ko'nglingga
Kelmoq – qilmoq	
O'tkazmoq – o'tqazmoq	

13-topshiriq. Matnni o'qing.

O'ZBEK XALQ MAQOLLARI

Maqollar – o'zbek xalq og'zaki ijodining ommaviy janrlaridan biri. Asrlar davomida og'izdan og'izga o'tib kelgan maqollar xalqimizning dunyoqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati, tarixiy va ruhiy holatini bildiradi.

Xalq maqollarda hayotiy tajriba natijasida kelib chiqqan qimmatli fikrlarni ifodalaydi. Maqollar ko'pincha she'riy shaklga

ega bo'ladı. Ular fikrning ixcham, pishiq va puxtaligi bilan xalq og'zaki ijodining boshqa turlaridan farq qiladi.

Maqollar chuqur va mukammal mazmunga ega bo'lib, ularda mehnatkash ommaning donoligi, milliy an'anadaları, xalqning ko'p asrlik orzu-umidlari, vatanparvarlik, insonparvarlik xislatlari, qisqasi, barcha ijobiy fazilatlari aks etgan. Shu sababdan ham ularning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda kattadir.

A.Husanov

14-topshiriq. Ushbu maqollarning ma'nosini tushuntiring.

1. Och holini to'q bilmas, kasal holini - sog'. 2. Yaxshining nasihatiga kirmagan yomonning yo'liga kirar 3. Avval iqtisod, keyin siyosat. 4. Ko'p bo'lsa ketar, oz bo'lsa yetar. 5. Aqlingga aql qo'sh, jahlingga - sabr. 6. Sabr achchiq, mevasi shirin. 7. Ko'p bilgan oz so'ylar, oz bo'lsa ham soz so'ylar 8. Kichikni maqta, kattani saqla. 9. Ko'z — qo'rqoq, qo'l — botir. 10. Do'st achitib gapirar, dushman — kuldirib. 11. Rost so'zni ayt, yolg'on so'zdan qayt.

15-topshiriq. Berilgan hikmatli so'zlarni quyidagi mavzular bo'yicha ajrating: *bilim olish, do'stlik, muomala odobi, yaxshilik qilish, baxtga erishish, mehnatsevarlik, odob-axloq to'g'risida*.

OZ-OZ O'RGANIB DONO BO'LUR

Tarbiyasiz odam jonsiz jasadga o'xshaydi.

Nasihatni olmaydigan odam baxtsizdir.

Har kim aybsiz do'st qidirsa, do'sti kamayib qoladi, do'stlarini ranj taversa, dushmani ko'payadi.

Uch narsa aqlga kuch beradi: olimlar bilan suhbat, tajriba va sabct. Uch narsa aqlga zarar keltiradi: tadbihsizlik, hafsalasizlik, shoshqaloqlik.

Til bo'lsa ham, bo'lmasa ham boshga balo.

So'z doriga o'xhashdir, ortiqchasi zarar keltiradi.

Yaxshilar yaxshisini ajrata olish hunar emas, ammo yomonlar yaxshisini ajrata olish hunardir.

Baxt-saodatni izlasangiz topa olmaysiz; zimmangizdag'i insoniy vazifalarni ado eting – baxtning o'zi keladi.

Istaksiz kelishuvdan ko'ra do'stona kelishmovchilik yaxshiroq.

Yiqilganingizdan sizga zarar yo'q, ammo asl falokat ma'yuslanib, ruhingiz tushib ketishidadir.

Sir saqlash til ostiga cho'g' olib turishdan ham mashaqqatlidir.

Otasi oldida o'z kamchiligiga iqror bo'lmagan farzand o'z kasa'lligini tabibdan yashirgan bemor kishiga c'xshaydi.

16-topshiriq. Matnni o'qing.

REKLAMA VA UNING TILI

Bozor iqtisodi sharoitida reklamaning o'rni benihoya katta. Reklamaga har kuni, har yerda duch kelish mumkin. U ommaviy kommunikatsiyaning barcha sohalariga kirib borgan. Ommaviy axborot vositalari turlariga asoslanib, reklamani beshta asosiy, eng muhim guruhlarga ajratish mumkin: matbuot

reklamasi, radioreklama, televizion reklama, banner reklamasi, Internet tarmog‘idagi reklama.

Reklama jamiyatda bir qator vazifalarni bajaradi. Reklamaning asosan ikki sharti ajralib turadi, ya’ni reklama axborot berishi hamda ishontirishi zarur.

Reklama tili so‘z yordamida mazmun ifodalaydi. Fikrni har xil usullar bilan bayon etish mumkin. Matn kompozitsiyasi shior (slogan), sarlavha, axborot bloki, ma’lumotlardan iborat bo‘lib, bunda shiorning o‘rnii benihoya muhim.

*(Reklama tili haqida to‘liqroq ma’tumot olmogchi bo‘lsangiz,
“Adabiy-badiiy matnlari” bo‘limiga qarang)*

17-topshiriq. Matn mazmunini yorituvchi savollar tuzing.

18-topshiriq. Quyidagi ichimliklarga mos keladigan reklama matnnini tuzing.

“Coca-Cola”, “Slake”, “Kaysar”, “Arktika”, “Omonxona”, “Akva light”.

19-topshiriq. O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan biror mahsulotni (masalan: uy jahozi, elektrotexnika tovari, oziq-ovqat turini) reklama qiling.

20-topshiriq. Matnga sarlavha toping.

Rostgo‘ylik insonlar orasida muhabbat va do‘stlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan amallardandir. Rostgo‘ylik kishining yuzini yorug‘, qalbini pok, tilini butro qiladi. Yolg‘onchilik

buning aksi bo'lib, odamni uyatga qo'yadi. Shuning uchun ham dono xalqimiz «Boshingga qilich kelsa ham yo'lg'on gapirma», deydi.

Rost so'zlagan kishi hech qachon birovning oldida tili qisiq bo'lmaydi.

Odobnomadan

21-topshiriq. Matndan quyidagi so'zlarga mos sifatlovchilarni topib so'z birikmalarini yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.
A.nal, qalb, til, xalq, kishi.

22-topshiriq. Matnni o'qing. Unda keltirilgan hikmatli so'zlarni ko'chirib yozing va rus tiliga tarjima qiling.

YAXSHI SO'Z - JON OZIG'I

Oila va jamiyatdagi ba'zi noxush holatlar kuzatilsa, ko'pincha ularning sababi qo'pol so'z, dag'al muomala bo'ladi.

Shirin so'z muvaffaqiyatlar garovidir. Xushmuomala bo'lish irsonni yuksaltiradi, do'stlarini ko'paytiradi, kishilarning hurmatiga sazovor qiladi.

Yaxshi so'zning fazilati haqida hikmatlar ko'p. Ulardan ayrimlarini esga olaylik:

- yaxshi gap – dil davosi;
- tilingda bo'lsa boling, kulib turar iqboling;
- yaxshi so'zga quloq sol, yomon so'zga uloq sol;
- yaxshi gapga ilon inidan chiqar, yomon gapga pichoq qinidan chiqar.

Shu hikmatli so'zlarni hamisha yodda tutmoqlik va ularga amal cilmoqlik lozim.

Odobnomadan

23-topshiriq. Guruhda jamoalarga bo‘linib, quyida berilgan ma’lumotlar asosida musobaqa darsini o’tkazing.

Shiorlar:

1. Boshi bilan sho‘ng‘ib kirmasa har dam,
Suv ostidan durni toparmi odam? (Jomiy)
2. Agar fanni ulkan bir daraxt deb tasavvur qilsak, tadqiqotlar urning ildizini tashkil etadi. Zero, ildiz qanchalik baquvvat, chuqur ketgan bo‘lsa, daraxt shunchalik barq urib yashnaydi, ko‘p hosil beradi.
3. Kuch – bilim va tafakkurda.
4. Ilm maskanlarida fikr erkinligi va chinakam ijod, izlanish hukmron bo‘lmog‘i zarur.
5. Faqat bahs, munozara, izlanish, tahlil mevasi bo‘lgan xulosalargina bizga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi mumkin (I.Karimov “Ma’nnaviy yuksalish yo‘lida”).

Savollar:

1. Qanday tillar tirik til deb hisoblanadi?
2. O‘lik til nima? Fikringizni misollar bilan isbotlang.
3. Tillarning qaysi oilalarini bilasiz?
4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy tillari nechta va ular qaysi tillar?
5. Tibbiyotdagи terminlar qaysi tilda yoziladi?
6. O‘zbek tili qachon vujudga kelgan?

Vazifalar:

1. So‘nggi davrda o‘qigan badiiy asaringiz haqida so‘zlab bering.
2. O‘zbekcha qo‘shiq kuylab bering.
3. Muammoli vaziyat asosidagi sahna ko‘rinishida ishtirok eting.

4. Mushoirada qatnashing.
5. "Maqolchilar" bellashuvini o'tkazing.
6. "Alifboni bilasizmi?" rolli o'yinida ishtirok eting. Buning uchun biror mavzuda dialog tuzing va har bir qatorni alifbo bo'yicha boshlang. Masalan:
 - *Assalomu alaykum, mumkinmi?*
 - *Bahromov siz bo'lasizmi? Salom, kiring.*
 - *Dardimga davo izlab huzuringizga keldim, doktor.*
 - *E, to'g'ri qilibsiz...*
 - *F...*

24-topshiriq. O'qing. V.Gumboldning fikriga qo'shilasizmi? Tilning sofligi uchun kurashish deganda nimani tushunasiz?

Nemis allomasi Vilgelma fon Gumbold «Yer yuzidagi tillarning rang-barangligi bu tovushning xilma-xilligi emas, dunyoni ko'rishning xilma-xilligidir» deb yozgan edi. Har bir millatning dunyoni idrok qilish yo'sini, mentaliteti bor. Har bir millatning o'z tafakkui tarzi bo'ladi. Davlat tili masalasi hamma davatlarda o'z mavqeiga ega bo'ladi. Xalqning birligini ta'minlaydigan narsa bu tildir. Biz va sizning vazifamiz tilimizning sofligi uchun kurashishdir...

Q.Sultonovadan

25-topshiriq. Quyidagi sifatlardan ot va fe'llar yasang. Ular bilan gaplar tuzing.

Oq, ko'k, yaxshi, katta, keng, xushmuomala, qisqa, eski.

5. XALQARO ALOQALAR

1-topshiriq. Matn bilan tanishing. Uni qayta so'zlash uchun reja tuzing.

O'ZBEKISTONNING IQTISODIY ALOQALARI

Mustaqillik yillarda O'zbekiston ko'plab xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi yangi strategiya quyidagilarni o'z ichiga olishi belgilab qo'yildi: eksport-import operatsiyalarini markazlashtirmaslik; davlat ehtiyoji uchun zarur tovarlarning eksporti va importi ustidan nazoratni kuchaytirish; davlat uchun strategik muhim bo'lmagan tovarlar eksportini osonlashtirish va boshqalar.

O'zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlikning namunasi sifatida Andijon viloyatining Asaka shahrida barpo etilgan "UzDAEWOOD" korxonalari majmuasini keltirish mumkin. "Neksiya", "Tiko", "Damas", "Matiz" kabi zamонавиу yengil avtomashinalar nafaqat o'zbekistonlik, balki xorijiy mamlakatlardagi avtomobilchilarning ham ishonchini qozonib ulgurdi. So'nggi yillarda Rossiya hududida sotilayotgan chet elda ishlab chiqarilgan mashinalar orasida eng xaridorbopi aynan O'zbekistondan keltirilgan "Neksiya"lar ekani e'tiborga loyiq.

To'qimachilik sohasida o'zbekistonlik mutaxassislar Koreya, Turkiya, Rossiya va boshqa ko'plab mamlakatlardagi hamkasblari bilan samarali alcqa o'rnatishgan.

O‘zbek paxtasiga talab barcha zamonda juda yuqori bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Buning sababi – paxtamiz tolasi eng talabchan xaridorni ham qanoatlantiradi.

O‘zbek oltinining sifati dunyo ko‘rgazmalarida tan olingan. “9999” belgisi tushirilgan oltin yombilarimizni ko‘rganda ko‘nglimiz faxr-iftixor tuyg‘ulariga to‘ladi.

Yurtimiz zamini turli foydali qazilmalarga boy. Masalan. gaz yoki uranimizga xaridor juda ko‘p. Bu borada Rossiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlar bilan mustahkam munosabatlar yo‘lga qo‘yilgan.

Xorijda o‘zbek meva va sabzavotlariga ehtiyoj katta. Dehqonlarimiz yetishtirgan hosil chet elga eksport qilinishi mamlakatimiz iqtisodiyotiga sezilarli daromad keltiradi.

Mustaqil O‘zbekistonning dunyo hamjamiyati bilan iqtisodiy munosabatlari bundan buyon ham rivojlanaveradi.

Lug‘at

Tashqi iqtisodiy aloqalar – внешнеэкономические связи

Markazlashtirmaslik – децентрализация

Ehtiyoj – потребность

O‘zaro manfaatli – взаимовыгодный

Bapro etilgan – построен

Ishonch qozonmoq – завоевать доверие

Ulgurmoq – успеть

Xaridorbop – востребованный

Talabchan – требовательный

Qanoatlantirmoq – удовлетворять

Ciltin yombilari – золотые слитки

Faxr-iftixor – гордость

Zamin – земля

Daromad – доход, прибыль

2-topshiriq. Tuzilgan reja asosida kichik hikoya yozing.

3-topshiriq. Siz istiqomat qilayotgan viloyat va tanlagan sohangizda amalgal oshirilgan iqtisodiy islohotlar haqida referat tayyorlang.

4-topshiriq. Dunyo xaritasidan “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi qatnov bajaradigan shahar va mamlakatlarni topib, bu qatnovlar qanday yo‘nalishda bajarilishini aytинг. Masalan: *Toshkent – Afina qatnovini bajarayotgan samolyot O‘zbekiston, Qozog‘iston, ... Gretsiya mamlakatlari osmonidan uchib o‘tadi.*

5-topshiriq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z va birikmalar ma’nosini izohlang. Ular bilan gap tuzing.

BMTni BILASIZMI?

Birlashgan Millatlar Tashkiloti(BMT)ning tinchlikni ta’minlash yoki *insonparvarlik* yordami ko‘rsatish bilan bog‘liq tadbirlari haqida eshitganmiz. BMT o‘z faoliyati bilan butun jahon xalqlari *hayot tarzni* yaxshilashga yordamlashadi.

Tashkilot insoniyat duch kelayotgan muammolar hal etiladigan markazdir. Mazkur faoliyat BMT tizimini tashkil etuvchi 30 dan ortiq tashkilotning *hamkorlikdagi* harakatlari natijasida yuzaga keladi. BMT va uning tizimidagi tashkilotlar inson huquqlarini himoya qilish, *atrof*

muhitni muhofaza etish, turli xavfli kasalliklarga qarshi kurashish, taraqqiyotni *barqaror* etishga yordamlashish va qashshoqlikka qarshi kurashish borasida faol ish olib bormoqda. BMT muassasalari havo va dengiz orqali xavfsiz va samarali aloqalarni yo'lga qo'yishga, *telekommunikatsiyalami* takomillashtirishga ko'maklashadi, *intellectual mulk* huquqiga hurmat-e'tibor bilan yondashish, radioto'lqinlarni tarqatishni tartibga solishga yordamlashadi. Shuningdek, u giyohvandlik moddalarining noqonuniy aylanishi va terrorizmga qarshi kurash xalqaro kampaniyasining ham *tashabbuskoridir*. BMT va uning muassasalari dunyoning barcha mintaqalarida qochoqlarga yordam qo'lini cho'zadi, *ichimlik suvlarning* sifatini yaxshilashga, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga ko'maklashadi, rivojlanayotgan mamlakatlarga qarz beradi va moliyaviy bozorlarni barqarorlashtirishga hissa qo'shadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotida oltita bosh organ mavjud. Ulardan beshtasi - Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash, Vasiylik Kengashi va Kotibiyat – BMTning Nyu-Yorkdagи *Markaziy qarorgohida*, oltinchi organ - Xalqaro Sud esa Niderlandiyaning Gaaga shahrida faoliyat ko'rsatadi.

6-topshiriq. Savollarga javob bering:

O'zbekiston BMTga qachon a`zo bo'lgan?

Mazkur tashkilotning O'zbekistondagi vakolatxonasi qayerda joylashgan?

BMTning Bosh kotibi kim?

Birlashgan Millatlar Tashkilotining faoliyati nimalardan iborat?

BMT insonparvarlik yordamini ko'rsatish borasida nimalar qilmoqda? Mazkur tashkilotning dunyoda tinchlikning barqaror bo'lishi uchun olib borayotgan faoliyati haqida nimalar bilasiz?

7-topshiriq. Quyidagi suhbatni davom ettiring:

- Feruza opa, siz qaysi chet davlatga sayohat qilishni orzu qilasiz?
- E. Shahnoza, men ko'rishni orzu qilgan joylariim ko'p. Masalan, Makka-yu Madina, Hindistonning Tojmahal maqbarasi joylashgan Agra shahri, Afrika qit'asining ekvatorga yaqin davlatlari, Italiyaning Venetsiya shahri, Parij. Xullas, olarning mo'jizalari joylashgan sehrli maskanlarni borib ko'rgim keladi.
- Aytgancha, xabaringiz bormi, yaqinda olamning yangi yetti mo'jizasi e'lon qilindi. Yetti yil davomida ikki yuzta ajoyibotning nomi kiritilgan ro'yxat bo'yicha jahon tanlovi olib borildi va, nihoyat, natijalar e'lon qilindi.
- Xo'sh, yangi yetti mo'jizaga nimalar kirar ekan?

-

8-topshiriq. Kichik guruhlarga bo'lingan holda internet va boshqa manbalardan foydalanib, olamning yangi yetti mo'jizasi haqida hikoyali albom tayyorlang.

9-topshiriq. "Dunyo bo'ylab sayohat" o'yinida qatnashing. O'yin shartlari: birinchi so'zning oxirgi harfi ikkinchi so'zning birinchi harfi bo'lishi kerak. Masalan:

O'zbekiston - Norvegiya - Andorra...

10-topshiriq. Chet ellik fuqarolarga til o'rgatish markazi talabasining Toshkentdan ota-onasiga yozgan maktubini o'qing.

MAKTUB

Assalomu alaykum, mehribon onajonim! Hurmatli otajonim!

Sog'lig'ingiz yaxshimi? O'zbekistonidan hammangizga katta salom. Sizlarni juda sog'indim. Men Toshkentdagi o'zbek oilamda yaxshi yashayapman. Yangi oilam a'zolari meni qiziday qabul qilib, doim yordam beradilar. Bu shahar menga juda yoqdi, odamlari juda mehmondo'st, ko'chalari chiroqli, havosi va tabiat yoqimli. Bu ye'da yaxshi odamlar bilan tanishdim, do'stlarim juda ko'p. Ular vatanim Seul haqida, u yerdagi yoshlар hayoti, ayniqsa, Koreya kino yulduzлari to'g'risida doim qiziqib so'raydilar.

Yetti oydan beri Talabalar shaharchasidagi Tillar markazida o'zbek tilini o'rganyapman. Bu til juda chiroqli va boy ekan, shuning uchun uni o'zlashtirishni xohladim. Tillar markazida Amerika, Xitoy, Koreya, Turkiya, Polsha, Yaponiya va boshqa chet davlatlaridan kelgan talabalar o'qiydi. Bizlar juda inoqmiz. Chet ellik talabalar bu yerda o'zlariga yangi o'zbekcha ism tanlaydilar. Mening ismim – Muhabbat. Yaqinda O'zbekistonning boshqa shaharlariga sayohatga bormoqchimiz. Hammasi haqida yana xat yozib yuboraman. Sog' bo'ling. Qizingiz Muhabbat (Kim Jon In). 2007-yil 11-iyun.

11-topshiriq. Chet ellik do'stingiz bormi? U bilan xat yozishib turasizimi? Faraz qiling, siz biror xorijiy davlatda o'qiyapsiz. U yerdagi hayotingiz haqida uyingizga maktub yozing. Ushbu davlat vakillariga O'zbekiston to'g'risida, tug'ilib o'sgan shahrinigiz

(tumaningiz), ustozlaringiz haqida nimalarni ayтиб берган боғлардингиз?

12-topshiriq. “Гид ва чет эллик мемон” mavzusida dialog tayyorlang, uni rollarga bo‘lib o‘qib bering.

13-topshiriq. Internet orqali o‘zbek tilini masofadan o‘qitish bo‘yicha kichik ma’lumot va e’lon matnini yozing.

14-topshiriq. Qavsdagi so‘zlarni tegishli shaklda qo’llab, maqollarni ko‘chiring.

(О‘zing) yo‘q, (olam) yo‘q. (Yaxshilar) yondashsang, (maqsad) yetarsan. Sen (o‘z) maqtama, seni birov (maqtamoq). Qing‘ir (ish) qiyig‘i qirq (yil) keyin ham (chiqmoq). (Yo‘l) chiqsang, yo‘ldoshli (chiqmoq).

15-topshiriq. So‘zlarni uch ustunga bo‘lib yozing: qo‘sib yoziladigan, ajratib yoziladigan, chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar. Markaziy...Osiyo, Mirza...cho‘l, Qora...suv, nuqtai...nazar, Puerto...Riko, Rio...de...Janeyro, tarjimai...hol, Nyu...York, Olti...ariq, Ulan...Bator.

16-topshiriq. Gaplarni to‘ldirib, o‘zbek tiliga tarjima qiling

Из Намангана в Ригу ...

... ... из Сочи.

Рейс Лондон – Дели ...

... ... через Ташкент.

Электропоезд ...-... ... за 4 часа.

... ... в Анталии.

В Австралии в это время года

На Кипре

17-topshiriq. Quyidagi sodda gaplardan qo'shma gaplar hosil qiling (ma'lumot uchun qo'llanmaning "Foydalanish uchun nazariy materiallar" qismiga qarang).

Sergey Toshkentdag'i "Bo'ston" mahallasida katta bo'lgan. U o'zbek tilini yaxshi biladi.

Bu yil yoz juda issiq keldi. Ba'zi kunlarda havo biroz salqin bo'ldi.

Qor tindi. Nihoyat, yigitlar yo'lga tushdi.

Shuni unutmang. Biz hur vatanda yashayimiz.

Manzura biz bilan bora olmaydi. Ertaga akasi va kelinoyisi chet ei safaridan qaytib kelishadi. U sayohatchilarni kutib olishi kerak.

18-topshiriq. Quyidagi sodda yig'iq gaplarni murakkablashgan yoyiq gaplarga aylantiring (ma'lumot uchun qo'llanmaning "Foydalanish uchun nazariy materiallar" qismiga qarang). Masalan:

Hasanboy aka gapiryapti. Hasanboy aka berilib gapiryapti. Qo'shnimiz Hasanboy aka berilib gapiryapti. Dala hovlidagi qo'shnimiz Hasanboy aka berilib gapiryapti. Dala hovlidagi qo'shnimiz Hasanboy aka o'g'liga berilib gapiryapti. Dala hovlidagi qo'shnimiz Hasanboy aka o'g'liga qurilish haqida berilib gapiryapti. Rixsivoy aka, dala hovlidagi qo'shnimiz Hasanboy aka o'g'liga qurilish haqida berilib gapiryapti. Rixsivoy aka, dala hovlidagi qo'shnimiz Hasanboy aka o'g'liga – Alisherga qurilish haqida berilib

*gapiryapti. Rixsivoy aka, dala hovlidagi qo'shnimiz Hasanboy aka
v'g'liga - Alisherga qurilish haqida berilib nimalarni gapiryapti? va
hokazo.*

Talaba keldi. Men kuylamoqchiman. Siz yozdingizmi?

19-topshiriq. Quyidagi otlarga sifatlovchilarni topib, hosil bo'lgan
birikmalar bilan gaplar tuzing. Masalan: *Sayohat. Qiziqarli sayohat.
Bizni Malayziyaga qiziqarli sayohat kutmoqda. Bolakay. Beozor va
sho'x kulgisini bilan hammani o'ziga jalb qilgan bolakay. Beozor va
sho'x kulgisini bilan hammani o'ziga jalb qilgan bolakay charchagan
sinekilli, uxlab goldi.*

Ye'l, bitim, chegara, tashkilot, grant, aloqa, iqtisod.

20-topshiriq. O'rinn, payt, holat, sabab, maqsad, belgi, holat ma'nosini
bildiruvchi so'zlarni alohida ustunlarga yozing.

21-topshiriq. "O'zbekistonning iqtisodiy aloqalari", "BMTni
bilasizmi?", "Maktub" matnlaridan uchtadan so'z tanlang. Mazkur
to'qqizta so'zni qo'llab mantiqiy bog'lanishli kichik matn tuzing.

6. AN'ANALAR – BEBAHO BOYLIK

1-topshiriq. Matnni o'qing.

INSON - OLIY QADRIYAT

Umrni bekor o'tkazmagan kishi bir kuni uning shirin mevasidan bahramand bo'ladi. Har qanday ilmni bilish uchun o'qish, o'rganish kerak. «Bekorchidan hamma bezor», - deydi dono xalqimiz.

Ulug' mutafakkir bobokalonimiz Bahouddin Naqshbanddan shogirdlari so'rabdilar:

- Ey ustoz, odamzodning hayvondan farqi nimada? Ko'rinishidami, jonidami, til-zaboni yoki soqoli, kiyim-boshi yoki shakl-shamoilidami?

Shunda Bahouddin Naqshband aytgan ekanlar:

- Ey shogirdlarim, odamzodning hayvondan farqi uning jonida emas, chunki eshakning ham, chuvalchangning ham joni bor. Soqolida ham emas, echkida ham soqol bor. So'zlashida ham emas, chunki to'tiqush ham o'rgatilsa so'zlaydi. Odamzodning hayvondan farqi fahm-farosatida.

Binobarin, inson fahm-farosatda yetuk bo'lishi kerak.

Odobnomadan

Lug'at

Bahramand bo'lmoq – пользоваться, получать удовольствие

Bekorchi – бездельник

Shakl-shamoil – здесь: характер

Fahm-farosat – сообразительность, сметливость

Yetuk – зрелый, полноценный

2-topshiriq. Matn bo'yicha quyidagi savollarga javob bering:
Bilimli bo'lish uchun nima qilish kerak?
Insonning hayvondan farqi nimada?
Fahm-farosat deganda nimani tushunasiz?

3-topshiriq. Quyidagi matnni davom ettiring.

FARZAND BURCHI

Xalqimiz qadim-qadirndan ota-onani olamda eng ulug', mo'tabar zot deb bilgan. Ota-onsa doimo farzand uchun mehribon, g'amxo'r, madakkor. Ularni bir umr izzat-hurmat qilish, ularning olqishu duolarini olish zarur. Bu xalq maqollari, mutafakkirlar asarlari, hikmatlarida ham o'z ifodasini topgan. Masalan,

Odobnomadan

4-topshiriq. Hikoyani o'z otangiz haqidagi fikrlaringiz bilan to'ldiring.

TA'ZIM

... . Inson o'zi uchun eng ulug', eng muqaddas, jonidan afzal kishisini «ota» deb ataydi. Umri boricha undan o'rganadi, taqlid qiladi, unga loyiq farzand bo'lish orzusida yashaydi

Ota farzandiga hayot beruvchigina emas, uning odamiylik xususiyatlarini shakllantiruvchi murabbiydir

Oila farovonligi, tinchligi, to'kinligi, farzandlarining kamoloti ota mehnatining samarasidir

5-topshiriq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosin izohlang. Ular bilan gaplar tuzing.

USTOZ-SHOGIRDLIK ODOBI

Xalqimizning «Ustoz - *otangdek ulug'*» degan maqolida ustozga ulkan hurmat o'z ifodasini topgan.

Muqaddas kitoblarda shunday deyiladi: “Shogird ustozning *oldig'* tushib yurmasin, *oldin* so'z boshlamasin, ko'p gapirmasın, malol kelib turganda savol so'ramasin, kelishilgan vaqtga rioya etsin”. Bu *xishlitar* shogirdning ustoz *duosini* olishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, shogird ustoz ko'ngliga ozor bermasligi, ko'rsatmalariga amal qilishi lozimdir.

Odobnomadan

6-topshiriq. Umuminsoniy va milliy qadriyatlarga nimalar kirishini aytинг. Yuqoridagi matnlarda bayon etilgan fikrlarga qo'shilasizmi?

7-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. O'zingiz bilgan yoki eshligan shu kabi voqeа haqida gapirib bering.

COBET

Один садовник, оказавшись без садовых ножниц, решил попросить их у своего друга-соседа. По дороге к нему мысли его приняли следующий оборот: «Он вчера как-то косо посмотрел на мою жену. Да и вообще, он удивительный скряга...»

И вот так садовник шел и накачивал себя отрицательными эмоциями. Наконец, подошел к калитке соседа, нажал на

звонок. На пороге дома предстал приветливо улыбающийся сосед. Тогда опшеломленный садовник в сердцах выпалил:

— Да не нужны мне твои ножницы!

Видите, как четко сработал механизм приписывания другому собственных отрицательных побуждений. Поэтому прошу вас, не спешите создавать «образ врага»! Каждый раз, когда вы думаете, что кто-то на вас не так смотрит, не так поступает, подумайте — он ли так смотрит?!

8-topshiriq. Quyidagi so‘zлами о‘zbek tiliga tarjima qilib yozing.
Ularning talaffuziga va tutuq belgisining yozilishiga e’tibor bering.
Духовность, просветительство, образование, стихотворение, отлично.

Искусство, поклон, объявление, иногда, темп.

Администрация, ответственность, норма, искусственный, факел.

9-topshiriq. Yuqoridagi so‘zlar bilan mantiqiy izchillikda bog‘langan gaplar tuzing.

10-topshiriq. O‘qing, “Ayol kim?” savoliga javob bering. Nuqtalar o‘rniga gapning mazmuniga mos so‘zlarni tegishli shaklda qo‘ying.
Yordam uchun so‘zlar: *beshik*, *cheksiz*, *mumkin*, *nom*, *buyuk*, *onalarimiz*, *ayol*, *oila*, *opa-singillarimiz*, *bilan*, *o‘rin*, *inson*.

Ayollarining jamiyatimizdagi, har birimizning hayotimizdagi ... haqida juda ko‘p va uzoq gapirish Oilani ... qiladigan zot - bu Xonardonlarimizni mehr-muhabbat, nafosat, ezbilik nuri bilan munavvar qiladigan zotlar ham aslida mo‘tabar ... , munis ...dir.

Shoirimiz Abdulla Oripov aytganlaridek:

Bu yorug' olamda Vatan bittadir,

Bittadir dunyoda Ona degan nom.

Xalqimizning ... tarixida o'zining jasorat va matonati, aql-zakovati, nafosat va nazokati bilan o'chmas ... qoldirgan To'maris, Bibixonim, Gulbadanbegim, Zebunniso, Nodira, Uvaysiy, Anbar otin va boshqa yuzlab ayollarimizni hamisha ehtirom ... tilga olamiz.

Ayollarga bo'lgan ... hurmat-ehtiromimizning yana bir sababi shundaki, ayol - avvalo har bir insонning ... tebratadigan, oq suti bilan odamiylik fazilatlarini singdiradigan, uni hayat bo'ronlaridan asrab, avaylaydigan fidoy ...dir.

11-topshiriq. Quyidagi savollarga yozma javob bering:

Ayollardagi eng chiroyli fazilat nima?

Ayol qachon o'zini baxtli hisoblaydi?

Ayol uchun eng muqaddas narsa nima?

Ayolning go'zalliga nimada?

Ayollar nima uchun gullarga qiyoslanadi?

Rahbar yoki tadbirdor ayollarga munosabatingiz qanday?

Tadbirkor ayollardan kimlarni bilasiz?

12-topshiriq. Berilgan matnga tayanib, mehmonga borish va mehmon kutish odobini namoyish etuvchi dialog tuzing va rollarga bo'lib o'qing.

Mehmonga borish — ovqatlanib, u yoq-bu yoqdan gaplashib qaytishdangina iborat emas.

Siz izzatli mehmon bo'lishni xohlasangiz, aytilmagan joyga bormang. Mehmon va mezbon bir-biriga nazokat, muloyimlik, hurmat va odob bilan munosabatda bo'lmog'i lozim.

Xalqimizda "Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan" degan naql bor. Dasturxonga qo'yilgan noz-ne'matlar, tortiladigan taonlardan ko'ra mezbonning shirin kalomi muhimroq.

Mezbonlarga ko'rsatgan iltifoti uchun minnatdorchilik bildirishni unutmashlik zarur.

Mehmon taklif etilgan vaqtidan kech qolmay kelgani va o'z vaqtida ketgani ma'qul.

Lug'at

У yoq-bu yoqdan – о том, о сём

Izzatli – уважаемый, почитаемый

Mezbon – хозяин (принимающий гостей)

Nazokat bilan – вежливо, деликатно

Rizq – хлеб насыщенный

Noz-ne'matlar – угощения, лакомства

Kalom – беседа

Iltifot – любезность

13-topshiriq. Mehmondo'stlik haqidagi she'r va hikmatlardan o'qing, ularning ma'nosini tushuntiring.

Mehmonlar yoqut-javohirdir sohibi xona,
Suhbatdan dur termoqqa dasturxon bir bahona.

Xalq hikmati

Do'st bilan obod uying, gar bo'lsa u vayrona ham,

Do'st qadam qo'ymas esa vayronadir koshona ham.

Erkin Vohidov

Mezbon yaxshi bo'lsa, mehmon ko'payar,

Mehmon yaxshi bo'lsa, mezbon ko'payar.

Mehmon-u mezbonlar ko'paysa elda,

O'zaro do'stlig-u darmon ko'payar.

Muhibbiy

Mehmon kelsa rizqi kelur eshik hatlab,

Ostonada sadodirman, mehmon kutib.

Ne millat bor, ne xalq, elat – bag'rim ochiq,

Quvnoq, uyg'oq daryodirman, mehmon kutib.

Normurod Narzullayev

14-topshiriq. Matnni o'qing va unga sarlavha toping.

Sabzavot kishilarning ovqatlanishida muhim rol o'ynaydi. U taor hazra bo'lishini ta'minlaydi. Tanada nordon ishqorli muvozanatni saqlaydi va suyuqlik almashinishini ta'minlaydi.

Sabzavotlar darmon dorilarning asosiy manbalaridan biri bo'lib, uglevodlarga, mineral va muattar lazzatli moddalarga boydir. Ba'zi sabzavotlar (sarimsoq piyoq, qalampir, turp) tarkibida bakteritsid moddalar bo'lib, ular kasallik uyg'otuvchi mikroblarni bartaraf etadi yoki ularning rivojlanishini to'xtatib qo'yadi.

15-topshiriq. Nuqtalar o'rniga mumkin bo'lgan so'zlarni qo'yib qatorlarni to'ldiring.

Sabzavotlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Ildiz mevalilar - kartoshka, sabzi, ..., ...,

2. Karamisimonlar - barcha xildagi karam turlari;
3. Piyozsimonlar - boshpiyoz, ..., ...
4. Rezavorlar - ukrop, ..., ..., ...
5. Mevalilar - pomidor, ..., ..., ...
6. Dukkaklilar - mosh, ..., ..., ...

16-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. Siz mantini qanday tayyorlashingiz, uning qanday turlarini yoqtirishingiz haqida gapirib bering.

Манты отвариваются на пару в специальных кастрюлях с решетками -касканах (мантышницах). Тесто для манты месится либо пресным, либо дрожжевым. Фарш чаще всего готовится из мяса, к нему добавляют различные овощи. Тесто делят на куски, скатывают в жгуты и отрывают от каждого жгута небольшие кусочки. Им придают форму шарика и раскатывают так, чтобы края были тоньше, чем середина.

Обычно тесто замешивается так: на 1 кг муки берется 400-500 г воды. В тесто добавляют соль и яйцо. Тесто хорошо месят, окрывают влажным полотенцем и дают отстояться.

Для фарша мясо лучше не пропускать через мясорубку, а мелко порубить до величины зерен кукурузы. Лук очень тонко нарезают и также рубят острым ножом. При таком способе лук не выделяет сока. Начинку перемешивают, солят, посыпают черным и красным перцем и кладут в него мелко нарезанный курдючный жир. На 1 кг мяса берут 300 г курдючного жира.

Существует несколько способов зашипки манты: на 4 или 5 углов, кружком, складками и т.п. По размеру манты также бывают различными. Наиболее популярны изделия весом 100-120 г.

Манты раскладывают на смазанные маслом решетки, отваривают на пару в течение 30-40 минут после закипания воды.

К манты обычно подают различные острые приправы.

Приятного аппетита!

17-topshiriq. Quyida ko'rsatilgan taomlarni tayyorlash uchun qanday masalliqlar solinishini yozing. Uyushiq bo'lakli gaplardan foydalaning, tinish belgilarining qo'yilishiga e'tibor bering.

Masalan: Palovga yog', piyoz, go'sht, sabzi, guruch, ziravorlar, tuz ...kabilar solinadi.

Dimlama, moshkichiri, somsa, lag'mon, mastava, do'lma, norin, sho'rva, chuchvara, qozonkabob, tuxumbarak, beshbarmoq.

18-topshiriq. Quyida matnning faqat birinchi va oxirgi gapi berilgan. Uni to'ldiring.

O'zbeklarning eng sevimli taomi palovdir. ... Shuning uchun xalqimizda "O'ldirsa ham, osh o'ldirsin" degan naql bor.

19-topshiriq. Quyidagi so'z va iboralarni qo'llab, rolli o'yinda ishtirok eting.

Xush kelibsiz! Xushvaqt bo'ling! Oling, olib o'tiring. Tortinmang. Osh bo'lsin! Kelib turing. Iltifot uchun rahmat...

20-topshiriq. So'z o'yinida ishtirok eting. O'yin sharti - birinchi

so‘zning oxirgi ikki (uch) harfi ikkinchi so‘zning birinchi ikki (uch) harfi bo‘lishi kerak. Masalan:

Vatanparvarlik – ikkilannoq – oqqayin – inkor – ortiq – iqtisod - ...;
Haqiqat – qatlama – analador – dorivor – voris – risola -

21-topshiriq. Quyidagi handalardan foydalanib, sahna ko‘rinishlarini tayyorlang.

HANDALAR

Ota o‘g‘liga pul berib:

- O‘zimizga, sigirimizga, tovuqlarimizga yegulik biror narsa xarid qil,
- dedi.

O‘g‘il o‘ylab-o‘ylab qovun sotib oldi. Uyga kelgach:

- Dada, qovunni o‘zimiz yeymiz, po‘chog‘ini sigirga, urug‘ini tovuqqa beramiz, - dedi.

Ota o‘g‘lining bilimdonligidan, tadbirkorligidan juda mamnun bo‘ldi.

Afandining qorni ochib turgan edi, birov undan so‘radi:

- Afandi, dunyoda nimaning ovozi yaxshi? Dutornikimi, tanburnikimi, g‘ijjaknikimi?
- Hey birodar. - deb javob berdi Afandi, - hech qaysi birining ovozi kapgirnikiga yetmaydi!

7. TARIX, FAN, SAN'AT

1-topshiriq. Matnni o'qing.

ZAFAR YO'LII

Yetti yoshga to'lganimda meni madrasaga topshirishdi va qo'llimga so'zlar jadvalini tutqazishdi; men o'qiy boshladim va erishgan muvaffaqiyatlarimdan g'oyat sevinchiga to'ldim.

Men to'qqiz yoshga to'lganimda besh vaqt nomozni o'rgandim va mактабдаги барча о'кувчиларга бoshлиқ bo'lib oldim. Men qatrashgan barcha yig'инларда уламолар yaqiniga o'tirishga harakat qilardim va tiz cho'кib o'tirardim: kattalarga nisbatan shunday hurmat bajo keltirishni o'zimga odat qilib oldim.

Ko'chada men bolalar bilan o'ynardim. Bolalar bilan urush-urush o'ynab, o'zimni amir etib tayinlardim-da, o'yinni boshqarardim va bolalarning bir guruhini ikkinchi guruhi bilan urishtirishni mashq qilardim.

O'n ikki yoshga to'lganimda bolalarcha o'yinlardan orlanadigan bo'ldim va vaqtimni o'zimga tengqur o'spirinlar bilan o'tkazishga harakat qildim.

O'n besh yoshga to'lganimda ot minib ovchilik qilishni juda sevib qoldim va bu ishda mahoratim kamolga yetdi.

Yetti yoshimdan yetmish yoshimgacha butun umr bo'yi yo'qsillarga in'om va xayr-ehsonlar qildim. Bir marta kiygan kiyimimni ikkinchi marta kiymas edim, uni yo'qsillarga hadya qilardim. Men qudrat va shuhratga erishganimda bolalgimdag'i do'stlarimning mavqeini ko'tardim, ulug'ladim.

Lug'at

Tutqazmoq – вручить

Ulamolar – устар. учёные

Tiz cho'kib o'timoq – сидеть, поджав ноги под себя

Hurmat bajo keltirish – проявлять уважение

Orlanmoq – стыдиться

Tengqur – ровесник

O'spirin – юноша

Mahoratim kamolga yetdi – мастерство достигло совершенства

Yo'qsillar – бедные, неимущие

In'om – подарок

Xayr-ehson – благотворительность

Hadya qilmoq – дарить

Mavqe – положение

2-topshiriq. Savollarga javob bering:

Ayting-chi, matn kim haqida?

Sohibqiron qanday fazilatlarga ega bo'lgan?

U buyuk sarkarda va davlat boshlig'i bo'lishga qanday tayyorlangan?

3-topshiriq. “Zafar yo'li” matnidagi sonlar bilan so'z birikmalari va gaplar tuzing, sanoq sonlarni sonning boshqa ma'no turlari bo'yicha o'zgartiring. *Masalan: ikki – ikkita - ikkitadan – ikkov - ikkidan bir – ikkitacha – ikkinchi.*

4-topshiriq. Buyuk ajdodlarimizdan Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Mirzo Ulug‘bek, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al Farg‘oniy, Zebunnisobegim haqida qisqa hikoya tuzing.

5-topshiriq. Qo‘llanmaning “Adabiy-badiiy matnlar” qismidan Erkin Vohidovning “O‘zbegim” she’rini o‘qing. Unda esga olingan allomalar nomini daftaringizga ko‘chiring.

6-topshiriq. Internet va boshqa manbalardan foydalanib, o‘zbek xalqining buyuk ajdodlaridan biri haqida qisqa xabar matnini tayyorlang.

7-topshiriq. Matnni o‘qing. Nima uchun u shunday nomlanganini aytинг.

XXI ASR KOLUMBLARI

Qiziq, ba’zi odamlar o‘z taqdirlarini osmon jismlariga qarab belgilaydilar. Ular osmon jismlarini qandaydir sehrli hodisalar manbai deb biladilar. Xo‘sish, aslida-chi? Aslida o‘zga sayyoralariga yuborilayotgan kosmik apparatlar u yerlarda ham tog‘-u tosh ar, okean-u ko‘llar, vodiylar bo‘lganini ko‘rsatmoqda. Hozirda biz Quyosh tizimini o‘zlashtirish sohasida, “Kolumb asri“da yashayapmiz.

Masalan, “Mars Ekspress” sayyoralararo stansiyasidan “Bigl-2“ moduli ajratilib, Mars yuzasiga qo‘ndirildi. Marsda bir zamonlar okean va ko‘llar bo‘lganligining izlari aniqlandi.

Quyosh tizimini tadqiq etish sohasida yana bir ilmiy g‘alabaga eishildi. Gap shundaki, Quyosh tizimining eng sirtli jismlaridan biri –

Saturnning Titan yo'ldoshiga kosmik apparat qo'ndirildi. U atmosferaning g'oyat zichligi jihatidan Yerdan keyingi o'rinda turadi. Ana shu zich atmosferasi bilan uzoq vaqt yo'ldosh yuzasini bizdan yashirib kelgan.

"Kassini" kosmik apparati Quyosh tizimi orqali qariyb yetti yilda (!) to'rt milliard kilometr (!) masofani bosib o'tib, eson-ononi Saturinga yetib bordi. Olimlar shu ulkan sayyoraning ajoyib halqalari hamda yo'ldoshlarining noyob fotosuratlariga ega bo'lishdi.

Biroq Quyosh tizimi ko'lamida chinakam kashfiyotlar davri endi boshlanyapti, binobarin, bizni ko'plab ajoyib kashfiyotlar kutmoqda.

O'zA saytidan

Lug'at

Taqdir - судьба

Oson jismлari - небесные тела

Manba - источник

Sayyoralarago - межпланетный

Tadqiq etish - исследовать

Zichlik - плотность

Qariyb - около, почти

Noyob - уникальный

Kashfiyot - изобретение

Binobarin - поэтому, следовательно

8-topshiriq. Matnni qayta so'zlash uchun reja tuzing.

9-topshiriq. Fan olamidagi yangi kashfiyotlar haqida nimalar bilasiz?

Bu borada ommaviy axborot vositalaridan olingan ma'lumotlар asosida referat yozing.

10-topshiriq. Tanlagan ixtisosligingiz bo'yicha yetakchi olimlar va ularning ilmiy faoliyati haçida so'zlab bering.

11-topshiriq. Siz o'rganayotgan asosiy fanga taalluqli atamalardan 10 tasini yozing, ular bilan so'z birikmalari va gaplar tuzing.

12-topshiriq. San'atning qaysi turiga qiziqishingiz va buning sababi haqida dialog yozing.

13-topshiriq. Qavsdagi so'zlarni o'zbek tiliga o'girib, matnni o'qing.

SIRK

Sirk -- eng qadimgi (искусство) turlaridan biri. (Далёкий) o'tmishdayoq Misr, Yunoniston, Hindiston, Xitoy shaharlaridagi maydonlarda (праздник) kunlari (канатоходцы), ko'zbo'yamachilar, chavandozlar, hayvon o'rgatuvchilar o'z san'atlarini namoyish qilganlar. (Bee) xalqlarning (любимый) bu san'ati bizning kunlarimizga qadar saqlanib qolgan.

Dunyodagi barcha sirklarda arena o'lchami doimiy (одинаковый) qilib belgilangan. Uning diametri 13 metrga (равен).

Nima uchun? Chunki qachonlardir sirk dasturining katta qismini (наездники) va o'rgatilgan otlarning chiqishlari egallagan. (Кони) maydonchada (круг) hosil qilishgan, uning atrofini (зрители) o'rashgan. Artistlar (каждый) shaharda otlarni qaytadan o'rgatib o'tirmasliklari uchun dastlabki sirk binolarini qurishda

maydonchalarining doira shaklida hamda bir xil o'lchamda bo'tishiga kelishib olishgan.

Shunday sirk guruhlari borki, (они всю жизнь) ko'chib yurishadi. Ularni hatto sayyor sirk ham deyishadi. Biroq (кочующий) sirklardan tashqari, doitniy, muqim sirklar ham bo'ladi.

Toshkentda sirk san'ati qadimdan rivoj topgan. Dorboz, nayrangboz, (дикий) va uy hayvonlarini o'rgatuvchi kishilarning mahorati haqida (легенды) saqlangan. Xalq sayllarida, bozor va guzarlarda dorbozlar, (силачи), (скоморохи, клоуны) o'z san'atlarini namoyish etganlar. Ayniqsa, dorbozlik keng rivojlangan.

1975-yilda Hadra maydonida 2597 o'rinni (новый) sirk binosi qurib bitkazilgan. Mustaqillik yillarida bu bino ta'mirlanib, yanada ko'rkamlashdi, zamonaviylashdi.

Lug'at

Ko'zbo'yamachi – фокусник

Chavandoz – наездник

O'lcham – размер

Qaytadan o'rgatib o'tirmaslik uchun – чтобы заново не учить

Dastlabki – первоначальный

Ko'chib yurmoq – кочевать

Sayyor – передвижной, странствующий

Muqim – оседлый, постоянный

Nayrangboz – фокусник

Guzar – здесь: оживленное место

Ta'mirlamoq – ремонтировать

14-topshiriq. Suhbatni to'ldiring:

- So'nggi marta sirkda qachon bo'lgansiz?
 - ...
- Qaysi davlatning sirk dasturini tomosha qilgansiz?
 - ...
- Bu tomosha sizga nimasi bilan yoqdi?
 - ...
- Sirk arenasida bo'lib o'tadigan konsertlarga borib turasizmi?
 - ...
- Nima uchun?
 - ...
- Yo'q, men fikringizga qo'shila olmayman. Keling, keyingi haf'ada Hadra maydonida uchrashamiz-da, sirk tomoshasiga kiramiz.
 - ...
- Albatta, xayr.

15-topshiriq. O'zbek estradasi yulduzlaridan kimlarni bilasiz? Kimning qo'shiqlarini sevib tinglaysiz, kuylaysiz? Shular haqida do'stlaringiz bilan o'zbek tilida suhbat quring.

16-topshiriq. Rusiyabon xonandalarning o'zbek tilida kuylagan qo'shiqlaridan tinglang va mazmunini so'zlab bering.

17-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

ARTIST

San'atga astoydil mehr qo'yib, unga hayotini baxshida etgan va yuksak mahorat cho'qqilarini egallagan har bir san'at kishisiga nisbatan «Qanday ajoyib, ilhombaxsh artist!» degan ibera ishlatalidi.

Artist pyesa yoki filmdagi turli qahramonlar qiyofasiga kirib, ular hayoti bilan yashashni, ular nomidan harakat qilishni biladi. U o'zi yaratayotgan qahramon tovushi bilan gapira oladi, unga o'xshab yura oladi. Bugun u zamondoshimiz qiyofasini yaratsa, ertaga o'ta asr podshosi yoki ertaklardagi qirol bo'la oladi. Grim, kiyim va bezaklar artistga o'z qahramonini yanada yaxshnroq ko'rsatishga, tomoshabinlarda xursandchilik va quvonch, tashvish va achinish, nafrat kabi tuyg'ular uyg'onishiga yordam beradi.

Ba'zan san'atga aloqador bo'limgan kasb egalari — shifokor, o'qituvchi va tikuvchilarni ham, agar ular o'z ishlarining mohir ustasi bo'lsa, artist deb atashadi.

Lug'at

Astoydil – искренне, по-настоящему

Mehr qo'ymoq – полюбить, увлечься

Ilhombaxsh – вдохновляющий

Qiyofa – облик, внешний вид

Tashvish – заботы, хлопоты

Achinish – жалеть, сожаление

Nafrat – ненависть

18-topshiriq. Shifokor, o'qituvchi, tikuvchi va boshqa kasb egalarini qachon va nima sababdan “artist” deb atash mumkinligini izohlang.

19-topshiriq. O'zingiz yoqtirgan kino yoki teatr artisti haqida kichik hikoya yozing.

20-topshiriq. Matnni o'qing. Uni boshqa g'ijjakchilar haqidagi ma'lumotlar bilan to'ldiring.

SEHRLI G'IJJAK SOHIBLARI

Taniqli sozandalar orasida g'ijjakchilarning o'z o'rni bor. O'zbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Shuhrat Yo'ldoshev kabi mohir g'ijjakchilarning dovrug'i olis-olislarga ketgan.

Shuhrat Yo'ldoshev g'ijjakda jahon mumtoz kuylarini ilk bor ijro etgan. San'atga bolalik chog'laridan qiziqa boshlagan Shuhrat Glier nomidagi musiqo maktabini muvaffaqiyatli tamomlab, Toshkent davlat konservatoriyasiga o'qishga kirdi. U yosh xalq cholg'uchilarining respublika ko'rígida, xalqaro xalq cholg'uchilari tanlovida, Italiyaning Genuya shahrida jahon festivalida birinchi o'rín sohibi bo'ldi.

G'ijjakni jahonga tanitishda Shuhrat Yo'ldoshevning hissasi katta...

21-topshiriq. Matndan fe'lli birikmalarni topib, rus tiliga tarjima qiling, ular ishtirokida gaplar tuzing.

22-topshiriq. O'zbek xalq cholg'u asboblari, ularning tarixi haqida kichik hikoya yozing.

23-topshiriq. “O’ylab top” rolli o‘yinida ishtirok eting. O‘yin shartlari – bir talaba guruhdoshlariga qarab o‘tiradi, yozuv taxtasiga biron taniqli san’atkor (o‘qituvchi, talaba yoki boshqa odam)ning ismi yoziladi. Talaba o‘z savoltari yordamida kimning ismi yozilganini topishi lozim. Bunda faqat “Ha” yoki “Yo‘q” deb javob berish mumkin bo‘lgan savollar berilishi kerak.

8. ONA TABIAT – QO‘RIQXONA!

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Uni davom ettiring va sarlavha qo‘ying.

Tabiat uyg‘ondi. Chor-atrof ko‘m-ko‘k. O‘rik daraxtlarining shoxida oppoq gullar chamandek chiroy ochgan.

Bahor. Sozandaning kuyida, shoirning she’rida madh etiluvchi qo‘shiq. Bu qo‘shiq daryo va jilg‘alarning jo‘shqinligida, ariqning shoxchan shildirashida, maysalar orasidan bosh ko‘targan yalpizning muattar hidida jaranglaydi. Iliq shabada dillarga orom baxsh etadi.... .

Lug‘at

Chor-atrof – вокруг

Chamandek chiroy ochgan - расцвели как цветник

Sozanda -- музыкант

Jilg‘a – ручей

Jo‘shqin -- кипучий, бурлящий

Maysa – первая зелень, всходы

Muattar – благоухающий

Orom baxsh etmoq – успокаивать

2-topshiriq. Yil fasllarida tabiat qanday o‘zgarishi haqida o‘zingiz kichik matn tuzing. Bunda atov gaplar, undov so‘zlar, kitish konstruksiyalar, undalmalardan va badiiy vositalardan foydalaning.

3-topshiriq. Quyidagi matnni to‘ldiring.

OQ OLTIN

Dunyoda ko'pchilik xalqlar toza paxtadan tikilgan kiyim kiyishni yoqtiradi. Ular havo o'tkazuvchan va tabiiyligi bilan sun'iy matolardan ajralib turadi.

Lekin paxta hamma joyda ham o'savermaydi. Har qanday paxta ham jahon bozorida xaridorgir emas. Shuning uchun yuqori sifatli paxtani oq oltinga tenglashtirishadi.

O'zbekiston paxta eksporti sohasida dunyoda AQSHdan so'ng ikkinchi o'rinda turadi.

Mamlakatimizda o'rta va ingichka tolali paxta yetishtiriladi Paxtadan tayyorlanadi. Chigitdan esa olinadi G'o'zapoyadan

4-topshiriq. Uvaysiyning anor haqidagi chistonini eslang va o'zingiz O'zbekistonda o'sadigan biror o'simlik haqida topishmoq o'ylab toping.

5-topshiriq. A.Ergashev va I.Jiyanovlarning "Majnuntol" qo'shig'ini tirlang (qo'shiq matni qo'llanmaning "Adabiy-badiiy matnlari" qismida berilgan). Matn mazmunini so'zlab bering hamda quyidagi so'z, so'z birikmalari bilan gaplar tuzing: *yolg'iz, yo'l bo'yida, afus, majnuntol, bexabar.*

6-topshiriq. Quyidagi she'rga sarlavha qo'ying, uni yod oling.

Tonggi shabadaga yuzimni tutib,
Yuragim bir olam hislarga to'lib,

Dilimida orzular bir-birin quvib,
Bahorim, men seni sog‘indim bu kun.
Tunlari ko‘zimdan uyqular qochib,
Tananmda shijoat, g‘ayratim toshib,
Qafasdan qutulib ozod qush kabi
Bahorim, men seni sog‘indim bu kun.
Tabiat uyg‘ondi seni sog‘inib,
Yalpiz, ko‘katlardan somsalar yopib,
Sumalak ta’mini qo‘msab, entikib,
Navro‘zim, men seni sog‘indim bu kun.

Sayyora To‘ychiyeva

Lug‘at

Quvmoq – догонять

Ko‘zimdan uyqular qochdi – не спится

Shijoat – храбрость, отвага

G‘ayrat – энергия

Qafas – клетка

Sog‘inmoq, qo‘msamoq – скучать

Ta’m – вкус

Entikmoq – вздыхать, всхлипывать

7-topshiriq. O‘zingiz voyaga yetgan shahar yoki qishloqning tabiatini haqida so‘zlab bering.

8-topshiriq. O‘rol Tansiqboyevning “Tabiat qo‘ynida” kartinasini asosida bog‘lanishli matn yozing.

9-topshiriq. Matnni o'qing. Uning mazmunini so'zlab berish uchun reja tuzing.

TABIAT HIMYOYAGA MUHTOJ

Otang ketsa agar, ota bo'larsan,
Onaning o'rnini bosgay qiz, singil.
Dengizing qurisa ne ham qilarsan?
Qayga bosh urarsan, ey mungli ko'ngil?

Abdulla Oripov

«Inson – tabiat farzandi», - deydi dono xalqimiz. Inson tabiat bag'tida vujudga keladi va kamol topadi. Kishilar qalbida go'zallikni his etish, uni ardoqlash, borliqqa mehr qo'yish tuyg'usini uyg'ctish eng muhim vazifalardan biridir.

Havo, suv, oziq-ovqat, sanoat uchun xomashyo kabi o'ziga zarur bo'lgan hamma narsani inson tabiatdan oladi. Odamlar o'zlarini o'rab turgan tabiiy muhit bilan doimiy aloqada bo'lib, uni to'xtovsiz o'zgartirib borishadi.

Biroq inson tabiatga ikki tomonlama: ijobiy va salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Bir tomenдан, inson tabiatni boyitadi. Ikkinchidan, aholining keskin ko'payishi, shaharlarning kengayishi, yangi industrial markazlarning vujudga kelishi, ayniqsa, mashinasozlik va og'iz sanoatning rivojlanishi, qishloq xo'jaligini kimyolashtirish matijasida biosfera, havo va suv ifloslanib, tabiiy muvozanat buzilib bormoqda.

Atmosferani toza saqlash, flora va faunani qirilib ketishdan asrab qolish, suv havzalarining sofligini ta'minlash va hokazolar barcha davlatlar ishtirokida hal etilishi kerak bo'lgan dolzarb xalqaro vazifalardir.

Diyorimizdag'i ekologik muammolardan ko'pchilikning xabari bor: Orol dengizi qurib borishi bilan bog'liq tabiat muvozanatining buzilishi, chuchuk suv miqdorining kamayib borishi, sanoat hududlari va shaharlardagi havoning zaharlanishi...

Tabiat inson uchun xizmat qilar ekan, undan oqilona va odilona foydalanish kerak.

Xalqimizda an'anaviy tabiat va mehnat bayramlari keng nishonlanadi. Masalan, Navro'z, gullar bayrami, lola sayli, qushlar bayrami, qovun sayli, obodonlashtirish tadbirlari kabilar yosh avlodda atrof-muhitni asrab-avaylab, tabiiy go'zallikning qadriga yetish tuyg'ularini shakllantiradi. Ekologik tarbiyani amalga oshirishda madaniy-ma'rifiy, targ'ibot va tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish zarur.

Yerga, suvg'a, hayvonot va o'simliklar dunyosiga bo'lgan munosabatimizni yaxshilash orqaligina ona tabiatimizni asrab qolish mumkin. Inson tabiat farzandi ekan, farzandning onaga mehribonlik qilishi umuminsoniy burchdir.

Lug'at

Mungli – печальный

His etish – чувствовать

Ardoqlash – лелеять, беречь

Borliq – здесь: весь мир

Komashyo – сырьё

Ijobiy – положительный
Salbiy – отрицательный
Ta'sir o'tkazmoq – влиять
Boyitmoq – обогащать
Keskin – резко
Vujudga kelmoq – появляться
Tabiiy muvozanat – естественный баланс
Suv havzalari – водоёмы
Chuchuk suv – пресная вода
Zaharlanmoq – отравляться
Oqilona – разумно
Odilona – справедливо
Targ'ibot – пропаганда
Tashviqot – агитация
Munosabat – отношение, связь

10-topshiriq. Umumbashariy va mintaqaviy ekologik muammolar nimalardan iboratligi haqida so'zlab bering.

11-topshiriq. Savollarga javob bering:

Inson tabiatni qanday qilib boyitadi?
«Jonli tabiat» deganda nimani tushunasiz?
Qaysi qush (daraxt, hayvon)larni yoqtirasiz? Nima uchun?
Suvni isrof qilmaslik degani nima?
Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish degani-chi?
Se'nggi yillarda sayyoramiz iqlimi qanday o'zgardi?

Bur ing sababi nimada?

Uyingizda qanday jonivorlar bor? Ularga munosabatingiz qanday?

12-topshiriq. Sonlarni so‘z bilan yozib, gaplarni daftaringizga ko‘chiring.

Ayrim manbalarga ko‘ra, Respublikamizda yovvoyi hayvonlarning 99, parrandalarning 410, baliqlarning 79 turi mavjud.

Ulandan 32 hayvon, 31 parranda, 5 baliq turi O‘zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»iga kiritilgan.

Uning birinchi nashrida 163 tur o‘simlik noyob va yo‘qolib borayotgan turlar sifatida ko‘rsatilgan bo‘lsa, keyingi nashriga 400 tur o‘simlik kiritilishi ko‘zda tutilgan.

13-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

GUL BAYRAMI

«Tabiat mo‘jizasi», «go‘zallik malikasi» bo‘lmish gulga bag‘ishlangan maxsus bayramlar ko‘p xalqlarda bor.

Yaponiyada xrizantemani juda sevishadi. Hatto Yaponiya harbiy bayrog‘i va puliga ham xrizantema tasviri tushirilgan. Yaponiya oliv nishoni ham «Xrizantema ordeni» deyiladi. Fransuzlar marvaridgu (landish)ni qadrlashadi, ispanlar esa qizil rangli chinnigul(gvozdika)ni muhabbat ramzi deb bilishadi.

Hindistonda gul bayramlari ajoyib katta sayil tarzida uyushtiriladi. Hindlar atirgulni gullar malikasi deyishadi. Hindlarda qadimdan hozirgacha olijanob bir odat an’ana bo‘lib kelyapti: ular aziz mehmonlar bo‘yniga gulchambar taqadilar.

O'zbekistonda lola sayli, sunbul (giatsint) sayli, Namanganda gul bayrami, Xorazm, Buxoroda qizil gul sayli zo'r tantana bilan c'tkaziladi. Bunda, ayniqsa, «Guldasta» askiyasi yuzlab tomoshabinlarni o'ziga sehrlab qo'yadi. Gul sayliga gul uzish uchun emas, balki ma'naviy da'm olish uchun chiqishadi, odatda.

14-topshiriq. Savollarga tayanib, dialog tuzing.

Siz yaqin kunlarda kimga gul sovg'a qildingiz?

Eu qanday gul edi?

O'zingiz qanday gulni yoqtirasiz?

Uni ta'riflab bera olasizmi?

15-topshiriq. Gul haqida qanday she'r yoki qo'shiqlarni bilasiz?

Uiardan namuna keltiring.

16-topshiriq. Matnni o'qing.

CHANG'I SAYLI

Dam olish kuni akam o'rtoqlari bilan chang'i uchish uchun Chotqol tog'i etaklariga borishmoqchi bo'lganini eshitib qoldim.

Tog'ni uzoqdan ko'rganman. Kitobimda har xil tog'larning surati bor, ammo o'zini haligacha ko'rganim yo'q.

Akamning toqqa borish niyati meni ham qiziqtirib qoldi. Chang'i sayliga ikki kun qolganda akamga yalinib-yolvordim.

-- Yo'l uzoq. Tog'ning sovug'iga chiday olmaysan, uka! -- dedi akam.

-- Men ham sizga o'xshab sovuqqa chidayveraman. - deb akamni o'z holiga qo'ymadim.

Avvaliga ko'ninadi. So'ng bir gap bo'lar, deb meni tinchitdi.

Yakshanba kuni yaxshi kiyinib olib, ertalabki izg'irinda akam bilan yo'lga tushdim.

-- Yigitchani nima qilib boshlab yuribsan, Komil? – dedi meni ko'rsatib bir yigit.

– Tog'ni ko'trnagan edi, qo'yaver, pishiydi, – javob qildi akam.

G'afur G'ulom

17-topshiriq. Quyidagi gaplarni to'ldiring.

Dam olish kuni... ?

... Chotqol tog'i etaklariga... .

Uzoqdan... chang'i sayliga... ko'rindi.

Avvaliga yakshanba kuni ... keyin esa

18-topshiriq. «Chimyon tog'larida» mavzusida kichik matn tuzing.

19-topshiriq. Quyidagi javoblarga mos savollar yozing.

- ...?

- Qishda.

- ... ?

- Yo'q, yanvar oyida.

- ... ?

- Chimyon, Chotqol, Zomin, Baxmal tog'lariga.

- ... ?

- Ha, juda yaxshi ko'raman. Sen-chi?

- ... , ...?
- Albatta .

20-topshiriq. Mamlakatimizdagi tog‘lar haqida ma’lumot tayyorlang.

21-topshiriq. Yevropa qit’asidagi qishki tog‘li kurortlar tasvirini ta’riflang. Bunda internet materiallaridan foydalaning.

22-topshiriq. 2014-yilgi qishki olimpiadani qabul qiluvchi shahar va uning tog‘li hududi haqida kichik hikoya yozing.

9. BIZNES OLAMIDA

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Uni rus tiliga tarjima qiling.

Zamonamiz – bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri. Shuning uchun oldin iqtisod, keyin siyosat degan aqida hozir har qachongidan ham dolzarbdir. O‘zbek xalqi qadimdan bozorga yaqin bo‘lgan. Ajcodlarimizning karvon qo‘ng‘iroqlarini jiringlatib, Eron-u Turon, Hird-u Chin-mochin, Arab-u Ajam mamlakatlari bo‘ylab savdo-tijorat ishlari olib borishgani ko‘pchilikka ma’lum. Buyuk ipak yo‘lining davlatimiz hududlarini jahon bilan bog’lagani ham bunga yaxshi omil bo‘lgan.

2-topshiriq. Matndan bozor-o‘charga oid iboralarni ko‘chirib yozing, ula ni rus tiliga tarjima qiling.

BOZOR-O‘CHAR

Inson hech qachon bozordan ajralmaydi. Shuning uchun yoshdir-qaridir bozor qonunlarini yaxshi bilishi, uning yozilmagan qoidalariga rioya qilishi zarur. Bozor-o‘charga bag‘ishlangan iboralar buning ayni hayotiy saboqlaridir. Masalan:

- otang – bozor, onang – bozor (ma’nosи – bozor seni o‘z hukmiga yetaklaydi. bahosini o’tkazadi, bozor qonunlariga rioya cilish lozim);
- bozor ko‘rgan echki yoki bozor ko‘rgan yigit (ko‘pni ko‘rgan cdam, uddaburo, tajribali shaxs, bozor ko‘rish turmush sabog‘ini cilish degani);

- bozori yaqin boyimas (bozori yaqinning mayda xarajati ko‘p bo‘ladi; xaridni mayda-mayda, bot-bot qilish tejamkorlikka zid, aslida bozor qopiqanori, aravasi, toyi, suruvi bilan qilinsa, ko‘p bora arzon tushadi).

Mahmud Sattor

Lug‘at

Rioya qilish – следовать, подчиняться

Ayni – именно

Hayotiy saboqlar, turmush sabog‘i – уроки жизни

Uddaburo – даровитый, проворный

Xarajat – расходы

Bot-bot – вновь и вновь

Tejamkorlik – экономность, бережливость

Qopi-qanori, aravasi, toyi, suruvi bilan – мешками, телегами, тюками, отарами

3-topshiriq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang.

PUL TARIXIDAN

Turli xalqlarda pul vazifasini turli xil tovarlar bajargan.

Masalan, Qadimgi Yunoniston, Rimda, arab va hind qabilalarida pul o‘rnini *chorva* bosgan. XX asr boshlarida Afrikaning ba’zi bir xalqlarida *chorva tuyog* idan pul o‘rnida foydalilanilgan. Tinch okeani va Afrika qit’asi xalqlarida qimmatli *chig‘anoqlar* pul vazifasini bajargan. Markaziy Afrikada - *fil suyagi*, Qadimgi Misrda – *bug doy*,

Xitoyda – *tuz*, Mo'g'ulistonda – *choy ayirboshlash* jarayoni *pul muomalasi* o'rniغا о'tgan.

Qadim zamonlardan beri pul vazifasini *qimmatbaho metallar* ham o'tab kelgan. Miloddan oldingi uch minginchi yillarda Shumer davlatida *asal* va *kumush* pul vazifasini bajargan. Kumush pullar miloddan oldingi ikki minginchi yillari Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan.

4-topshiriq. Savdo-sotiq sohasida keng qo'llanadigan so'z va iboralarni yozing, ular ishtirokida dialog tuzing.

5-topshiriq. Matn bilan tanishing. Asosiy tavsiyalarni daftaringizga ko'chirib oling.

BIZNES-REJA QANDAY TAYYORLANADI?

O'z (shaxsiy) ishingizni boshlamoqchi bo'lsangiz, albatta biznes-reja tuzishingiz kerak. Mazkur jarayonni yengillashtirish uchun quyidagi besh bosqichda ish tutishni tavsiya etamiz:

1. Maqsading'zni aniqlang. Birinchi bosqichda kim uchun ma'lumot tayyorlashingiz kerak, kompaniyangiz haqida ular nimani bilishi kerakligini tushunib oling. Kompaniya faoliyatining qaysi tomonlarini bo'rttirib ko'rsatish maqsadga muvofiq, qaysilari haqida kamroq gapirish, qaysilari to'g'risida esa umuman gapirmaslik zarurligini belgilang.

2. Biznes-rejaning taxminiy mundarijasini tuzing. Maxsus talablarni hisobga olgan holda tuzilgan mundarija oddiy yoki

murakkab bo'lishi mumkin. Biroq mundarija qanchalik bat afsil yozilsa, biznes-rejani tayyorlash shuncha oson kechadi.

3. Keyingi bosqichda mundarijani diqqat bilan tekshirib chiqish kerak. Kelgusida biznes-rejangizni o'qiydigan odamlarning fikrini va o'z maqsadningizni e'tiborga olib, ahamiyatli deb hisoblangan ma'lumotlarni kengaytirish, juz'iy tomonlarni ilovada berish mumkin.

4. Biznes-rejani yozing. Ko'pchilik ishni bozorni o'rghanish va moliyaviy ma'lumotlarni to'plashdan boshleydi. Siz mazkur ma'lumotlardan rejaning strategiyasini belgilash uchun, taxminlar qilish uchun foydalanasiz. Biznes-rejaning qoralamasini tayyorlang. Bunda umumiyligiga katta e'tibor bering, unda boshqa barcha bo'limlarga tegishli ijro, moliyalashtirish masalalari bo'yicha umumiyligiga mujassamlashtiriladi.

5. Biznes-rejani menejment bo'yicha mutaxassisiga bering. U rejaning qamrovi, o'qishga qulayligi, bayonning mantiqiyligi, ishning to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirib chiqsin. So'ng ko'rsatilgan takliflarni hisobga olib, biznes-rejangizga o'zgartirishlar kriting. Va, albatta, ushbu rejani muntazam ravishda yangilab boring.

Omad sizga yor bo'lsin!

Lug'at

Faoliyat – деятельность

Bo'rttirib ko'rsatish – преувеличивать

Taxminiy – приблизительный

Mundarija – содержание, оглавление

Bat afsil – подробно

Juz'iy – незначительный

Qoralama – черновик

Ijro – исполнение

Moliyalashtirish – финансирование

Mujassamlashtirmoq – вобрать в себя

Qamrov – охват

Bayonning mantiqiyligi – логика в изложении

Rasmiylashtirish – оформление

Muntazam ravishda – постоянно

6-topshiriq. Turli mamlakatlarda milliy pul birligi qanday atalishi xususida suhbat quring.

7-topshiriq. So‘mning shu kunda AQSP dollari, yevro, ingliz funsterningi, rus rubli, yapon ienasi, qozoq tangasi, tojik somoniysi, qirg‘iz somi, turkman manati, ukrain grivnasi, Litva liti, Latviya lati, estoa markasi, Tailand batti, turk lirasi, Eron riyoli, hind rupiyi va boshqa milliy valutalarga nisbatan kursini aniqlashga harakat qiling va jadval tuzing.

8-topshiriq. Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Подпишав договоры, главы государств провели пресс-конференцию. Заработав свой первый миллион, он уже не смог остановиться. Миша, не выходя из комнаты, может приобрести, например, мебель или хотя бы пиццу. Человек, который всегда говорит смеясь, очень быстро налодает окружающим. Не вставайте из-за письменного стола, не дописав сочинение до точки. Не проявив инициативу, нельзя достичь успеха в бизнесе.

9-topshiriq. Quyidagi fikrlarga tayanib, biznesda muvaffaqiyat qozonish yo'llari to'g'risida o'z xulosalaringizni shakllantiring.

MUVAFFAQIYATLI MUZOKARA TAMOYILLARI

1. Barcha narsani o'z vaqtida qilish.

Hech qachon muzokaralarga kech qolmang.

2. Ortiqcha gapni gapirmaslik.

Tinmay so'zlayotganingizda o'zingizni suhbatdoshingiz o'tniga qo'yib ko'ring. Aytildigan va aytilishi shart bo'lman gaplarni oldindan belgilab oling. Jumla boshida "yo'q" so'zini qo'llamaslikka imkon qadar harakat qiling. Ovozni baland chiqarib ham, pichirlab ham gapirmang. Suhbatdoshning gapini bo'lman.

3. Odamlarga nisbatan do'stona munosabatda bo'lish.

Nahotki, jilmayib turib, kayfiyatni ko'taradigan birorta gap aytish qiyin bo'lsa! Xushmuomala, xushfe'l bo'lish shaxsiy ishingiz emas, balki siz mehnat qilayotgan jamoaning umumiyligi ishidir, chunki korxona haqidagi fikr unda ishlayotgan xodimlar haqidagi fikrdan kelib chiqadi.

4. Vaziyatga mos ravishda kiyinish.

Biznes odamlari uchun faqat an'anaviy yoki faqat zamonaliviy kiyinish xavfli. Tashqi ko'rinishda gap ko'p.

5. "Yaxshi" tilda gapirish va yozish.

Aytgan va yozganlaringiz tarbiyangizni ko'rsatadi. Shuning uchun o'zingizni juda erkin tutgan hollarda ham, tilingizga erk bermang. Ismlarni to'liq va to'g'ri aytинг. Qo'pol so'zlarni suhbatdoshingiz qo'llasa ham, siz ulardan umuman voz keching.

6 Faqat o'zi haqida emas, boshqalar haqida haru o'ylash.

Atrofdagilarda o'zingizga nisbatan qiziqish uyg'otish uchun boshqalarga qiziqish bilan qarang. Yaxshi, samimiy tinglovchi bo'ling.

10-topshiriq. Matnda uchragan notanish so'zlar lug'atini tuzing.

11-topshiriq. Matnni o'qing. Uni rus tiliga tarjima qiling.

BO'SH VAQT

Vaqtdan to'g'ri, unumli va samarali foydalanish kelajakni o'ylaydigan insonga xos xususiyatdir. "Vaqting ketdi — naqding ketdi" deb bekorga aytildagan. Bo'sh vaqt dam olish, madaniy hordiq chiqarish, kitob o'qish, aqliy va jismoniy qobiliyatni mustahkamlash va qaytadan tiklash uchun zarur. Bekorchilik esa turli jinoyatlar sodir etish, ichkilikka, chekishga ruju qo'yish, noplak ishlarga sharoit yaratadi.

Uyqu dam olishning lazzatlari onlaridir, uqlash kishi organizmini kuchga to'ldiradi, aqlan tetik qiladi, mehnat qobiliyatini yuksaltiradi, salomatligini yaxshilaydi. Lekin ko'p uqlash yomon odad bo'lib, ir sonni lanj qiladi, ruhiy holatini, yuz qiyofasini o'zgartiradi.

Talabalar o'zlarining bo'sh vaqtlarida quyidagilar bilan shug'ullanishlari mumkin: kitobxonlik, estetik madaniyatni o'stirish, jismoniy chiniqish, aqliy kamolotga intilish, ekologik madaniyatni shakllantirish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va davom ettirish.

Lug'at

Samarali – эффективный

Naqd – наличный, здесь: деньги

Hordiq chiqarish – отдохать

Tiklash – восстанавливать

Bekorxchilik – бездельничество

Jinoyat – преступление

Ruju qo'yish – пристраститься

Nopok – нечистый

Lazzatli onlar – приятные минуты

Tetik – бодрый

Lanj – вялый

Ruhiy holat – психическое состояние

Jismoniy chiniqish – физическая закалка

Aqliy kamolot – умственное совершенство

Ekologik madaniyat – экологическая культура

12-topshiriq. Quyidagi gaplarni to'ldiring. Masalan:

Kitobxonlik — mustaqil o'qish uchun badiiy, texnik, ixtisoslik bo'yicha kitob o'qish, gazeta, jurnallar o'qish.

Estetik madaniyatni o'stirish -

Jismoniy chiniqish –

Aqliy kamolotga intilish –

Ekologik madaniyatni shakllantirish –

Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va davom ettirish –

Yordam uchun so'zlar: ijodiy ish, kulolchilik, sayohat, ko'rgazna, to'garak, sayr, kashtachilik, teleko'rsatuv, ko'rik-tanlov.

13-topshiriq. Bo'sh vaqtida nima bilan shug'ullanishingiz haqida gapirib bering.

14-topshiriq. Mashhur insonlarning xobbilari haqida kichik xabar tayyorlang. Bunda internet materiallaridan foydalaning

15-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni qo‘sishimchalar bilan o‘zgartiring. Bu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing. Masalan:

Yozish – yozishning – yozishim – yozishingizga – Yoshligimda she’r yozishni ko‘p mashq qilganman. Har kuni xat yozishingizga sira ishonmayman....

Yashash, yasash, tinglash, to‘qish, gapirmaslik, quvonish, kech golmaslik, dam olish.

16-topshiriq. O‘zbekiston televideniesining qaysi kanallarini tomosha qilasiz? O‘zingiz qanday ko‘rsatuvda ishtirok etishni istaysiz? Shu mavzuda rolli o‘yin o‘tkazing.

17-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Chol nabirasiga nimani tushuntirmoqchi bo‘lganini aytинг.

ОБЫКНОВЕННЫЙ ЧЕЛОВЕК

В жаркой сухой степи — колодец. Возле колодца — изба. В ней живут дед с внуком.

У колодца на длинной веревке — ведро. Идут, едут люди, заворачивают к колодцу. Пьют воду и благодарят деда.

Однажды, когда внук доставал воду, веревка оторвалась и ведро упало в колодец. Колодец был глубокий.

— Дедушка, ведро упало в колодец. Что теперь будем делать? — спросил внук, чуть не плача.

— Другого ведра у нас нет. Подождем проезжих, — сказал дед.

На другой день утром подъезжает к дедовой избе мужик на телеге. Под соломой у него ведро. Проезжий посмотрел в колодец, глянул на деда с внуком, ударил кнутом лошадей и поехал дальше.

— Что это за человек? — спросил внук.

— Это не человек, — ответил дед.

В полдень проезжал мимо дедовой избы другой человек. Он достал из-под соломы ведро, привязал к веревке, достал воды, напился сам, дал напиться деду и внуку, вылил оставшуюся воду в сухой песок, спрятал ведро опять в солому и поехал.

— Что это за человек? — спросил внук вновь.

— И это еще не человек, — сказал дед.

Вечером остановился у дедовой избы третий проезжий. Он достал из телеги ведро, привязал к веревке, набрал воды, напился, поблагодарил деда и поехал дальше, а ведро оставил привязанным у колодца.

— А это что за человек? — спросил внук.

— Обыкновенный, сынок, — сказал дед.

18-topshiriq. Qavsdagi fe'llarni tegishli shaklda qo'llab, gaplarni ko'chiring. Masalan: *Musiqa (tinglamoq) qiz bizning guruhimizda o'qiydi - Musiqa tingleyotgan qiz bizning guruhimizda o'qiydi*. Pianino (chalmoq) bola o'tgan yili respublika tanlovida birinchi

o'tinni egallagan. Men emas, xonada kitob (o'qimoq) yigit siz bilan tanishmoqchi edi. Marraga birinchi bo'lib (yetib kelmoq) yengil atletikachi Uchqo'rg'onda tug'ilib o'sgan ekan. Qo'shiq kuylab kashta (tikmoq) go'zal qizlar "Mashhura" o'quv markazini tamomlaganlar. Baliq (ovlamoq) kishi olov (yoqmoq) bolaning otasi bilan bir joyda ishlaydi. Avtomobilsozlik mamlakatimizda (rivojlanmoq) yangi sohalardan biridir.

19-topshiriq. Ishbilarmonlik, tejamkorlik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik haqidagi maqollardan daftaringizga yozing.

20-topshiriq. So'z o'yinida ishtirok eting. O'yin sharti - birinchi so'zning oxirgi ikki (uch) harfi ikkinchi so'zning birinchi ikki (uch) harfi bo'lishi kerak. Masalan:

Daromad –adolat – attorlik – ikkilanchi – ...;

Tadbirkor – korxona – onalik – likopcha –

10. SOG'LOM TURMUSH TARZI

1-topshiriq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarining ma'nolarini izohlang.

CHARM QO'LQOP USTALARI

O'zbekistonning professional boksda ham o'z championi bor. Ruslan Chagayev rossiyalik jahon championi Nikolay Valuyevni mag'lubiyatga uchratib, eng *nufuzli* xalqaro boks tashkilotining *o'tin kamariga* ega bo'ldi.

To'g'ri, bu bizning yurtimizga tashrif buyurgan birinchi kamar emas. O'z vaqtida Artur Grigoryan WBO yo'naliشining kamarini bir necha yil davomida hech kimga bermaganini barchamiz yaxshi bilamiz.

Sidneyda o'tgan olimpiada finalida amerikalik *raqibini taslim qilgan* Muhammadqodir Abdullayev O'zbekiston bayrog'i baland hilpirashiga sababchi bo'lgan edi.

Shuningdek, yurtdoshlarimiz boks bo'yicha jahon va Os yo chempionatlari, olimpiada va Osiyo o'yinlari *shohsupalariga* muntazam ravishda ko'tarilmoqda. O'tkirbek Haydarov, Rustam Saidov, Aleksey Mixaylov, Jasur Matchonov va boshqalar o'zbek boks maktabi *g'olibona an'analarini* davom ettirishmoqda.

2-topshiriq. Matnni o'qing. Ikkinchi, uchinchi, yettinchi va oxirgi gapdag'i fikrlarni boshqa so'zlar yordamida ifodalang. Masalan: *Musobaqani yilning eng sovuq oylarida tog'li hududlardan birida o'tkazish ehtimoli bor – Musobaqa qishda tog'li hududda o'tkazilishi mumkin.*

SHAXMATCHILAR BAYRAMI



1924-yili ta'sis etilgan Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) qaroriga binoan 1966-yildan buyon 20-iyulda butun dunyoda Xalqaro shaxmat kuni nishonlanadi.

Rasman e'tirof etilishicha, o'zin V asrda Hindistonda paydo bo'lgan emish. Uning nomi barchamizga tushunarli, ya'ni shoh tormor etildi, chorasziz qoldi, ta'bir joiz bo'lsa, "o'ldi" degan ma'noni anglatadi.

Xalqaro olimpiya qo'mitasi (XOQ) 1999-yili FIDEni rasman tan olgan. 2007-yilning 30-iyul kuni FIDE Shveysariyaning Lozanna shahrida joylashgan XOQ qarorgohida o'z vakolatxonasini ochdi.

XOQ shaxmatni qishki olimpiada dasturiga kiritishni tavsiya qilmoqda. *Shaxmat Sochida o'tadigan 2014-yilgi qishki olimpiada dasturidan joy olishi mumkin.*

20-iyulda turli mamlakatlardagi kabi diyorimizda ham ko'plab shaxmat muxlislari o'z musobaqalarini tashkil etishadi va 64 katakda ayovsiz jang olib borishadi.

Shaxmat tarixiga O'zbekiston nomi abadiy bitilgan. Chunki hamyurtimiz Rustam Qosimjonov 2004-yili jahon championi unvoniga sazovor bo'ldi va o'zbek shaxmat maktabining shuhratini olanga yoydi. *Shuning uchun ham Rustam davlatimizning yuksak mukofoti – "Amir Temur" ordeni bilan taqdirlandi.*

Lug'at

Ta'sis etilgan – учрежден

Rasman e'tirof etilishicha – по официальному утверждению

Tor-mor etildi – уничтожен

Ta'bir joiz bo'lsa – если можно так сказать

Qarorgoh – резиденция

Vakolatxona – представительство

Muxlis – болельщик

Ayovsiz – беспощадный

Bit'lgan – записан

3-töpshiriq. Matnni davom ettiring.

UNIVERSIADA

Yurtimizda istiqolning dastlabki yillardan farzandlarimiz qalbida sportga mehr va havas uyg'otishga alohida e'tibor berilmoqda. O'quvchi va talabalar, ayollar, nogironlar sport bilan shug'ullanishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish davlatimiz diqqat markazida turibdi. Shahar va qishloqlarda, maktab, litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlari qoshida eng zamonaviy talablarga javob beradigan sport majmualari va inshootlari barpo etilmoqda.

Bunday keng ko'lamli ishlar samara berayotgani barchaga ma'lum. Ruslan Chagayev va Rustam Qosimjonov, Muhammadqodir Abdullayev va Armen Bagdasarov, Dilshod Mansurov va Abdulla Tangriyev, Go'zal Xubbiyeva va Maftuna To'xtasinova, Rustam Saidov va O'tkirkbek Haydarov kabi yoshlarimiz eng nufuzli xalqaro musobaqalarda yorqin g'alabalari bilan vatanimiz shuhratini tarannum etib, dunyo ahlini hayratda qoldirmoqda.

Uch bosqichdan iborat uzlucksiz tizim – “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” o'yinlari yoshlarning sportga qiziqishini yanada oshirdi...

Lug'at

Havas – желание, увлечение, склонность

Diqqat markazida – в центре внимания

Majmua – комплекс

Barg'o etmoq – построить

Keng ko'lamli – широкомасштабный

Tarannum etmoq – воспевать

Hayratda qoldirmoq – удивлять

Uzluksiz tizim – непрерывная система

4-topshiriq. Quyidagi so'zlarning sinonimlarini toping.

D.yorimiz, mustaqillik, sog'liq, yutuq, qiyin, bellashuv, ixlosmandlar, kuylamoq, qurmoq.

5-topshiriq. Quyidagilardan foydalanib, ko'chirma gapli konstruksiyalar tuzing, ulardan o'zlashtirma gaplarni hosil qiling. Masalan:

- *200 metrga suzish bo'yicha musobaqalar ertaga bo'lib o'tadi, - dedi sharhlovchi. Sharhlovchi ertaga 200 metrga suzish bo'yicha musobaqalar bo'lishini aytди.*

Musobaqlarda uchinchi o'rinni Samarqand viloyati jamoasi egalladi. Umumjamoa hisobida kumush medalga Namangan viloyati talaba-sportchilari sazovor bo'lishdi. Eng yuqori natijaga - universiada g'olibligiga Toshkent shahri jamoasi erishdi. Navbatdagi universiada Andijon shahrida o'tadi.

6-lopshiriq. She'mi yod oling.

KURASH

Bizga Hazrat Odam Atodan meros,
Zardushtiy boboni qo'llagan kurash.
Elsevar, erksevar To'marisga xos,
Alpomishni baxtga yo'llagan kurash.

Odamzod naslida bo'lmasin nurash,
Elatlar, davlatlar, qit'alar, birlash.
Davrada, gilamda, maydonda sirlash,
"Yo pirim" degin-u o'zbekcha kurash.

Osmoni zangori, niyatlari oq,
Yam-yashil o'lkada bo'y cho'zdi umid.
Polvon o'g'lonlarga ko'ngillar mushtoq,
Har elda uyg'onsin Pahlavon Mahmud.

Odamzod naslida bo'lmasin nurash,
Elatlar, davlatlar, qit'alar, birlash.
Davrada, gilamda, maydonda sirlash,
"Yo pirim" degin-u o'zbekcha kurash.

Asror Mo'min

Lug'at

Meros – наследие

Elsevar – патриот

Erksevar – свободолюбивый

Nuramoq – свалиться, рухнуть

Sirlashmoq – секретничать

Kurashmoq – бороться

Bo'y cho'zdi – выброс

Ko'ngillar mushtoq – душа желает, ожидает

7-topshiriq. Matnni o'qing. Nima uchun u shunday nomlanganini tushuntiring.

SPORT VA MUXLISLAR O'RTASIDAGI KO'PRIK

Har yili 2-iyulda Xalqaro sport jurnalistlari kuni nishonlanadi.

1924-yilning 2-iyulida Fransiya poytaxti Parijda yangi xalqaro tashkilot – Sport jurnalistlari assotsiatsiyasi (AIPS) tashkil etilgan edi. Ushbu tashkilot musobaqaqlarni yoritishda jurnalistlarning huquqlariga rioya qilinishini ta'minlash, xorijiy hamkasblar bilan mustahkam aloqa o'rnatish, tajriba almashish, eng yangi texnologiyalarni sport jurnalistikasiga ta'tbiq etish kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

Uning safi yildan yilga kengayib bormoqda. Hozirda dunyoning turli qit'alarida 30 mingdan ziyod sport jurnalisti faoliyat ko'rsatadi. Ularning 10 mingga yaqini AIPS a'zosidir. Shuningdek, 150dan ziyod mamlakatda tuzilgan sport jurnalistlarining milliy assotsiatsiyalari AIPSGa birlashgan.

8-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling, undagi tayanch so'z va iboralarni ko'chirib yozing, ular ishtirokida gaplar tuzing

"EVRO-2012" NAMOYISHI UCHUN MILLIARD

Futbol bo'yicha 2012-yilgi Yevropa championati Ukraina va Polsha stadionlarida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Chempionat uchrashuvlarini telekommunikatsiya vositalari orqali namoyish qilish huquqi bir milliard yevroga sotildi. Bu yangi rekord bo'ldi.

Lekin Yevropa futbol federatsiyalari uyushmasi (UEFA) hamda chempionat tashkilotchilari Ukraina va Polsha katta darornad cishi o'z-o'zidan bo'lmaydi. Chunki bellashuvlarni nafaqat televidenie, balki internet va mobil telefonlar orqali olib ko'rsatishni ta'minlaydigan zamонавиј ilg'or texnologiyalar xarid qilinishi va ishga tushirilishi talab etiladi.

9-topshiriq. Matnni o'qing.

PROFESSOR BEKXEM

Devid Bekxemni butun dunyoda futbol professori sifatida yaxshi tanishadi. U o'zining ajoyib o'yini va gollari bilan shunday hurmat-e'tiborga sazovor bo'lgan. Madridning "Real" klubini tark etib AQSHning "Los-Anjeles Gelaksi" klubiga o'tganidan so'ng Devid universitetda ham professorga aylanish imkoniga ega bo'ldi.

Janubiy Kaliforniya universiteti Bekxemga "Futbol qanday qilib olamni o'zgartirdi" mavzusida ma'ruzalar o'qishni taklif etdi.

Universitet professori, "Sportning diplomatiyadagi roli" mavzusidagi ma'ruzalar muallifi Nikolas Kall ingliz futbolchisiga dastlabki davrda ma'ruzalarga material tayyorlash va ularni talabalarga yetkazishda ko'maklashadigan bo'ldi.

"Female First" jurnali Nikolas Kallning quyidagi so'zlarini keltirgan: "Devid Bekxem katta futbolni tark etmay turib afsonaga zylangan sportchilardan. U sport taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatganlardan biri. Uning mashig'ulotlari talabalarimiz uchun

foydali va qiziqarli bo'ladi degan umiddamiz. Futbolga besarq bo'lganlargina Bekxemning ahamiyatini tushunmaydilar va uning nomi sport tarixiga zarhal harflar bilan bitilganini bilmaydilar”.

10-topshiriq. Yuqoridagi matn yuzasidan savollarga javob bering.

1. Devid Bekxem kim?
2. U qayerda tug'ilgan?
3. Nima ababdan uni butun dunyo futbol muxlislari taniydi, hurmat qiladi?
4. Qaysi jamoalarda o'ynagan va o'ynab kelmoqda?
5. Sizningcha, futbol qanday qilib olamni o'zgartirdi?
6. Sportning xalqaro munosabatlardagi ahamiyati nimadan iborat?

11-topshiriq. Sport bilan bog'liq taniqli shiorlar, hikmatli so'zlar, maqollardan yozing.

12-topshiriq. Matnni o'qing va notanish so'zlar ma'nosini toping.

KIM MILLIONER BO'LISHNI XOHLAYDI?

Sport malikasi sanalmish yengil atletika olamida “Oltin liga” bahslari alohida c'rin egallaydi. Sportchilar va tomoshabinlarning ko'zi o'ngida qiymati million dollarga teng oltin yombilar turgandan keyin bu haqda o'yamaslik qiyin bo'lsa kerak.

Ammo o'sha tillalarni o'zlashtirish juda mushkul. Buning uchun liga dasturiga kiritilgan barcha olti bosqichda faqat birinchi o'rinni egallah zarur.

XXI asrning dastlabki yillarda millionerga aylangan faqat ikki omadli yengil atletikachini eslash mumkin. 2003-yili mozambiklik Mariya Mutola, 2005-yili uch hatlab sakrash ustasi rossiyalik Tatyana Lebedeva oltin yombilar sohibasi bo'lishgan.

2005-yili millionni "artalashga" to'g'ri kelgan. Amerikalik Jeremi Uoriner va Sanya Richards hamda yamaykalik 100 metrga yugurishda jahon rekordchisi Asafa Paue'l sovrinni bo'lib olishgan.

13-topshiriq. Matnni o'qing. O'zingiz bilgan shu kabi hodisalar haqida hikoya tuzing.

OLTIN YOG'DUSI KO'ZNI QAMASHTIRGANDA

Italiya poytaxti Rimdag'i "Olimpiko" stadionida "Oltin liga" musobaqalarining navbatdag'i bosqichi o'tkazildi.

Bosh sovrinni qo'lga kiritishdan umidvorlar orasida finn sportchisi Tero Pitkamyaki ham bor edi. Lekin Rim uning uchun faqat muammolarni keltirib chiqardi. Bir tomonidan, u norvegiyalik olinipiada championi Andreas Torkildsenga yutqazib qo'ydi. Ammo bu ham hali holva ekan. Chunki Tero otgan nayza kutilmaganda chap tomonga ketib qolib, fransuz sportchisi Salim Sdiriga borib sanchildi. Ba'zilarning aytishicha, Pitkamyakining ko'zini oltin yombilar "qamashtirgan" bo'lsa kerak.

Jarohatlangan Sdiri tez yordam mashinasida zudlik bilan shifoxonaga yetkazildi. Nayzaning uchi tanaga taxminan 10 santimetrga kirib borgani aniqlandi. Sdirining o'ng buyragi va jigariga zarar yetgan ekan. Jarohatlangan sportchi ahvoli

og‘irlashmasligi uchun yana bir necha kun mobaynida Rimca shifoxonada qolishiga to‘g‘ri keldi.

Darvoqe, bunday ko‘ngilsizliklar avval ham qayd etilgan. Jumladan, Janubiy Afrikada olimpiada championi Roman Sebrle yugurish mashqlarini bajarayotganida yelkasiga nayza tekkan. Natijada jarrohlar 11 ta chok bilan yelkani tikishlariga to‘g‘ri kelgan.

14-topshiriq. Matnni o‘qing. Uni qayta so‘zlash uchun reja tuzing.

SOCHI – QISHKI OLIMPLADA-2014 MEZBONI



Xalqaro olimpiya qo‘mitasi(XOQ)ning Gvatemalada o‘tgan sessiyasida 2014-yilgi qishki olimpiadani Rossiyaning Sochi shahrida o‘tkazish haqida qaror qabul qilindi.

Rossiya ilk marotaba qishki olimpiada mezoniga aylanadigan bo‘ldi. Uch da’vogar orasida kurashdan avval Avstriyaning Zalsburg shahri chiqib ketdi. So‘ngra Koreyaning Pxenchxan shahri olimpiadadan benasib qolgani ma’lum bo‘ldi.

Sochining ustunligi nimalarda aks etadi?

Birinchi navbatda, Sochida deyarli barcha inshootlar endi quriladi. Demak, ular barcha zamonaviy talablarga javob beradigan bo‘ladi. Avstriya va Koreyada esa qator inshootlar avval qurilgan hamda davr o‘tishi bilan eskirib boraveradi.

Ikkinchidan, sayyoramizda yildan-yilga qor muammosi qishki sport musobaqalarini tashkil etuvchilarni qiy nab kelmoqda. Koreyaliklar sun’iy qorni zarur hajmda ishlab chiqara olishlarini ayt shdi. Sochida esa hatto may oyida ham qor muammosi yo‘q.

Uchinchidan, Sochida olimpiada bilan bog'liq barcha inshcottar va musobaqa arenalari bir-biriga juda yaqin joylashadi. Bu esa tomoshabinlar va sportchilarga katta qulaylik yaratadi.

Olimpiya shaharchasida istiqomat qiluvchi sportchilar muz saroyiga piyoda yurib 10 daqiqada yetib olishadi. Olimpiya parki bo'ylab muntazam harakatlanuvchi elektromobilarda esa undan ham tezroq. Sog'lom turmush tarzi tarafдорлари ijara ga tekin taqdum ctildigan velosipedlardan foydalanishlari mumkin.

Bir kunda ishqibozlar uch-to'rtta musobaqani bevosita kuzatish imkoniga ega bo'lishadi. Bu tomoshabinlarga albatta ma'qul tushadi.

To'rtinchidan, olimpiada munosabati bilan dunyo miqyosida turli sport turlari bo'yicha nufuzli musobaqalar o'tkaziladigan yangi majmua quriladi. Olimpiada obyektlari musobaqalardan keyin ham mintaqada sport va sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, Sochi xalqaro aeroporti olimpiya majmuasidan bor yo'g'i 40 daqiqalik masofada. Bu delegatsiyalar va ishqibozlarning kelib-ketishi uchun qulaylik yaratadi.

Darvoqe, "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi Toshkent-Sochi yo'nali shida muntazam qatnovlarni bajaradi. Vaqt yetib, nasib etsa, ushbu qatnovda olimpiyachilarimiz va ishqibozlarimiz Sochi-2014 musobaqalariga borib kelishadi.

15-topshiriq. Matnni o'qing. Ginnes rekordlar kitobiga kirgan boshqa sportchilar haqida ma'lumot tayyorlang. Bunda internet xizmatidan foydalaning.

KOMENECH - GINNESS REKORDLAR KITOVIDA

Jahon sport gimnastikasi afsonasiga aylangan mashhur rumin sportchisi Nadya Komenech Guinness rekordlar kitobiga olimpiada musobaqalarida ayollar o'rtasida eng yuqori – 10 ball baho olgan birinchi gimnastika ustasi sifatida kiritildi.

1976-yili Kanadaning Montreal shahrida o'tgan olimpiadada 14 yoshli Komenech uchta oltin medalga sazovor bo'lgan edi. O'shanda hakamlar uning ijrosi uchun jami yetti marta 10 ball qo'yishgani tarixda qolgan.

16-topshiriq. Matnlarni o'qing. Ularda bayon etilgan voqealarga o'z munosabatingizni bildiring.

MANCHESTER YUNAYTED – KLUB VA ODAM

Ismi-sharifini o'zgartirgan fanatni bilasizmi?

Bolgariyalik futbol ishqibozি Marin Zdravkov bugun o'zini juda baxtiyor his qilmocda. U yaqinda Angliyaga tashrif buyurib, o'zining ismi va familiyasini Manchester Yunaytedga o'zgartirdi.

– Men juda hayajondaman. Bir umr shu shaharga tashrif buyurishni va "Old Trafford" stadioniga kirib, maydonni kezib chiqishni orzu qillardim. Maysaga qadam qo'yganimda, ochig'i, ko'nglim to'lib ketganidan xo'ngrab yig'lab yubordim. Bu lahzalar – umrimdagi eng baxtli onlar. "Yunayted" mening bor vujudim, qalbim, mening oilam, - dedi yangi Manchester Yunayted.

BOKS QURBONI

Buyuk Britaniyada ona yangi tug'ilgan qiziga o'ta g'ayritabiyy ism qo'yibdi. Tug'ilganiga endi ikki oy bo'lgan qizaloq Otem Braunning to'la oti 25 bokschining ismidan iborat.

"Daily Star" xabar berishicha, Perton shahri fuqarosi 33 yoshli ona oilaviy an'anani buzmaslik maqsadida shunday yo'l tutgan. Boksga mukkasidan ketgan ota-onasi uchta farzandiga qo'ygan nomilar jami 103 ta ismdan tarkib topganidan hayratga tushmaslikning iloji yo'q.

– Men 10 yoshga to'lgunimcha o'zimning to'liq ismimni yodlab ololmaganman. Otem o'z ismidan ranjimay, uni bir hazil sifatida qabul qiladi, deb o'ylayman. Axir hech qanday yomon ish qilmadik-ku, - debdi ona "Express and Star" gazetasiga bergen intervyuda.

Buyuk Britaniyada ota-onasi farzandi dunyoga kelganda unga bitta yoki bir nechta ikkinchi ism qo'yishi mumkin. Xullas, qizaloqning to'liq ismi bilan tanishing: Otem Sullivan Korbett Fitssimmons Jeffris Kart Berns Djønson Uillard Dempsey Tyunni Shmeling Sharki Karnera Baer Breddok Lyuis Charlz Ualkott Marchano Patterson Yoxansson Liston Kley Fraze Foreman Braun.

17-topshiriq. Sport turlarining nomidan tashkil topgan krossvord tuzing.

18-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

ЧТО ВЛИЯЕТ НА ЗДОРОВЬЕ ЛЮДЕЙ?

Абул Баракат Кадырий ибн Мухаммад Насруллах (15-век) в своей книге «Качкули Султания» («Книга султанов») пишет:

Следующие факторы плохо влияют на здоровье людей:

- употребление спиртных напитков, курение;
- неосторожное отношение с животными (ставить перед ними пищу, воду, которую человек хочет позже употребить);

- чересчур много кушать, есть слишком горькую пищу;
- расчесывать свои волосы чужой расческой;
- оставлять открытой посуду с чистой водой, вообще, с пищевыми продуктами;
- шить иголкой одежду, в которую в данный момент одет человек;
- быть злым и коварным, всегда думать о плохом.

А следующие факторы благоприятно влияют на здоровье людей:

- мало есть, мало говорить, меньше спать, дышаться приятными духами, часто купаться;
- часто чистить зубы, чисто и красиво одеваться, вовремя стричь волосы и ногти;
- быть приветливым и искренним, добрым и радушным во всех отношениях, помогать слабым и малоимущим людям.

19-topshiriq. Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, yana qaysi holatlari inson salomatligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida fikringizni yozma bayon eting.

20-topshiriq. She'tni o'qing, mazmunini so'zlab bering. Sarlavhani izohlang.

YASHASHGA NE YETSIN

Yas iashga ne yetsin!.. Dunyo – sehrli,
 O'lguncha sehriga to'ymaydi ko'zing.
 Bosningdan goh nurday quyar mehrini,
 Goh toshlar yog'dirar – yetmaydi to'zim.

Goh qorin g‘amida chekasan zahmat,
Obro‘ talashmoqdan goh dilda tugun...
Ammo chin yashashni istasang, faqat
O‘zbekiston uchun yashamoq mumkin.

O‘lim ham bor narsa – kalxatday uchar
Chumchuqday joningni bergani qurbon.
Birovning titragan tovushi o‘char,
Birov o‘z g‘amida adoyi tamom.

Mayli, o‘limni ham aylagin hurmat,
Bandasi dunyodan bitta on qarzdir...
Chindan qurbonlikka jahd qilsang, faqat
O‘zbekiston uchun jon bermoq arzir.

Mangu yashamoqning sirimi? Oshkor!
Bekorga har taraf uringaydirlas:
Magarkim, jon berding yurt deb necha bor,
Onchakim, qaytadan tirligaydirlas.

Usmon Azim

Lug‘at

To‘zim – терпение

Zahmat – труд, трудности

Dilda tugun – здесь: на душе тайна

Obro‘ – уважение, авторитет

Kalxat – коршун

Qurban – жертва

Titramoq – дрожать

Adoyi tamom – измучен, изведен

Jahd qilmoq – стараться, усердствовать

Oshkor – открыто, здесь: известно

Urinmoq – стараться, пытаться

Magarkim (agar) – если

Onchakim – столько же раз

Tirilmoq – оживать

21-topshiriq. Universitet(institut)ingizda qanday sport seksiyalari ishlashi haqida do'stingiz bilan suhbat quring, suhbatni daftaringizga yozing.

22-topshiriq. Matnni o'qing. Giyohvandlikka qarshi kurash haqidagi ma'lumotlar asosida ma'ruza tayyorlang.

GIYOHHLAR VA GIYOHVANDLIK

Qadim zamonlarda bemonlarni davolash uchun aksariyat hollarda tabiblar tabiiy giyohlar va ularning ildizidan dori-darmon tayyorlashgan.

Zamonaviy meditsinada kimyoviy elementlar bilan bir qatorda dorivor o'simliklarga katta e'tibor beriladi. Shifokorlar ularni inson salomatligini saqlash, turli kasalliklarning oldini olish, bemonlarni davolash uchun tavsiya qilishadi. Dorilar tarkibi bilan tanishsangiz, ularda turli tabiiy giyohlar borligiga ishonch hosil qilasiz. Ayniqsa, fitobarlar ko'payib borayotgani tabiatga ishonchni tasdiqlaydi.

Lekin giyoh va giyohvandlik so'zları bir o'zakdan hosil bo'lganiga qaramay, birinchisi insonga baxt ato etsa, ikkinchisi

baxtsizlik keltiradi. Afsuski, turli qit'alarda, turli mamlakatlarda so'nggi yillarda yoshlar asr vabosi deb nomlangan giyohvand moddalarga ruju qo'yishi ko'payib borayotgani kuzatilmoqda. Bu narsa oilani vayron qiladi, salomatlikni izdan chiqaradi, baxtni o'g'irlaydi. Baxli bo'laman degan odam giyohvandlik ko'chasiga aslo qadam qo'ymaydi.

Giyohlarga oshno bo'ling – salomat bo'lasiz!

Lug'at

Giyoh – трава

Giyohvandlik - наркомания

Ildiz – корень

Tarkib – состав

Ishonch – доверие

Bir o'zakdan hosil bo'lgan – однокоренные

Ato etmoq – дарить

Asr vabosi – чума века

Oshno bo'lmoq – подружиться

23-topshiriq. “Fitnes-klub va biz” mavzusida kichik hikoya yozing.

Quyidagi yordamchi materialdan foydalanishingiz mumkin.

Talaba ko'p vaqtini o'tirgan holda o'tkazadi.

Shuning uchun u ko'p harakat qilishga intilishi zarur.

Fitnes zamонавиу sport majmuasi bo'lib, ...

U yerda biz ...

Men do'stlarim bilan har haftada uch marta ...

Fitnes – salomatlik ...

11. USLUBLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

1-tcpshiriq. Savollarga javob bering:

Ixtisosligingiz bo'yicha yozilgan kitoblardagi so'zlar og'zaki nutqingizdagi so'zlardan nimasi bilan farqlanadi?

Gazeta maqolasida ko'proq qanday so'z va iboralarni uchratish mumkin?

Ariza yozganingizda odatda qanday qolip iboralardan foydalanasiz?

Badiiy asarlarni o'qiganingizda nima uchun ta'sirlanib ketasiz? Bunga qanday so'zlar sabab bo'ladi?

Yordamchi material: badiiy takror, atamalar, balandparvoz gaplar, majhullik nisbatidagi fe'llar, shevaga xos so'zlar, tovushlarning tushib qolishi, o'zgarishi, undovlar, kanselyarizmlar, qolip va klishelar, tasviriy vositalar.

2-tcpshiriq. O'zbek tilidagi asosiy nutq uslublarini eslang va ularni daftaringizga yozib qo'ying.

3-tcpshiriq. Matnni o'qing. U qaysi uslubga xos ekanligini aniqlang va fikringizni asoslang.

AYLANA VA DOIRA

Atrofimizda dumaloq narsalar juda ko'p. Ularning ba'zilari doirani eslatadi. Bular — obi non va quymoq, medal va tangalar, limon bo'tagi... Yana boshqalari, masalan, halqa, velosiped g'ildiragi, uzuk kabilar aylanaga juda o'xshaydi.

Aylananing doiradan nima farqi bor? Aylana bilan cheklangan narsalarning hammasi — doira. Aylana esa shu doiraning chetl:rigina, xolos.

Aylana — faqat chiziq. Oq qog'oz ustiga stakanni qo'yib, atrofidan qalam yurgizib chiqsak, hosil bo'lgan ingichka dumaloq chiziq aylana bo'ladi. Aylana chizish uchun sirkuldan ham foydalanish mumkin. Agar sirkul bo'lmasa, qog'oz varag'ini yog'och taxtacha ustiga qo'yib, o'rtasiga bitta knopka qadang, tagiga pishiq ip bog'lab qo'ying, ipning ikkinchi uchiga qalam bog'lang. Qalamni ip bog'langan joyidan ushlab, tarang torting-da aylanma chiziq chizib chiqing, shunda aylana hosil bo'ladi.

Doira — yassi shakl, uni qirqib tayyorlash mumkin. Hali chizgan aylanangizni atrofidan qaychi bilan qiyib chiqsangiz, doira hosil bo'ladi. Sirkul qo'yiladigan yoki haligi knopka qadaladigan nuqta aylana va doira markazi hisoblanadi.

Limon bo'lagi va velosiped g'ildiragi markazini topish oson.

Lug'at

Eslatmoq – напоминать

Obi non – лепёшка

Quymoq – здесь: блинчик

Halqa – кольцо, звено

Chetlari – края

Bog'lamoq – завязать, привязать

Tarang – тугой, туго

Yassi – плоский

Qiymoq - разрезать

4-topshiriq. Fikrni davom ettiring.

Zarg‘aldoqlar — juda foydali qushlar. Ular bog‘ va o‘rmonlar uchun zararli bo‘lgan, lekin boshqa parrandalar yoqtirmaydigan zaharli, sertuk kapalak qurtlari, daraxtlarda yashaydigan qo‘ng‘izlar, chigirtkalar bilan oziqlanadilar.

Zag‘chalar turli zararkunanda hasharot: tillaqo‘ng‘iz, barg qurti va boshqalarni qirib, ko‘p foyda keltiradi. Zag‘cha bolalari qafasda yashashga tez o‘rganadi...

Lug‘at

Zarg‘aldoq – иволга

Sertuk – пушистый

Qurt – гусеница, червь

Qo‘ng‘iz – жук

Chigirtka – кузнецик

Zag‘cha – сорока

Zararkunanda – вредитель

Tillaqo‘ng‘iz – хрущ

Qirmoq – здесь: истреблять

5-topshiriq. Matnni o‘qing. O‘lchov birliklarini bildiruvchi so‘zlarni ko‘chirib yozing, ular bilan so‘z birikmalarini tuzing.

ZAHIRIDDIN BOBUR: «O‘LCHOV BIRLIKALARINI BIL, BU BILIMDIR»

O‘lchov birliklari qadim zamonalardan beri mavjud. Kishilar ulardan xo‘jalikda, savdo-sotiqda, qurilish ishlarida doimo foydalaniб kelganlar. Birliklarni hisoblash asboblari dastlab

insonning qo'l va oyog'i bo'lgan. Masalan: qadam, qarich, ikki en va hokazo. Shu taxlitda uzunlik, buyum o'lchamlari, masofa o'changan. Bu birliklardan hozirga qadar foydalanib kelinadi. Bir kunlik yo'l, bir qop, bir kosa va hokazo birliklar keyinchalik paydo bo'lgan.

Har bir xalq tomonidan qabul qilingan birliklar nomi turlicha, birliklarning o'zi ham juda ko'p bo'lgan. Buning natijasida ko'plab qiyinchiliklar tug'ilgani tufayli keyinchalik butun dunyoda bir xil birliklar qabul qilindi.

Olimlar asrlar davomida o'zgarmaydigan birliklar (etalonlar) tanlashni taklif qilganlar. Masalan, X. Gyuygens 1664-yili oir sekundda bir marta tebranuvchi mayatnik uzunligini uzunlik birligi qilib olishni taklif qilgan. Kilogramm, metr 1870-yillarda qabul qilingan. Metr etalonini 1799-yili yasaldi. Bir metr uchun Yer meridiani chorak qismining o'n milliondan bir bo'lagi qabul qilingan, lekin Yer meridiani qayta o'lchaniga (1870-, 1872-, 1875-yillar) metr etalonini o'zgartirishga to'g'ri keldi (oldingi o'lhash bilan keyingi o'lhashlar 0,08 mm ga farq qiladi). Shuning uchun 1799-yili yasalgan etalon xalqaro etalon deb qabul qilingar.

Boshqa o'lchov birliklari shu kabi o'zgartirilib, takomillashtirilib, aniqlashtirilib borilgan. Bu jarayon hozir ham davom etmoqda.

M.Turdiyev

6-topshiriq. Birikmalardagi raqam va belgilarni so'z bilan yozing.
123-maktab, 75% , \$ 200, 3.25 marta, 2.5 MB, 2000-yil, 0.05 g,
3/5 qism, 8795603 so'm , 07.07.07 soat 07 da.

7-topshiriq. Quyidagi gaplarni to'ldiring.

Yevropadagi eng uzun daryo - Eng kichik qushning nomi - Everest - eng Dunyodagi eng badavlat odam - Inson uchun eng aziz zot - Xitoy - O'zbekiston Milliy universiteti - Amazonka - eng ... daryo. Shahrimizdagи eng baland bino - Dars jadvalimizdagi eng qiyin fan - ...

8-topshiriq. Matnni o'qing. Uning mazmunini yorituvchi savollar tuzing.

AKVAREL

Qadim zamonalardan akvarel bo'yqlari o'zining nafisligi va ranglarining yorqinligi bilan rassomlarni qiziqtirib kelgan. Akvarel bo'yog'i tarkibiga bo'yoq moddasi (o'simlik yoki mineralarning mayin qilib yanchilgan kukuni) va bog'lovchi modda — olcha yelimi, glitserin va ozroq asal kiradi. Bular hammasi suvda osongina eriydigan bo'lgani uchun bo'yoqqa suv qo'shib suyultirib ishlatiladi.

Akvarel bilan ishlanganda oq bo'yoq ishlatilmaydi, uning ornini oq qog'ozning o'zi o'taydi. Akvarelning guash yoki moybo'yoqlardan farqi uning tiniqligi, bo'yoqlarning yorqinligi va tozaligidadir. Shuning uchun bu bo'yoqlarni ishlatganda qatlamlar nihoyatda yupqa bo'lishiga harakat qilish kerak. Juda silliq qog'ozga bo'yoq tekis surtilmaydi, shuring uchun qog'oz oppoq, yetarli darajada qalin va yuzasi g'adir-budir bo'lishi kerak. Qog'ozning chekkalari buklanib ketmasligi uchun maxsus taxta (planshet)ga mahkamlab tortib qo'yish ham mumkin.

Akvarel bo'yoqlari qattiq holda taxtachalarda va yumshoq holda, tubiklarda 24 va 16 rangli to'plamlar holida sotiladi. To'plamdagи

uchtta asosiy bo‘yoq – qizil, sariq va ko‘k juda sifatli bo‘lishi lozim. Akvarel bo‘yoqlar bilan naturmort ishlaganda mayin mo‘ynali, yumaloq shakldagi, uch tomoni ingichkalashib boradigan mo‘yqalamlardan foydalanish kerak. Akvarel bo‘yoqlari bilan rasm ishlaganda qog‘oz tortilgan planshetni to‘g‘ri tutish juda muhim. Planshetni 30 gradus qiyalikda tutgan ma’qul.

Barno Azimova

Lug‘at

Nafislik – изящество

Yorqinlik – яркость

Yanchilgan – молотый

Kukun – порошок

Bog‘lovchi modda – связывающее вещество

Yelimi – клей

O‘tamoq – выполнять, исполнять

Moyno‘yoq – масленая краска

Tiniq – прозрачный

Qatlam – слой

Yurqa – тонкий

Silliq – гладкий

Tekis – ровный

Surtmoq – тереть, втирать

G‘adir-budir – шероховатый

Mahkamlamoq – прикреплять

Mayin – нежный

Mo‘yna – мех

Ingichkalashmoq – утончаться

Mio‘yqalam - кисточка

9-topshiriq. Tinish belgilarini qo‘yib, matnni ko‘chiring.

HIKOYAT

Bir o‘rdak tiniq suvda oyni ko‘rib uni baliq deb o‘yladi va suvgaga sho‘ng‘idi lekin hech narsa topolmadi Bir necha marotaba sho‘ng‘ib charchagandan keyin o‘rdak bu ishning bahridan kechdi Bir necha kundan keyin ko‘lga rosmana baliqlar suzib keldilar lekin o‘rdak har gal baliq ko‘rganda ularni oyning aksi deb o‘ylab tutib yeyisaga harakat qilmadi

Shu tariqa yanglish tajriba natijasida u och qoldi

10-topshiriq. “Yanglish tajriba”ga yana qanday misollar keltira olasiz?

11-topshiriq. Matnni o‘qing, rus tiliga tarjima qiling.

LOVIYA

Loviya - dukkaklilar oilasiga mansub bir yillik o‘simlik. Loviya yovvoyi turda uchramaydi. U juda qadim zamonlardan beri Peru, Meksika, Markaziy va Janubiy Amerika xalqlarining asosiy madaniy o‘simliklaridan hisoblanadi.

Kolumb Amerikaga safaridan bu o‘simlik urug‘larini Yevropaga keltirgan.

Loviyanadan qimmatbaho oziq-ovqat mahsuloti sifatida foydalaniлади.

Loviya donlari o'z tarkibida 20%ga qadar oqsillar, 50%ga qacar uglevodlar, 1,4-1,7% moy, vitaminlardan S, V₁, V₂, V₆, RR, karot n, pantoten kislotasi, shuningdek, kaliy, kalsiy, fosfor tuzlarini saqlaydi.

Xalq tabobatida, turli-tuman ovqatlar tayyorlashda loviyaning doni va ko'k dukkagi juda keng foydalaniadi.

“Shifobaxsh ne'matlar”dan

12-topshiriq. Quyidagi ariza bilan tanishing. Notanish so'zlar mazmunini aniqlang.

Toshkent davlat texnika universiteti
Dizayn fakulteti dekani
I.J. Maxamadaliyevga
204-guruh talabasi
Temur Kapalindan

A R I Z A

Men Samarqand shahrida o'tadigan talabalar ilmiy anjumanida ishtirok etishim munosabati bilan 2007-yil 3-4-oktyabrdagi mashg'ulotlardan ozod etishingizni so'rayman.

2007-yil 28-sentabr

T.Kapalin

13-topshiriq. Quyidagi mazmunda arizalar yozing, guruhdoshingiz rahbar sifatida arizangizga munosabat belgisini (viza) qo'yisin:

- kotiba vazifasiga, o'qituvchi (muhandis, sex boshlig'ining o'rinnbosari, provizor, kichik ilmiy xodim, hisobchi, oila shifokri, tarjimon, soliq inspektor) lavozimiga ishga qabul qilishni so'rab;
- moddiy yordam ko'rsatishni so'rab;

- talabalar turar joyidan o'rin berilishini so'rab;
- yozgi oromgohga yo'llanma ajratilishini so'rab.

14-topshiriq. Yetakchi mutaxassis nomidan korxona rahbariga ratsionalizatorlik taklifi haqida bildirgi yozing.

15-topshiriq. Talaba nomidan fakultet dekaniga topshirilgan vazifa vaqtida bajarilmagani va buning sabablari haqida tushuntirish xati yozing.

16-topshiriq. Talabalarning intizomi va davomati masalasi ko'nilgan guruh majlisi bayonnomasini yozing.

17-topshiriq. Quyidagi fe'llarning o'tgar zamondagi majhul nisbat (bo'lishli va bo'lishsiz) shakllarini hosil qiling, ular bilan gaplar tuzing. Masalan: *gapirmoq - gapirildi, gapirilmadi; Majlisda talabalar jamoat ishlarida faol ishtirok etishlari kerakligi haqida gapirildi. Aynan qanday tadbirlarni o'tkazish rejalashtirilgani haqida gapirilmadi.*

Imzolamoq, qurmoq, ajratmoq, bajarmoq, baholamoq, rioya qilmoq, amalga oshirmoq.

18-topshiriq. Quyidagi qolipdan foydalanib, firmangiz va boshqa bir tashkilot o'rtasida shartnoma tuzing.

<p style="text-align: center;">Shartnomani nomi tanit qagan</p> <p>Shartnomalizilgan /ay</p> <p>Tanitilgerni amal va tiliq nomi VA</p> <p>mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:</p> <p>1 Shartnomalizilgan maʼlumotlarning majbuliyasidan huqiqidagi mazkuliyat shartnomining canchiga misqdordagi meʼmlik ga tuzilganligi.</p> <p>2 nuzolarni keltirishda qiziq qoʻsma shartnomining amal qilish muddoti</p> <p>3</p> <p>4</p> <p>5</p>	<p style="text-align: center;">Shartnomalizilgan sanza</p>
Tanonilgeling huquqiy manzillari	
imzo, muhr	imzo, muhr

19-topshiriq. Internet va gazetalardan olingan quyidagi xabarlar bilan tanishing, ularni rus tiliga tarjima qiling.

“TURKISTON” GAZETASIDAN
YANGILIKLAR

Qishki maktab

2007-y. 6-fevral

Toshkentda Fuqarolik jamiyatini oʼrganish instituti, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati hamda siyosiy partiyalar hamkorligida faol yoshlar uchun oʼtkazilayotgan qishki maktab oʼz ishlini boshladi.

Yoshlar forumi

2007-y. 25-aprel

2006-yilning 30-martidan beri anʼanaviy tarzda oʼtkazib kelinayotgan “Yoshlar tashabbuslari forumi” toʼrtinchi bor start oldi.

Yoshlar tashabbuslari markazi — Urganchda!

2007-y. 2-may

Xorazm viloyati markazi — Urganch shahrida «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi qoshidagi «Kelajak ovozi» yoshlar tashabbuslari markazi o'z ishini boshladi.

Talabalar ilmiy anjumani

2007-y. 8-may

Toshkent farmatsevtika institutida talabalar ilmiy anjumani ru nitazam ravishda o'tkazib kelinadi. Ushbu o'ziga xos an'analarga ega anjuman bu yil 64-marotaba o'tkazildi. Mazkur anjuman o'zbek farmatsevtikasiga ko'plab yetuk olimlar, amaliyotchilarni yetkazib berishga katta hissa qo'shgan.

20-topshiriq. Tabrik, reklama, taklifnomा, tavsifnomা yozing.

21-topshiriq. Fakultetingizda bo'lib o'tgan talabalar anjumani, Alisher Navoiyga bag'ishlangan adabiy kecha, chet elliq mehmonlar tashrifi haqidа gazetaga maqola tayyorlang.

22-topshiriq. Ushbu so'zlardan gap tuzing.

Olim, so'rab, bilmaganin, orlanib, zolim, o'rgangan, so'ramagan, o'ziga.

Qo'ydi, devorga, suratni, Sevara, yopishtirib. qo'lidagi.

Bo'ladi, o'n oltinchi, indinga, mashg'uloti, xonada, o'zbek, to'garagining, tili.

Shuning uchun, musobaqaga, yaxshi, biz, jamoamiz, egalladi, tayyorlandik, o'rinni, birinchi.

Va, intizom, bugungi, gapisan, sen, haqida, majlisda, o'zlashtirish.

Dunyoqarashini, so‘z, kitob, boyligini, kengaytiradi, ko‘p, kishining, oshiradi, o‘qish, va.

Orqali, qon, barcha, yurak, tanasidagi, o‘tadi, odamning.

Atlas, burildi, kiygan, qiz, ko‘chaga, ko‘ylak, tor.

23-topshiriq. Muxbir sifatida fakultetingiz dekani, universitet kutubxonasi boshlig‘i, o‘qituvchingiz, bitiruvchi kurs talabalaridan jurnalningiz (telekanalingiz, internet saytingiz) uchun “intervyu o‘ing”. Uni rollarga bo‘lib o‘qing.

24-topshiriq. Ruscha o‘zlashtirma gaplarni ko‘chirma gapga aylantirib tarjima qiling va suhbatni daftaringizga yozing.

- Salom, Nigora, ishlaringiz yaxshimi?
- Salom, Bahodir. (Скажите, что вы рады его видеть)
- Kecha loyihamizning taqdimotida ko‘rinmadingiz?
- (Объясните, что были больны и очень жалеете, что не смогли попасть на презентацию. Спросите, как она прошла)
- Juda qiziqarli o‘tdi. Mehmونlar loyiha bo‘yicha ko‘p savollar berishdi. Ularni ayniqsa, istiqboldagi rejalarimiz qiziqtirdi. Hatto bitta shartnoma ham imzoladik.
- (Просите, были ли гости из Японии и Сингапура)
- Yo‘q, asosan Yevropa davlatlarining vakillari, rossiyaliklar va o‘zimizning tadbirkorlar qatnashdi.
- (Узнайте, можно ли посмотреть видеозапись презентации)
- Ha, albatta. Balki birga ko‘rarmiz?
- (Согласитесь. Пожелайте всего хорошего, попрощайтесь)

12. BARKAMOLLIK SARI

1-topshiriq. Matnni o'qing. Unga sarlavha toping.

Erkin, ma'rifatli va demokratik davlat fuqarolari quyidagi ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi kerak:

- aqli – mustaqil fikr yurita oladigan;
- odobli – xalqimiz to'plagan barcha fazilatlarga ega;
- mehnatsevar – mehnat orqali baxt topish mumkinligini tushungan;
- bilimli – diriy, dunyoviy va fazoviy bilimlarni ko'p va chuqur egallab, ularni hayotda qo'llay oladigan;
- sog'lom – jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomat;
- milliy g'ururga ega – ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy merosini egallab, ular bilan faxrlanadigan va ularni boyitishga hissa qo'shadigan;
- vatanparvar – vatan, xalq uchun zarur bo'lsa jonini qurban qiladigan;
- baynalmilal – o'z millati qatorida boshqa millatlarni hurmat qiladigan;
- insonparvar – inson zotiga faqat yaxshiliklar tilaydigan va ezuishlar qiladigan;
- jasur va shijoatli – har bir ishga mardona kirishib, uni shijoat bilan oxiriga yetkazadigan.

B.Ziyornuhamedov, Sh.Abdullayeva

Lug'at

Sifat, fazilat – качество

Faxrlamtoq – гордиться

Qurban qilmoq – жертвовать

Baynalmilal – интернациональный, интернационалист

Shijoatli – храбрый, отважный

2-topshiriq. Komil inson qanday bo‘lishi kerakligini ayting.

3-topshiriq. Quyidagi so‘z va birikmalar ishtirokida bog‘lanishli matn tuzing.

Aqli, odobli, mehnatsevar, bilimli, sog‘lom, milliy g‘ururga ega, vatanparvar, baynalmilal, insonparvar, jasur.

4-topshiriq. Matnni o‘qing. Notanish so‘zlar ma’nosini izohlang.

BILIM - AQL BULOG‘I

Dono xalqimizda “Bilmaganin so‘rab o‘rgangan - ol.m”, “So‘raganning aybi yo‘q”, “So‘ragandan so‘ramagan yomon”, “So‘rab-so‘rab Makkani topibdi”, “Ko‘p yurganga ergashma, ko‘p bilganga ergash” degan hikmatli gaplar bor. Demak, bilmaganini so‘rab olish to‘g‘ri yo‘lni topish, ko‘zlangan maqsadlarga erishishning zaruriy shartidir.

Har bir ilmnинг o‘z o‘rni, o‘z ahamiyati bor. Biroq bar‘cha ilmlarni mukammal egallab olishning iloji yo‘q. Shuning uchun ham hayotda ko‘proq kerak bo‘ladigan ilmlarni o‘rganish zarur.

Odobnomidan

5-topshiriq. Ayting-chi, siz uchun “hayotda ko‘proq kerak bo‘ladigan ilmlar” qaysi, ularni qanday qilib egallamoqchisiz?

6-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga kerakli harflarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Me’...r tabi...tning y...ldoshi, sog‘li...ning po...bonidir.

Me’yorda... o...sa ...ar qanday xatti-...arakat foydadan k...ra ko‘pro... zarar kelt...radi.

Yom...ir darax... g‘uborini ...vganiday, badantarbi... badan g‘ubor...ni tozal...ydi. (“Tafakkur gulshani”).

Ya...shi fazilatlarga erishmoq...i b...lgan odam ya...shi xislatlarga qarshi turgan illatlarni ...o‘q qilishga intilish... zaru... . (Forobiy)

7-topshiriq. Internetdan foydalanib, o‘z mutaxassisligingiz bo‘yicha masofaviy o‘qitish kurslari to‘g‘risida axborot tayyorlang.

8-topshiriq. Matnini o‘zbek tiliga tarjima qiling, rollarga bo‘lib o‘qing.

ЭЗОП И ПУТЕШЕСТВЕННИК

Однажды баснописец Эзоп встретил в поле путешественника, который спросил его, далеко ли до ближайшей деревни.

- Иди, - сказал ему Эзоп.

- Я и сам знаю, что нужно идти, но скажи мне, когда я приду туда?

- Иди, - опять сказал ему Эзоп.

«Наверное, это сумасшедший», - подумал путешественник и пошел дальше. Через несколько минут Эзоп крикнул ему:

- Ты будешь там через два часа.
- Почему же ты сразу не ответил на мой вопрос?
- Потому что я не знал, как ты ходишь, - ответил Эзоп.

9-topshiriq. Matndagi ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantiring.

Masalan: – *Yuraver, - dedi unga Ezop. – Ezop unga yuraverishini aytdi.*

10-topshiriq. Donolar o‘gitlarini o‘qing.

Donolar o‘giti

Taraqqiyot tarixini olti so‘z bilan ifodalash mumkin: qancha ko‘p bilsang, shuncha ko‘p qodirsan.

E. Abu

Narsalar qanday bo‘lmog‘i lozimligini bilish aqli odamga xosdir; narsalarning haqiqatda qandayligini bilish tajribali odamga xos; narsalarni yanada takomillashtirishni bilish buyuk odamga xos.

D. Didro

Sizni ulug‘likka undaydigan hech bir narsaga e’tiborsiz bo‘lmang.

Stendal

Bilim - barcha kulfatlarga qalqon.

A.Rudakiy.

Bilganlarimizning chegarasi bor, bila olmagan narsalarimizning esa cheki yo'q.

P.Laplas

Bilimga eltuvchi yagona yo'l bu faoliyatdir.

B.Shou

11-topshiriq. Kechagi kunni qanday o'tkazganingiz haqida gapirib berling. Kecha o'zingizga va atrofdagilarga qanday foyda keltirganingizni tahlil qiling. Siz jamiyatda qanday o'rinn tutishingiz to'g'risida o'zingizning va do'stlaringizning fikrlarini yozing.

12-topshiriq. Matnni o'qing. Uni qayta so'zlash uchun reja tuzing.

TENGSIZ NAVOLAR SOHIBASI

Berta Davidova navolari – mumtoz san'atimizda, maqom ijrochiligida alohida bir olam, betakror bir go'zallik, atri, tarovati harrisha xush bo'y sochib turgan bir san'at guldastasi. Berta Davidova shunday san'atkorki, uning faqat qalbi, ovozigina kuylamaydi, balki farg'onacha milliy ayollar libosidagi go'zal vujudi, nafis qiyiqcha ostida kulib turgan malohatli chehrasi ham yonib kuylaydi. Bunday holatning o'zi ibratlari. Bizningcha, san'atimizdag'i hozirgi yoshlar el oldida o'zini tutishni bu ustoz san'atkordan takror va takror o'rgansalar arziydi.

Bertaxonim Davidova yoshlar uchun yana bir jabhada o'ta ibratlari san'atkordir. Biz uning cheksiz vatanparvarligini nazarda tutyapmiz. U televideniye orqali o'zi va taqdiri to'g'risida hikoya qilar ekan

«Men O'zbekistonning bir hovuch tuprog'ini dunyoning bor boyligiga almashinayman», - dedi. Bu so'zlarni Bertaxonim Davidova o'zining butun umri, fidoyi hayoti, betakror san'ati bilan tasdiqladi. Xonanda g'oyatda go'zal ijrochilik iste'dodini, xush ovozini o'zbek milliy maqom san'atining jozibalarini ko'rsatishga bag'ishladi. Navoiyga bag'ishladi, Muqimiya bag'ishladi, boshqa buyuk shoirlarning g'azaliyoti targ'ibotiga baxshida etdi. Agar, bordi-yu, Navoiy bobornizga o'zi yaratgan «Kecha kelgumdir debon...» kalomlari bilan boshlanuvchi g'azalini Berta Davidova ijrosida eshitish nasib qilganida edi, mutafakkir bobokalonimiz – faqat birgina shu voqe'a sabab shoirligidan behad va behad mamnun his etardilar o'zlarini. Haqiqiy iste'dod – ana shunday kuch-qudrat!

“Xalq so'zi”, 2005-y. 30-dekabr

Lug'at

Navo – музыка, мелодия

Sohiba – обладательница

Mumtoz – классический

Tarovat – свежесть; очарование

Guldasta – букет

Vujud – всё существо, тело

Qiyiqcha – вышитый пояс

Chehra – лицо

Ibratli – поучительный, примерный

Jabha – область деятельности

Cheksiz – безграничный

Hovuch – горсть

Tuproq – здесь: земля

Ijrochilik iste'dodi -- исполнительский талант

Joziba -- привлекательность

Nasib qilganida edi – если бы довелось

Behad – безмерно

Mannun – довольный

13-topshiriq. Savollarga javob bering:

Bugungi kunda o‘z bilimi, iqtidori, mehnati tufayli elga tanilgan insonlardan kimlarni bilasiz?

Kimga o‘xshagingiz, taqlid qilgingiz keladi, nima uchun?

Siz jamiyatda munosib o‘rin egallashingiz uchun, hurmat va obro‘ qozonishingiz uchun nimalar qilishingiz kerak?

Atrofingizda, kichik bo‘lsa-da, foydali mehnat qilib, boshqalarga yordam berayotgan, o‘rnak bo‘layotgan, har kuni o‘z vazifasini sidqidildan bajarib kelayotgan odamlar haqida nima deya olasiz?

Agar shu insonlar o‘z ishini qilmay qo‘ysa, nima o‘zgaradi?

“Har bir odamning qadriga yetish kerak” deganda nimani tushunasiz?

14-topshiriq. “Nonning dasturxonacha bo‘lgan yo‘li” mavzusida kichik hikoya tuzing.

15-topshiriq. Nuqtalar o‘rnini to‘ldirib, bog‘larishli matn tuzing.

Alisher Sobirovich, Xayri Malikovna, Klara Murodovna, Ergash Quvondiqovich, Omonjon Hakimovich, Davronbek Ashurovichlar kafedraning yetakchi professor-o‘qituvchilaridandir. Ularning ... foydalananadilar. ... , ilmiy tadqiqotlar... . Ayniqsa, ..., ..., ... fanlari

bo'yicha shogirdlar Biz ... faxrlanamiz va ... , ... harakat qilamiz.

16-topshiriq. Savollarga javob bering:

Gazeta o'z o'quvchisining qo'liga yetib borgunicha, qaysi mutaxassislar qanday ishlarni bajarishi talab qilinadi?

Sizningcha, talabalarga darslik tayyorlash uchun ishni nimadan boshlab nima bilan tugatish lozim? Kitob kimlar mehnatining mevasi?

Teleko'rsatuv (radioeshittirish) o'z muxlisining uyiga kirib borishi uchun qaysi kasb vakillari qanday faoliyat yuritishlari lozim?

Toza paxtadan tikilgan kiyimni kiyishni yoqtirasizmi? Qanday qilib keng daladagi paxta egningizdagи xushbichim ko'ylakka aylandi?

17-topshiriq. Ushbu javoblarga mos savollar tuzing.

- ... ?

- Ha, yaxshi bilaman.

- ... ?

- Seshanba va payshanba kunlari.

- ... ?

- Yo'q, aytmoqchi emasman. Uning kayfiyatini buzgim kelmayapti.

... ?

- Harakat qilaman, lekin va'da bermayman.

- ... !

18-topshiriq. Maqollarni ruscha muqobili bilan daftaringizga ko'chiring.

1. Yiqilgan kurashga to'ymas. Teshik qulqoq eshitmay qolmaydi. Osilsang, baland dorga osil. Oshing halol bo'lsa, ko'chada ye. Bulbul chammanni sevar, odam – vatanni. Rejasiz ish – qolipsiz g'isht. Ya'xshilikning erta-kechi yo'q. Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin. Nodonga javob – sukut. O'zingda yo'q – olamda yo'q. O'zingni er bilsang, o'zgani she'r bil. Qo'shning tinch – sen tinch. Burgaga jahl qilib ko'rgani kuydirma. Podadan oldin chang chiqarma. Hovli olma, qo'shni ol. Ko'p gap – eshakka yuk.

2. У соседа мир – у тебя покой. Выбирай не дом, выбирай соседей. Осерчав на блоху, не спали одеяла. Не пыли наперед. пока стадо не пройдет. Коли счел себя джигитом – посчитай другого львом. Если вешаться задумал, выбирай чинару повыше. Нет у тебя – нету на свете. Тот, кто побит, дракой не сыт. В ухе дырка есть – не упустит весть. Лишние слова – груз и для слона. Ответ глупцу – молчание. Доброе дело не опоздает. Необдуманное дело как кирпич без формы. Ежели честно добыл еду, можешь кульгать у всех на виду. Соловей любит розу, человек – родину. Даже воробья пусть режет мясник.

Aleksandr Naumov tarjimasi

19-topshiriq. “O'zbek tili” fanidan egallagan bilim va ko'nikmalarining haqida kichik matn yozing. Bunda davlat tilida qar day amallarni bajara olishingiz, kelgusi kasbiy faoliyatizingizda bu bilim va ko'nikmalar sizga qanchalik yordam berishini yoriting.

20-topshiriq. She'mni o'qing. Notanish so'zlarning ma'nosini aniqlang. Siz ham o'quv yili yakunlarini sarhisob qiling, kelgusi rejalar haqida suhbatlashing.

Kel, ey, quvlashgancha kelar so'nggi dam,
Universitet yillari qolmoqda ortda.
O'rniga qo'yaylik, dugonaginam,
So'nggi sho'xliklarni bu erkin yurtda.
Bulutsiz tonglardan bo'larmi kechib,
Unut bo'larmi hech yarqiragan kun?!
Biz istamay yoshlik libosin yechib,
Balog'at libosin kiyamiz bugun.

Sirli suhbatlardan ogoh yotoqda,
So'nggi sirlashuvlar ko'ngilni yozsin.
Taqdir oppoq tole ulashar choqda,
Sening peshonangga muhrini bossin.
Ertangi xayrli tashvishlar, mayli,
Bezovta qilmasin buguncha bizni.
Bugun o'ylamaylik ish, turmush zaylin,
Va qurilgusi uy, ro'zg'orimizni.

Yaqinlashib borar qirg'oqqa kema,
Dengizda sayrimiz bo'lmoqda oxir.
Yurakka titroqlar solar bir nima,
Garchand titroq bilan kuylamoq og'ir.
Amme kuylamoq shart, kuylash dard bilan,
To bu qo'shiq umri topmasin zavol.
Taqdir uchrashtirsin seni mard bilan,
So'ng ham erkin yasha, talaba misol.

Halima Xudoyberdiyevadan

TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH UCHUN TAVSIYALAR

Referat uchun mavzular

O‘zbek yozuvi tarixi

O‘zbek tilida kelishiklar

Ko‘makchi va predlog

Shaxsiy gigiyena – tozalik garovi

O‘zbekistonlik jahon championlari

Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab

Foydali maslahatlar

O‘zbekistonning diplomatik munosabatlari

Olamning yetti mo‘jizasi

Hozirgi o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalari

Vazifalar

Mahalliy shevalarga oid so‘zlar lug‘atini tuzish

Ikki til bo‘yicha ixtisoslikka oid atamalar lug‘atini tuzish

Ixtisoslikka oid atamalarning izohli lug‘atini tuzish

...

Turli mazmunda e’lonlar yozish

Mehnat shartnomasini tuzish

O‘qib chiqilgan asardagi timsollarga tavsifnomalar yozish

Turli mazmunda arizalar yozish

«Omonimiya asosida yaratilgan hazil-mutoyiba, latifalar» mavzusida matn tayyorlash

Qo'shma gaplarning tuzilishini chizmada tasvirlash

Berilgan mavzuda radiolavha tayyorlash

Insho uchun mavzular

Men nechun sevaman O'zbekistonni

Muhabbat nima?

Usta xonasida

Mening orzularim

Talaba va kompyuter

Do'stimning fazilatlari

Men sevgan sport turi

Vaqt mashinasida ...ga sayohat qilar edim

Mening mahallam

Mening qiziqishlarim

Bahs-munozara va ta'limiylar o'yinlar uyushtirish uchun mavzular

O'tmishsiz kelajak bo'lmaydi

Talaba va omrnaviy axborot vositalari

O'zbek estradasi yulduzlari

O'zbek milliy taomlari

Ifavot mening tasavvurimda

Jannat onalar oyog'i ostida

Yiqqanlaringiz emas, sochganlaringniz beqiyidir

Hozirgi yoshlari

Kasbiy tayyorgarlik bo'yicha «Quvnoqlar va zukkolar» bellashuvi

O'zbek tilida notiqlik san'ati bo'yicha musobaqa

ADABIY-BADIY MATNLAR

O'ZBEGIM

qasida

Tarixingdir ming astlar ichra pinhon, o'zbegim,
Senga tengdosh Pomir-u oqsoch Tiyonshon, o'zbegim.
So'y lasin Afrosiyob-u, so'y lasin O'rxun xati,
Ko'hna tarix shodasida bitta marjon, o'zbegim.
Al Beruniy, al Xorazmiy, al Forob avlodidan,
Asli nasli balki O'zluq, balki Tarxon, o'zbegim.
O'tdilar sho'rlik boshingdan o'ynatib shamshirlarin
Necha hoqon, necha sulton, necha ming xon, o'zbegim.
Tog'laring tegrangda go'yo bo'g'ma ajdar bo'ldi-yu,
Ikki daryo – ikki chashming, chashrni giryon, o'zbegim.
Qaysari Rum nayzasidan bag'rida dog' uzra dog',
Chingiz-u Botu tig'iga ko'ksi qalqon, o'zbegim.
Yog'di to'rt yondin asrlar boshingga tiri kamon,
Umri qurban, mulki torej, yurti vayron, o'zbegim.
Davr zulmiga va lekin bir umr bosh egmagin,
Sen – Muqanna, sarbador – sen, erksevar qon, o'zbegim.
Sen ne zardusht, sen na buddiy, senga na otash sanam,
Odamiylit dini birla toza imon, o'zbegim.
Ma'rifatning shu'lasiga tolpinib zulmat aro
Ko'zlarining oqdi tunlar kafkabiston, o'zbegim.
Tuzdi-yu Mirzo Ulug'bek Ko'ragoniy jadvalin,
Sirli osmon toqiga ilk qc'ydi narvon o'zbegim.
Mir Alisher na'rasiga aks-sado berdi jahon

She`riyat multkida bo`ldi shoh-u sulton o`zbegim.
Ilm-u she'rda shohu sulton, lek taqdiriga qul.
O'z elida chekdi g`urbat zor-u nolon, o`zbegim.
Mirza Bobur – sen, fig`oning soldi olam uzra o't,
Shoh Mashrab qoni senda, urdi tug`yon, o`zbegim.
She`riyatning gulshanida so`ldi mahzun Nodira,
Siym tanni yuvdi ko'z yosh, ko'mdi armon, o`zbegim.
Yig`ladi furqatda Furqat ham muqimlikda Muqiyim.
Nolishingdan hind-u afg'on qildi afg'on, o`zbegim.
Tarixing bitmakka, xalqim, mingta Firdavsiy kerak,
Chunki bir bor chekkan ohing mingta doston, o`zbegim.
Ortda qoldi ko'hna tarix, ortda qoldi dard, sitam,
Ketdi vahming, bitdi zahming, topdi darmon, o`zbegim.
Bo`ldi osmoning charog'on tole xurshidi bilan,
Bo`ldi asriy tiyra shoming shu'la afshon, o`zbegim.
Men vatanni bog' deb aytsam, sensan unda bitta gul.
Men vatanni ko'z deb aytsam, bitta mujgon o`zbegim.
Faxr etarman, ona xalqim, ko'kragimni tog' qilib,
Ko'kragida tog' ko'targan tanti dehqon, o`zbegim.
O`zbegin deb keng jahonga ne uchun madh etmayin!
O`zligim bilmoqqa davrim berdi imkon, o`zbegim.
Men buyuk yurt o'g`lidurman, men bashar farzandiman.
Lekin avval senga bo`lsam sodiq o'g`lon, o`zbegim.
Menga Pushkin bir jahon-u, menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor, ko'ksim osmon, o`zbegim.
Qayga bormay boshda do'ppim, shuhratim, qadrim buyuk.
Olam uzra nomi ketgan O`zbekiston. o`zbegim.

Bu qasidam senga, xalqim, oq sut-u tuz hurmati,
Erkin o'g'lingman, qabul et, o'zbegim, jon, o'zbegim!

Erkin Vohidov

SHAHRIMIZ TARIXI

Hojiyev muallimning aytishlaricha, Surxandaryo qadimda, etamizdan avval madaniyat va san'atning eng rivojlangan markazlaridan biri bo'lgan. Lekin bosqinchilar uni shunchalik xarob qi ganki, u asrlar davomida o'zini o'nglay olmagan.

Xullas, Iskandar yurish qilib kelayotganida, Denovning ustidan o'saverib, tog'lar orasida joylashgan Sangardagimizni ko'rib qolgan. Sangardak shunday go'zal ekanki, uni tor-mor qilishga Iskandarning ke'zi qiymagan. Shuning uchun taslim bo'linglar, deb odam yuborgan. Biznikilar esa taslim bo'lmasagan. Keyin Iskandar hujum beshlagan. Biznikilar daraning og'zida ularning yo'llini to'sib olib, bittasini ham yaqin yo'latmagan. Boshqa yodqa yo'l yo'q edi. Uch taraf – tog'. Tog'lar qal'a devorlari emaski, yov ularni mashinalari bilan ag'darib kirsa.

Jang ko'p kunga cho'zilgan. Iskandarning yonida yurgan tarixchisi Arriyaning yozishicha, Iskandar butun yurishi davomida birinchi marta shu yerda eng kuchli to'qnashuvga duch kelgan ekan. Keyin noiloj qolib, Gretsiyaning o'zida tog'larda yurish uchun maxsus tayyorlangan qismini ishga solgan. Ular bir necha kun davomida tog'ni aylanib o'tib, tepadan kelganlar va shaharni kungayakun qilganlar.

Obod bir shahar o‘rnida kultepa paydo bo‘lib qolgan. Shundan keyin shahrimizni Yetimtepa deb atay boshlaganlar. Hozir mana shu ikki gektarlik tepalikni Yetimtepa deb ataydilar.

Sh.Xolmirzayev

Qushday uchib quchog‘ingdan dunyo kezdim.
Kezib-kezib topganlarim sog‘inch bo‘ldi.
Qancha olis ketsam, shuncha qadring sezdim.
Qayda yursam yod-u mehring ovunch bo‘ldi.
Aylanayin qora qosh-u ko‘zingdan-a,
O‘zingdan qo‘ymasin, xalqim, o‘zingdan-a!
Boldan shirin patir qora bug‘doying ham,
O‘zingdan bo‘lsa gar shoh-u gadoying ham.
Bir tan-u jon bir-biringdan rozi yursang,
Xudoying ham sendan rozi, xudoying ham.
Gohi ipak, gohi yaktak bo‘zingdan-a,
O‘zingdan qo‘ymasin, xalqim, o‘zingdan-a!

Muhammad Yusuf

MAJNUNTOL.

A.Ergashev musicasi

I.Jiyanov she’ri

Shoxlarini egib majnuntol
Yo‘l bo‘yida o‘sardi yolg‘iz,
Menga tinchlik bermas bir xayol,
Bu xayoldan bexabardirsiz.

Naqarot:

Majnuntoining shoxlari asli
Mening qaro sochlarim edi
Siz boqmasdan o'tib ketdingiz,
Afsus qilib qolursiz endi.

Bu dunyo keng, manzillar olis,
Yo'lingizni hech kim to'smaydi.
Ammo boshqa daraxt hech joyda
Shoxlarini egib o'smaydi.
Naqarot.

REKLAMA SHIORI

Devid Ogilvi reklama shiori(slogan)ga quyidagicha ta'rif beradi: shior bu reklama e'lonining eng asosiy elementi bo'lib telegramma kabidir. Insonlar shior orkali reklama matnining davomini o'qish yoki o'qimastikni hal qiladilar.

Reklama bo'yicha yana bir mutaxassis R.Riv: fikricha, iste'molchi reklama matnidan faqat bir aniq isbot yoki bir yorqin fikrni esda qoldiradi. U M&M shokoladi uchun reklama shiorini yaratgan. «Тают во рту, а не в руках» (Og'izda eriydi, qo'lida emas). Bu bilan u reklama qilinayotgan shokoladning eng asosiy xususiyatlaridan birini shior sifatida tanlaydi, ya'ni shokolad ustidan qiyom quyilganligi uchun qo'lida erimaydi.

Umuman, shior - bu qisqa ifodali tasviriy vosita, aforizm. Shiorlardan barcha reklama turlarida foydalaniлади. Shiorning

asosi bu uning inson psixologiyasiga doimiy ravishda ta'sir ko'rsatadigan kalit so'zlaridir. Masalan, yangi, bepul, hayot, samarali, tabiiy, arzon kabi.

Shiorda baxt, farovon hayot, orzular ushalishining va'da qilinishi ifodalanishi kerak.

Strukturasi bo'yicha shiorlarni 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Bog'langan — bunda tovar nomi ishtirok etadi. Har doim Coca-Cola

2. Uyg'unlashgan — tovar nomi bilan ritmik va fonetik uyg'unlikda bo'ladi: Alyumag-oshqozonga ko'mak; "Ermak" - bu foydali, mazali va toza demak; Muza bilan siz - betakor pazandasiz.

3. Erkin - tovar markasi alohida qo'llaniladi: Nescafe, hammasi yaxshilikka. Nestle. Musaffo hayot davri keldi!

4. Shior reklama g'oyasini aks ettirib, quyidagilarni ifodalaydi: hayotga undash - Olg'a! Chegirmalar mavsumi boshlandi! Sotib oling! - Iching va rohatlaning! SIBUR.

Ijobiy fikrni beruvchi emotsional bo'yoqdor so'zlar reklama qilinayotgan tovardan lazzatlanishga chorlaydi, masalan, lotereya reklamasi klipida yoshi katta ayol va erkak o'rindiqda o'tiribdi. Erkak ayolga lotereya beradi va teleekranda quyidagi shior paydo bo'ladi. Sevgi yosh tanlamaydi.

Ba'zan shiorlarda tovar bilan mavzu bog'lanmagan ham bo'ladi. Shior odatda qiyoslanish orqali ifodalanadi: O'zing hal qil. Chanqog'ingga ishon! Sprite!

Xulosa shuki, shior tuzish o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, ayni jarayonda yaratilgan muvaffaqiyatli, ta'sirli

shiorlar shunchaki chiroyli so‘zlar yig‘indisi emas, balki samarali mehnat natijasidir.

Sh. Yunusova

MAHMUD KOSHG‘ARIY

Mahmud ibn Muhammad Koshg‘ariy XI asrda yashab ijod etg‘an. Uning hayoti va ijodi haqida yetarli ma’lumot saqlanib qolmag‘an. Uning tug‘ilgan va vafot etgan yili ham noma’lum. Onasi Husayn Koshg‘ardagi Beregan shahridan bo‘lgan.

Koshg‘ariylar oilasi Bolosag‘un(hozirgi Kirg‘izistonning To‘qmoq shahri)ga ko‘chib kelishganda, Mahmud yosh bola edi. Be‘lajak olim, tilshunos va insoniyat tarixi, madaniyatining ixlosmandi mакtabda arab, fors tillarini chuqur o‘rganadi. U xalq ya‘atgan hikmatli so‘z, maqollarni yodlab yurar edi.

Mahmud Koshg‘ariy turkiy xalqlar tarixi, tili, urf-odatlari ni puxta o‘rganish maqsadida butun O‘rtta va Kichik Osiyon kezib chiqdi. U «Javohirun nahvfi lug‘ati turk» («Turkiy tillarning yetakchi durdonalari») va «Devonu lug‘atit turk» asarlarini yozgan. Uning birinchi asari hozirgacha topilmagan.

1076-77-yillarda yozilgan «Devonu lug‘atit turk» asarida O‘ta Osiyo xalqlarining tarixi, madaniyati, ta’lim-tarbiyasi, urf-odatlari, rasim-rusmlarinnng izohi bilan 300 dan ortiq she’riy parchalar, maqollar, hikmatli so‘zlar va lavhalardan namunalar beriladi.

Bu asar arab, rus, ozarbayjon hamda o‘zbek tiliga tarjirna qilingan. «Devonu lug‘atit turk» asari ilmiy, tarixiy va tarbiyaviy qimmatga egadir. Asardan namunalar:

1. Suk, odamlar mulkka intilar, o'limtikka tashlangandek quzg'unlar. 2. Mol-u mulking ko'paysa, mag'rurlanib quturma. 3. Odobning boshi — til. 4. Olim kishi so'zidan olgin o'git, yaxshi so'zlar ta'siri dilga singar.

ЕСЛИ В МИРЕ ТЫСЯЧА МУЖЧИН

Если в мире тысяча мужчин
Снарядить к тебе готовы сватов,
Знай, что в этой тысяче мужчин
Нахожусь и я – Расул Гамзатов.

Если пленены тобой давно
Сто мужчин, чья кровь несется с гулом,
Разглядеть меж них немудрено
Горца, нареченного Расулом.

Если десять влюблены в тебя
Истинных мужей, огня не спрятав,
Среди них, ликуя и скорбя,
Нахожусь и я – Расул Гамзатов.

Если без ума всего один
От тебя, не склонная послам,
Знай, что это – с облачных вершин
Горец, именуемый Расулом.

Если не влюблен в тебя никто

И грустней ты сумрачных закатов,

Значит, на базальтовом плато

Погребен в горах Расул Гамзатов

MAQOLLAR

Yer — xazina, suv — oltin. Jahl — dushman, aql — do'st. Otala so'zi — aqlning ko'zi. Yaxshining so'zi — qaymoq, yomonning so'zi — to'qmoq. Til — yurakning kaliti. O'rinsiz g'azab — o'zingga azob. Kamtarlik — kishining bezagi. Yaxshi niyat — yarim mol. El rozi — ota-oni rozi, ota-oni rozi—el rozi. Ona bilan bola— gul bilan lola. Uy — egasi bilan aziz. Sayohat — yaxshi hordiq.

KUZ

Bo'ston qishlog'iga og'ir-vazmin qadarnlar bilan kuz kirib keldi. Chor-atrof yaproqlarning mungli shivir-shiviriga to'ldi. Qishloqni halqaday o'rab oqayotgan anhor birdan tiniqlashdi. Telba to'lqinlar endi jilovlanib, yuvosh tortib qoldi.

Odamlar qilichini ko'tarib kelayotgan qishdan cho'chiganday, shosha-pisha harakatga tushdilar. Kimdir chor bog'idan o'tin arraladi, kimdir qo'shnisining tomsuvog'iga hasharga chiqdi.

Hamma yagona bir tashvish — kuz tashvishi bilan, turib, kuz tashvishi bilan yotadigan bo'ldi.

Faqat bitta hovlida — qishloq chekkasidagi shundoqqina anhor yoqasida joylashgan hovlida sukunat hukm surar, faqat bir kishi o'z tashvishi bilan edi.

Alimardon o'z ovozidan o'zi cho'chib uyg'onib ketdi. Anchagacha qayerda yotganini bilolmay, ko'zlarini katta-ka ta ochgancha shiftga tikilib qoldi. A'zoyi badani o't bo'lib yonar, peshonasini muzday ter bosgan, bir tutam sochi ter aralash qoshlariga yopishib qolgan edi.

O'tkir Hoshimov

TABIAT QO'YNIDA

Riza tepalikka chiqib borganda bir tekis ochilgan binafsha, har xil o't-o'lanlar, purviqor archaler quyosh nuriga bearmon cho'milmoqda edi. Ertalabki ovga chiqqan bir tulki bu yerda bevosdan paydo bo'lib qolgan odamdan cho'chib, o'zini daraxt ichiga urdi. Mana, ochiq joy tugab, archazor boshlandi. Riza archazorga sho'ng'ib, narigi betidan chiqdi. Ikki hatlab, qiyalikda tur'gan kattakon xarsangga yetdi. Xarsang silliq edi. Riza xarsang ustiga o'tirib, atrofii tomosha qila boshladi. Uning oldiginasidan boshlanuvchi jilg'a kengaya-kengaya Oqsoqota soyiga borib tushadi. Hu, ana, tubanda shamolda hilpirab turgan oq lentaday Oqsoqota soyi oqmoqda.

Xarsangning tagidan tip-tiniq buloq viqir-vicir qaynab chiqmoqda. Buloq tubidagi oq, qizil, ko'k; turli-tuman mayda to'shlarning rangi suvgaga urib, jimir-jimir tovlanadi. Zilol suvli bu buloqni Ko'zyoshibuloq deb ataganlari qiziq. Balki qadimda zolimning zu'lmidan jafo chekkan, necha-necha qashshoq, yupun cho'ponlar o'ksib-o'ksib, yurak g'ussalarini shu buloqda to'kkandirlar. Shuning uchun ham uni Ko'zyoshibuloq deo atashganmikin?

Riza xarsang ustidan irg'ib tushib, apir-shapir yuvina boshladi. Ertalabki salqin va muzdek suvdan qaltirab ketdi. Shundayam yuvininib bo'lgach, buloqning naq ko'zidan bir hovuch suv olib ichdi, ko'zlarini o'ynatib, rohat qilganday «O-oh!» deb qo'ydi. Unga bu odad — ota meros. Rahmatli dadasi har kuni ertalab shu buloqqa kelib, muzday suv ichar edi. «Buloq suvi - dori, yurakning issig'ini oladi» der edi otasi.

Sadriddin Ayniy

FOYDALANISH UCHUN NAZARIY MATERIALLAR

O T

Egalik kategoriyasi

Birlik:

1-shaxs. Kitob + im – kitobim, ota + m – otam

2-shaxs. Kitobing, otang

3-shaxs. Kitobi, otasi

Ko‘plik:

1-shaxs. Kitobimiz, otamiz

2-shaxs. Kitobingiz, otangiz

3-shaxs. Kitob(lar)i, otasi, otalari

yurak + im - yuragim

qishloq + im – qishlog‘im

o‘g‘il + im - o‘g‘lim

burun + im – burnim

shahar + im – shahrim

(biroq: yuraklari, qishloqlari, o‘g‘illari, burunlari, shaharlari; idrokim, ishtirokim, ishtiyoyqim, peshtoqi)

Kelishik kategoriyasi

Bosh kelishik: daraxt, oila

Qaratqich kelishihi: daraxtning, oilaning

Tushum kelishihi: daraxtni, oilani

Jo'nalish kelishigi: daraxtga, oilaga
O'rinn-payt kelishigi: daraxtda, oilada
Chiqish kelishigi: daraxtdan, oiladan

Daryoning suvi - daryo suvi,
Shaharning ko'chalari - shahar ko'chaları,
Kitobni o'qidi - kitob o'qidi
Ariqni qazishdi - ariq qəzishdi

Son kategoriyasi

- lar qo'shimchasining ma'nolari:
ko'plik ma'nosi – binolar, talabalar, davlatlar;
Zafar, Sabohat, Odiljonlar
Furmat ma'nosi – Ammamlarning ismlari – Manzura;
kesatiq, piching ma'nosi – O'zлari kelibdilar-da;
kuchaytirish ma'nosi – Yuraklarim qon bo'lib ketdi;
noaniqlik ma'nosi – Kunduzlari havo issiq bo'ladi.

Otlarning yasalishi

Sodda otlar: *-chi* ishchi, *-dosh* yurtdosh, *-gar* komyogar, *-kor* san'atkor, *-bon* bog'bon, *-dor* mulkdor, *-shunos* adabiyotshunos, *-kash* qalamkash, *ham-* hamxona; *-don* tuzdon, *-gich* kavlagich, *-gi* supurgi, *-k* elak, *-q* taroq, *-ma* bosma, *-m* to'plam; *-zor* o'rikzor, *-iston* Qoraqalpog'iston. *-goh* o'yingoh, *-xona* yotoqxona; *-lik* yaxshilik, *-chilk* uzumchilik, *-garchilik* odamgarchilik.

Qo'shma otlar: ko'zoynak, xontaxta, gultojixo'roz, Qoraqamish, Oltiariq, Yuqori Chirchiq.

Juft otlar: ota-bola, tog‘a-jiyan, amma-xola, do‘sst-birodar, baxtsaodat, uy-ro‘zg‘or, pul-mul, gul-u lola.

Kichraytirish va erkaloush qo‘shimchalari

-*cha*, -*chak*, -*gina*, -*jon*, -*xon*: qizcha, kelinchak, bolaginam, akajon,
Asalxon

Qisqartma otlar

BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), O‘zFA (O‘zbekiston Fanlar
akademiyasi), TATU (Toshkent axborot texnologiyalari universiteti),
IIB (ichki ishlar boshqarmasi)

S I F A T

Sifatlarning yasalishi

Sodda sifatlar: -*hi* bilimli, -*siz* shafqatsiz, -*iy* tarixiy, -*gi* kechagi,
ser- sergap, *be-* befoya, -*chan* harakatchan, -*dor* yelkador; -*ma*
qaynatma, -*g‘in* so‘lg‘in, -*km* keskin, -*uk* yetuk, *no-* noto‘g‘ri, -*choq*
erinchonq.

Qo‘shma sifatlar: kul rang, chalasavod, mehnatsevar, hozirjavob.

Juft sifatlar: katta-kichik, oq-qora, yaxshi-yomon.

Takroriy sifatlar: baland-baland, shirin-shirin.

Ozaytirma sifatlar: sarg‘ish, ko‘kimir, nimpushti.

Kuchaytirma sifatlar: yam-yashil, g‘irt yolg‘on, jiqlqa ho‘l, tim qora

Sifat darajalari

Yaxshi – yaxshiroq – eng yaxshi, juda yaxshi, nihoyatda yaxshi

Sifatlarning otlashishi

Katta odamlarni hurmat qil – Kattalarni hurmat qil.

Nodon kishiga javob sukuldir - Nodonga javob sukuldir.

S O N

Ma'no turlari

Sanoq sonlar: ikki, yuz.

Dona sonlar: ikkita, yuzta.

Taqsim sonlar: ikkitadan, yuztadan.

Jamlovchi sonlar: ikkala, ikkov.

Kasr sonlar: ikkidan bir, sakkiz butun yuzdan yetmish besh.

Chaina sonlar: ikkilarda, yuztacha.

Tartib sonlar: ikkinchi, yuzinchi.

Tuzilishiga ko'ra turlari

Sodda sonlar: bir, sakson, ming.

Qo'shma sonlar: o'ttiz uch, to'qqiz yuz to'qson olti.

Juft sonlar: besh-olti, to'rtta-to'rtta, o'n besh-yigirma.

Sonlarning otlashishi

Ikkinchiliq qizim litseyni tamomladi – Ikkinchim litseyni tamomladi.

Uchta vazifani sen bajarasan, ikkita vazifani men bajaraman - Uchta vazifani sen bajarasan, ikkitasini men bajaraman.

OLMOSH

Ma'no turlari

Kishilik olmoshlari: men, sen, u, biz, siz, ular.

O'zlik olmoshi: o'z.

So'roq olmoshlari: kim, nima, qayer, qachon, qanday.

Ko'rsatish olmoshlari: ana, mana, u, shu, o'sha, mana bu.

Belgilash olmoshlari: hamma, barcha, bari, har kim, har qanday.

Bo'lishsizlik olmoshlari: hech kim, hech qayerda, hech qaysi.

Gur'on olmoshlari: allakim, nimadir, qachondir, allaqanday.

Olmoshlarning turlanishi

mening, seni, unda, undan; o'zim, o'zing, o'zingga, o'zingda;
kimning, qayerni, qachondan; undan, shunda, o'shangi; hammaning,
barchaga, baridan; hech kimim, hech nimasi, hech kimni, hech
nimadan; allakimning, nimadandir, qayerdandir.

FE'L

Müstaqil fe'llar: o'qimoq, ishlarmoq, chiqmoq, bermoq, o'tirmoq...

Yordamchi fe'llar: o'qib *chiqdi*, bilib *berdi*, kutib *o'tirmoq...*

Tuzilishiga ko'ra turlari

Sodda tub: ol, yoz, tur.

Sodda yasama: *-a* bo'sha, tuna, *-r* ko'kar, eskir, *-sa* suvska, *-sira* gumonsira, *-i* changi, *-illa* chirilla, *-lash* salomlash, *-ian* ajablan, *-la*

oqla.

Qo'shma fe'llar: ta'zim qil, xafa bo'l; sotib ol, gapirib yur.

Jasf fe'llar: qo'ydi-chiqdi, bordi-keldi.

Fe'l zamonlari

O'tgan zamon: yozdi, yozgan, yozgan edi, yozar edi, yozmoqchi edi, yozibdi.

Hozirgi zamon: yozadi, yozyapti (yozmoqda).

Kelasi zamon: yozmoqchi, yozar.

Fe'l nisbatlari

Aniq nisbat: yuvdi.

O'zlik nisbati: yuvindi.

Majhul nisbat: yuvildi.

Birgalik nisbati: yuvishdi.

Orttirma nisbat: yuvdirdi.

Yuvintirishdi – birgalik nisbatidagi fe'l

Fe'l mayllari

Xabar mayli: gapirdi, gapiryapti, gapirmoqchi.

Buyruq-istik mayli: gapiray, gapir, gapirsin, gapiraylik, gapiring, gapirsin(lar).

Shart mayli: gapirsam, gapirsang, gapirsa, gapirsak, gapirsangiz, gapirsalar.

Sifatdosh

Kelgan, kelayotgan, keladigan, keluvchi, kelajak, kelmish, kelasi.

Ravishdosh

Ko'rib, ko'ra-ko'ra, ko'rmay, ko'rgach, ko'rgani, ko'rguncha.

Harakat nomi

Ishlash, ishlarloq, ishlov

RAVISH

Ma'no turlari

Holat ravishi: jim, sekin, ketma-ket, piyoda, birdan.

Payt ravishi: kecha, bugun, ertaga, kechqurun, oyda-yilda.

O'rin ravishi: oldinda, yuqoriga, olisdan, pastgacha.

Daraja-miqdor ravishi: ko'p, ozgina, sal, ancha.

Sabab ravishi: noiloj, choraszizlikdan.

Maqsad ravishi: ataylab, jo'rttaga, atayin.

Ravishlarning yasalishi

Sodda: *-an* umuman, *-siz* so'zsiz, *-lab* yaxshilab, *-cha* o'zbekcha, *-chasiga* andijonchasiga, *-larcha* yigitlarcha, *-in* yashirin, *-ona* do'stona, *-lay* butunlay.

Qo'shma ravishlar: u yerga, bu yoqqa, shu vaqtida, har qachon, bir necha, qayvaqt, biroz.

Juft ravishlar: oz-moz, qishin-yozin, yonma-yon.

BOG'LOVCHI

Teng bog'lovchilar

Va, ham, hamda (-u, -yu, -da, bilan), ammo, lekin, biroq, yo, yoki,

goh, ham, ba'zan, na

Ergashtiruvchi bog'lovchilar: -ki, -kim, chunki, shuning uchun, go'yo, go'yoki, agar, garchi.

KO'MAKCHI

Sof ko'makchilar: bilan, uchun, kabi, sari, singari, sayin.

Ot ko'makchilar: yonida, ichiga, burun, ilgari, keyin.

Fe'l ko'makchilar: ko'ra, yarasha, boshlab, qaraganda.

YUKLAMA

So'roq va taajjub yuklamalari: -ni, -chi, -a, -ya.

Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari: -ki, -ku, hatto, ham, -u, -yu, -da, -oq.

Ayiruv-chegegaralov yuklamalari: -gina, xolos, faqat.

Aniqlov yuklarnalari: xuddi, naq.

MODAL SO'ZLAR

Albatta, shubhasiz, ehtimol, chansasi, shekilli, balki; mumkin, kerak, lozim, zarur; afsus, attang, esiz, menimcha, bor, yo'q, xo'p...

UNDOV SO'ZLAR

His-hayajon undovlari: oh, voh, dod, hay, uf, rahmat, balli, xormang...

Haydash-chaqirish undovlari: tu-tu, kisht, beh-beh...

TAQLIDIY SO'ZLAR

Tovushga taqlid: dupur-dupur, taq-taq, qiy-chuv, shivir-shivir...

Holatga taqlid: yalt, jimir-jimir, lip-lip, apil-tapil...

SO'Z BIRIKMASI

Moslashuv: talabalarning ro'yxati (talabalar ro'yxati), Anvarning kitobi.

Boshqaruv: uydan chiqmoq, telefon orqali gaplashmoq, daryoga qarab ketmoq.

Bitishuv: tilla soat, bilimli talaba, birinchi yil, shu odam, bajarilgan vazifa, ertalab kelmoq, kulib gapirmoq.

Oqli birikma: o'qimishli bola, asalday shirin, topshiriqni bajarish, sardorlarning barchasi.

Fe'lli birikma: hammani xursand qilmoq, savolni tushunmay, yaxshi bilgan.

Ravishli birikma: ovozdan tez, juda ko'p.

GAP BO'LAKLARI

Ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol.

GAP BO'LAKLARINING ODATDAGI TARTIBI

Payt holi, o'rinn holi, ega, to'ldiruvchi, maqsad holi, sabab holi kesiñ.

Ar iqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi.

Aziza va Diyora dam olgani ketishdi.

Uy vazifasini bajarishdan avval darsda o'tilganlarni takrorlash kerak. Kecha Toshkentda axborot texnologiyalari bo'yicha katta ko'rgazma c'zishini muvaffaqiyatli boshladи.

SODDA GAP

Sodda yig'iq gap: Abdurnalik ketdi.

Sodda yoyiq gap: Ertalab Abdumalik do'sti uchun sovg'a sotib olishga ketdi.

Murakkablashgan sodda gap: Dilbar, afsuski, hech narsadan xabari bo'limgan Abdumalik ertalab soat sakkizda onasidan pul olib do'sti Muzaffar uchun ko'nglidagidek sovg'a sotib olishga ketdi.

QO'SHMA GAP

O'quv yili tugadi va talabalar yozgi ta'tilga chiqdilar.

Eoris o'zbek tilini yaxshi biladi, biroq u bilimlarini yanada mustahkamlash uchun o'zbekcha teleko'rsatuvlarni doimo ko'rib boradi.

Bugungi musobaqada yo biz g'olib bo'lamiz, yoki durang bo'ladi.

Kimki burchini unutsa, o'sha hurmatini yo'qotadi.

Oxirgi fikrim shundan iboratki, qilgan ishlaringizning haminasi befoyda.

Sveta shunday gapirdiki, atrofdagilar hayron bo'lib qoldi.

Aytingki, ularni biz sabrsizlik bilan kutyapmiz.

Betob bo'lsangiz ham, bu ishni bugun tamomlashimiz zarur.

Yo'llar loy edi, shuning uchun shaharga bormadik.
Mashg'ulot kompyuter xonasida o'tkazilsa, slaydlarni namoyish etish
qulay bo'ladi.
Vaqting ketdi – naqding ketdi.
Ko'p so'zning ozi yaxshi, oz so'zning o'zi yaxshi...

KO'CHIRMA VA O'ZLASHTIRMA GAPLAR

"Ishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar haqida fikringizni bilmoqchiman".
- dedi O'lmas Siddiqova. O'lmas Siddiqova ishda yo'l qo'yilgan
kamchiliklar haqida fikrimizni bilmoqchi ekanini aytdi.
"Qodirjon, chet eldan qachon qaytdingiz?" - so'radi Shoira. Shoira
Qodirjondan chet eldan qachon qaytganini so'radi.

NUTQ USLUBLARI

So'zlashuv uslubi
Ilmiy uslub
Badiiy uslub
Rasmiy-idoraviy uslub
Publitsistik uslub

MUNDARIJA

1. Vatanim – vijdonim, g’ururim, orim	3
2. Kasbim – faxrim	13
3. Talaba va zamon	26
4. Til – ma’naviyat ko‘zgusi	41
5. Xalqaro aloqalar	53
6. An'analar – bebahо boylik	62
7. Tarix, fan, san'at	72
8. Ona tabiat -- qo‘riqxona!	82
9. Biznes olamida	92
10. Sog‘lom turmush tarzi	103
11. Uslublar va ularning xususiyatlari	120
12. Barkamollik sari	132
Talabalar mustaqil ishini tashkil etish uchun tavsiyalar	142
Adabiy-badiiy matnlar	145
Foydalanish uchun nazariy materiallar	156

**Saodat Adilova,
Mirzahakim To‘xtamirzayev**

O‘ZBEK TILI

**Bakalavriatning barcha yo‘nalishlari
rusiyzabon talabalari uchun o‘quv qo‘llanma**

**Muharrir: B.Mirkamolova
Texnik muharrir: F.Iskandarov
Musahhih: Sh.Yurussova**

**Bosishga ruxsat etildi 19.10.2007. Bichimi 60x84^{1/16}.
Bosma tabog‘i 10,5. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 146**

**Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Olmazor, 171.**